

# GOLDEN BRAIN

Scientific Journal

ISSN: 2181-4120



Volume 1, Issue 12



CiteFactor  
Academic Scientific Journals



Google  
Scholar



2023/12  
May

**ISSN 2181-4120**

**VOLUME 1, ISSUE 12**

**MAY 2023**



<https://researchedu.org/index.php/goldenbrain>

**“GOLDEN BRAIN” SCIENTIFIC JOURNAL  
VOLUME 1, ISSUE 12, May, 2023**

**EDITORIAL BOARD**

**G. Kholmurodova**

*Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University*

**A. Madaliev**

*Professor, Doctor of Economics, Tashkent State Agrarian University*

**G. Sotiboldieva**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University*

**U. Rashidova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Philological Sciences, Samarkand State University*

**D. Darmonov**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University*

**X. Abduxakimova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University*

**U. Ruzmetov**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Chemical Sciences, National University of Uzbekistan*

**M. Yusupova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University*

**M. Kambarov**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Namangan State University*

**S. Sadaddinova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Physics and Mathematics Sciences, Tashkent University of Information Technologies*

**M. Fayzullaev**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) Geographical Sciences, Karshi State University*

**Z. Muminova**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine*

**B. Kuldashov**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine*

**Kh. Askarov**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Fergana Polytechnic Institute*

**S. Nazarova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Bukhara State University*

**O. Rahmonov**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Technical Sciences, Fergana Polytechnic Institute*

**G. Tangirova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University*

**Z. Koryogdiev**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Historical Sciences, Bukhara State University*

**S. Ubaydullaev**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology*

**R. Yuldasheva**

*Associate Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University*

**M. Yuldasheva**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Namangan State University*

***Editorial Secretary: J. Eshonkulov***

**ТАЛАБАЛАР МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМНИНГ «ЭШИТИШ ФИЗИКАСИ.  
ИНФРАТОВУШ, ТОВУШ ВА УЛЬТРАТОВУШ» МАВЗУСИНИ  
БАЖАРИШИ БЎЙИЧА УСЛУБИЙ КЎРСАТМА**

\*К.ф-м.н. **М.Х.Жалилов.**, \*асс. **Ж.Х.Хамроев.**, \*\* **Каршиев Ж.И.**

\*Самарқанд Давлат Тиббиёт университети “Физика, биофизика ва тиббий физика” кафедраси,

\*\* Самарқанд Давлат Тиббиёт университети Даволаш факультетининг 1-курс талабаси.

**Аннотация.** Анъанавий таълим шакллари билан биргаликда, масофа вий таълим технологиялари ҳам, жадаллик билан кенг жорий этилмоқда. Бунинг учун дарс жараёни оқилона ташкил қилиниси, ўқув материалини кичик-кичик бўлакларга бўлиб, таълим мазмунини очишда интерфаол таълим усулларини қўллаш ва талаба амалий машқларни имкон қадар мустақил бажаршилари талааб этилади.

**Калит сўзлар:** Анъанавий таълим, технология, эшитиши, шахс, тиббиёт, профессор-ўқитувчи, жадаллик, комуникация, ахборот-ресурс, олий таълим.

**Муаммонинг қўйилиши**

Тиббиёт йўналишида мутахассислар тайёрлайдиган олий таълим муассасаларида олиб борилаётган ўқув машғулотларида жуда қўплаб илғор таълим технологиялари қўлланилади. Бу технологияларни қўллаш асосида талабалар билимини янада мустаҳкамлаш қўникмасини ҳосил қилиш ва ўзлаштириш сифатини оширишга эришиш учун ҳаракат қилинади [1]. Фан ва техника жумладан тиббиёт ва технологиялар юқори суратларда тарақкий этаётган даврда таълим, шахсни ҳар томонлама вояга етказиш, унда комиллик ва малакали мутахассисга хос сифатларни шакллантиришда муҳим ўрин тутади. Бу

технологиялар талабаларнинг билим, кўникма ва малакаларини янада мустаҳкамлаш ва ўзлаштириш сифатини оширишга йўналтирилган. Бу эса ўз навбатида, уларнинг таълимий фаолиятида замонавий коммуникация воситаларидан самарали фойдаланишни тақозо этади [2]. Таълим жараёнида дидактик восита сифатида, замонавий коммуникация воситаларидан самарали фойдаланиш, таълим сифатини оширишда муҳим омил бўлиб хизмат қиласди. Замонавий шароитда, таълим жараёнининг барча имкониятларига кўра шахсни ривожлантириш, ижтимоийлаштириш ва унда мустақил, танқидий, ижодий фикрлаш қобилиятларини шакиллантиришга ва тарбиялашга йўналтирилиши талаб қилинмоқда. Анъанавий таълим шакллари билан биргаликда, масофавий таълим технологиялари ҳам, жадаллик билан кенг жорий этилмоқда [3]. Бу эса, талабаларни ахборот коммуникация воситаларидан эркин фойдалана олишларига ва олий таълим муассасаларини ҳар бир талабасига интернет тармоғи ва ундаги маълумотлардан моҳирлик билан фойдаланиши сабабли, таълим сифати ҳамда мазмунини яхшиланишига ижобий таъсир қиласди. Талабаларни фаоллаштириладиган усуллар билан бойитиш, уларнинг ўзлаштириш даражасининг кўтарилишига олиб келади. Бунинг учун дарс жараёни оқилона ташкил қилиниши, профессор-ўқитувчи томонидан талабаларнинг қизиқишини орттириб, уларнинг таълим жараёнидаги фаоллигини муттасил рағбатлантирилиб турилиши, ўқув материалини кичик-кичик бўлакларга бўлиб, таълим мазмунини очишда интерфаол таълим усулларини қўллаш ва талаба амалий машқларни имкон қадар мустақил бажаришлари талаб этилади [4]. Ҳозирги вақта профессор-ўқитувчилар мазмунли ва сифатли таълим жараёнини ташкил қилишларида ахборот манбаларидан яъни ахборот коммуникацион технологиялар имкониятларидан, ахборот-ресурс марказлари электрон ўқув ресурс базаларидан, маҳалий ва хорижий ўқув, услубий ва илмий адабиётлардан кенг фойдалана олишлари муҳимдир. Таълим тизими олдига қўйилган вазифаларни бажариш, талабаларнинг мустақил равишда ўқув материалларини ўзлаштириши, уларнинг

касбий ўсишини рағбатлантириш, уларда ижодий фаолликни тарбиялаш күп жиҳатдан профессор-ўқитувчига боғлиқ бўлади. Шунингдек, улардан юқори даражадаги тайёргарлик, мустақил равишда қарорлар қабул қила олиш, белгиланган вазифаларни бажариш учун кўп маълумотлар орасидан кераклисини танлаб олиш ва бу маълумотларни қайта ишлай олиш талаб қилинади. Педагог мустақил таълим фақатгина талаба учун эмас, балки ўзи учун ҳам керак эканлиги, ўзининг ишини осонлаштириш, мустақил фикр юрита оладиган талабалар билан мулоқотда бўлиб, ўз билимини бойитишни ҳам англаши лозим [5].

Шу билан бир қаторда, педагогнинг ўкув жараёнида талабалар билан ҳамкорлиги, уларнинг мустақил таълимга ишончини шакллантириши, ўқитишининг янги педагогик технологиялардан фойдаланаётганини кўрсата олиши, маъruzalarни аънанавий, яъни фақатгина маълумот бериш билан чегараланмасдан, балки муаммоли интерактив усулда олиб бориши кутилаётган ижобий натижаларга олиб келади [3,4].

**Фанни ўқитишда замонавий ахборот ва педагогик технологиялар:** Талабалар “Тиббий ва биофизика” фанини ўзлаштиришлари учун ўқитишининг илғор ва замонавий усулларидан фойдаланиш, янги информацион ва педагогик технологияларни татбиқ қилиш муҳим ахамиятга эгадир. Фанни ўзлаштиришда дарслик, ўкув ва услубий қўлланмалар, маъруза матнлари, технологиялар мажмуаси, компьютер дастурлари, электрон материаллар, замонавий лаборатория жиҳозлари, виртуал лабораториялар ҳамда видеотизимлардан фойдаланилади. Маъруза, амалий дарс ҳамда мустақил таълимда мос равишида педагогик ва ахборот технологияларидан фойдаланилади. Юқоридаги мавзуни ўтиш учун Самарқанд Давлат тиббиёт университетида 2 соат маъруза, 2 соат амалий дарс 2 соат мустақил шуғулланиш учун соат ажратилган [2].

**Мустақил таълимнинг шакли ва мазмuni:** Мустақил таълимининг асосий мақсади – профессор-ўқитувчининг раҳбарлиги ва назорати остида муайян ўкув

ишларини мустақил равища бажариш учун талабада билим ва кўникмаларни шакллантириш ва ривожлантиришдир.

Талаба мустақил таълимини ташкил этишда қуидаги манбалардан фойдаланади:

- назарий мавзуларни ўқув адабиётлари ёрдамида мустақил ўзлаштиради;
- берилган мавзулар бўйича ахборот тайёрлайди;
- амалий машғулотларга тайёргарлик қўради;
- назарий билимларни амалиётда қўллайди;
- фаннинг бўлимлари ва мавзулари устида маҳсус ёки илмий адабиётлар (монографиялар, мақолалар) бўйича ишлашади васеминарларда маърузалар қиласди;
- автоматлаштирилган ўргатувчи ва назорат қилувчи тизимлар билан ишлайди;
- компьютер дастурий воситалари ёрдамида тақдимотлар тайёрлайди;
- илмий мақола, анжуманга маъруза ва тезислар тайёрлайди ва қатнашади.

### **ТАЛАБА МУСТАҚИЛ ИШИ МАЗМУНИ, ТАШКИЛ ЭТИЛИШИ:**

Мустақил ишнинг асосий мақсади – талаба муайян ўқув ишларини мустақил равища бажариш учун зарур бўлган билим ва кўникмаларни шакллантириш ва ривожлантиришдан иборат. Талабанинг мустақил иши ўқув режасида шу фанни ўзлаштириш учун белгиланган ўқув ишларини ажralmas қисми бўлиб, у маъруза матни, амалиёт дарс материалларида берилганлари билан услубий ва ахборот ресурс таъминланади. Мустақил ишларнинг бажарилиши рейтинг тизими талаблари асосида назорат қилинади. «**Эшлиш физикаси. инфратовуш, товуш ва ультратовуш**» мавзуси бўйича реферат тайёрлаш; семинар ва амалий машғулотларга тайёргарлик қўриш назарда тутилади.

### **Талаба мустақил ишида кўзда тутилган асосий вазифалар қуидагилардан иборат:**

- билимни мустақил тарзда пухта ўзлаштириш кўникмаларига эга бўлиш;
- керакли маълумотларни излаб топиш кулай усувлари ва воситаларини аниqlаш;
- ахборот манбаалари ва манзилларидан самарали фойдаланиш;

- анъанавий ўқув ва илмий адабиётлар, мөъёрий хужжатлар билан ишлаш;
- электрон ўқув адабиётлар ва маълумотлар банки билан ишлаш;
- интернет тармоғидан мақсадли фойдаланиш;
- берилган топширикнинг рационал ечимини топиш;
- маълумотлар базасини тахлил этиш;

**Талаба мустақил ишининг максади З та йўл билан амалга оширилади:**

1. Маъруза ва амалий машғулотларда бўлмаган мавзуларни мустақил кайта ишлайди, билим ва кўникмалар ҳосил қиласди.
2. «Эшитиш физикаси. инфратовуш, товуш ва ультратовуш» га оид бўлган барча маълумотларга доир билимларни профессор-ўқитувчи ёрдамида эгаллайди.
3. Нисбатан оддий материаллар билан танишиб, кейин маъруза ёки амалий машғулотлар давомида ўқитувчи томонидан билими янада кенгайтирилади.

**Талаба мустақил ишининг ташкилий шакллари:** “Биофизика” фанидан талабалар мустақил иши (ТМИ) Самарқанд давлат тиббиёт университети (СамДТУ) масоғавий ўқитии маркази (**МЎМ**) интернет портали орқали ҳамда кафедрада навбатчи ўқитувчилар ёрдамида амалга оширилади.

Хар бир талаба шахсий логин ва пароли орқали платформа **samtu.uz** интернет портали орқали СамДТУ МЎМ базаси биофизика фани саҳифасига кириб мустақил ишга мос мавзуларни танлайди ва шу мавзуларга таълуқли услубий кўрсатмалар, маъруза матнлари, слайдлар, амалий машғулот учун материаллар, конспект, тест ва бошқа маълумотлар устида ишлайди. Ўз-ўзини назорат этиш учун тестларни ечади ва ўз натижалари ва камчиликлар устида ишлайди.

**Талабалар мажбуриятлари ва билиши керак бўлган маълумотлар:**

1. Товушнинг физикавий тавсифлари.
2. Инфратовуш, товуш, ультратовушни частоталар бўйича фарқлаш.
3. Инфратовуш тўлқинларининг тиббиётда қўлланилмаслиги сабаблари.
4. Товуш интенсивлиги.

5. Вебер-Фехнер қонуни.
6. Тескари пезоэффект ҳодисаси.
7. Клиникада товуш орқали текшириш усуллари.
8. Аудиометринг тузилиши ва ишлаш тамойиллари.
9. Аудиограмма олиш.
10. Эхолокация.
11. Допплерография.
12. Чстоталар бўйича силжиш қонуни.
13. Ультратовуш терапияси.
14. Белгиланган муддатда мустақил ишни мувафақиятли тугатиш.
15. Зарур хажмдаги материалларни ўрганиш.
16. Мустақил ишни бажаришда максимал қизиқиш ва фаолликни намоён этиш.
17. Адабиётлар билан доимий ишламасдан туриб, етук мутахассис бўла олмасликни чуқур ҳис қилиш.

**Талабалар мустақил ишини услубий таъминлаш: moodle.sammu.uz**  
интернет портали орқали СамДТУ **МЎМ** базаси биофизика фани саҳифасида  
**«Эшитиш физикаси. инфратовуш, товуш ва ультратовуш»** мавзуси учун:

- Услубий кўрсатмалар,
- Амалий дарс материаллари
- Маъруза матнлари,
- Слайдлар(презентация),
- Конспектлар,
- Видеолавҳалар
- Ўргатувчи тестлар,
- Назорат учун тест мавжуд.

#### **Талаба мустақил ишини назорат қилиш ва баҳолаш**

Ҳар бир талаба шахсий логин ва пароли орқали платформа **sammu.uz** интернет портали орқали СамДТУ **МЎМ** базаси биофизика фани саҳифасига кириб мустақил ишга мос мавзуларни танлайди ва шу мавзуларга таълуқли **услубий кўрсатмалар, маъруза матнлари, слайдлар, амалий машғулот** учун

**материаллар, конспект, тест** ва бошқа маълумотлар устида ишлаганлиги, тест натижалари, қайси рукун устида қанча вақт ишлаганлиги ва бошқа ҳаракатлари сервер компьютерлари орқали автоматик рўйхатга олиб борилади. Талабаларнинг мустакил ишини баҳолаш натижаси амалий машғулот баҳосига қўшилади ва жорий назорат (ЖН) баҳосида ҳисобланади.

Бундан ташқари ТМИ бўйича реферат мавзусининг таҳлили ўтказилади ва ТМИ баҳоси ЖН ичидаги амалга оширилади. Кафедра ТМИ топшириқларини ўқув йили бошида талабаларга етказади. ТМИ кафедрада 2 йил давомида сақланади.

### **Хулоса.**

Мустақил таълимни бажариш бўйича бу услубий кўрсатмада келтирилган методик тавсиялардан барча тиббиёт олийгоҳлари талабалари фойдаланиши мумкин.

### **Фойдаланилган адабиётлар.**

1. Жалилов М.Х. Ж.Х.Хамроев. М.Н.Ахроров. “Эшитиш физикаси. инфратовуш, товуш ва ультратовуш” мавзусидаги бир жуфтлик амалий дарсни модуль тизимида ўтиш. Тош.ДПУ “Замонавий узлуксиз таълим сифатини ошириш: Иновация ва истиқболлари Тошкент 2020 й. 431-4366.
2. Shakhodjaev M.A. Xamdamov N.N. “Modern teaching methods using didaktig aids (on tea example of practical and laboratory classes” academicia: an international multidisciplinary research journal 10, issue 10, october 2020 1229-1932 б.
3. Shakhodjaev M.A. Pozilov Sh.R.,“Factors of professional training in the system of vocational education (power engineering” academicia: an international multidisciplinary research journal 10, issue 10, october 2020 1238-1241 б.
4. Жалилов М.Х. Ж.Х.Хамроев. М.Н.Ахроров. “Рентген нурлари. Ионлаштирувчи нурланишларнинг моддаларга таъсири”ни ўрганиш мавзусини модул тизимида ўқитиши. Халқаро ўқув-услубий анжуман тўплами. “Олий тиббий таълим тизими ислоҳотлари: марказий осиёда таълим “ХАБ” ни ташкил этиши йўлида” Тошкент 2022й. 140-143б.

## ADVERTISING TEXTS AND ITS TRANSLATION

**Isakova Nargizakhon Valijon qizi**

2nd year student of

Uzbekistan State University of World Languages

**ANNOTATION.** This article provides information on the study of advertising texts in linguistics, linguistic analysis of their features, why advertising texts are actually needed, the characteristics of advertising texts and their translations. An interesting aspect of the advertising text is that it serves not only to stimulate the consumption of the population, but also to convey certain social, educational or cultural values through it.

**Keywords:** advertising texts, television, media, internet, translation.

An advertisement text is a form of written or typewritten advertisement that intends to share a narrative about a product. This comes into the form of an ad copy. Texts may appear through captions of social media posts, billboards, posters, or fliers that market the brand.

We all know that a picture is worth a thousand words, but what happens when the picture is out of position or out of context, or if it doesn't convey any meaning at all? We do indeed waste our time and effort. Our work must contain a decent advertising language that satisfies all of its requirements in addition to an image.

In the modern linguistic literature, you can find a number of definitions of the word "advertising". V.V. Uchenova writes that the loud screams of city reporters about the most important current events are the source of the Latin verb resamare, meaning to shout; and the name of the advertising event became a derivative of this verb. "Advertising is a network of mass communication, according to which informational-figurative, expressive-offer works are created and distributed, which are directed to

groups of people in order to select and motivate the advertiser" ["Sotsialnaya reklama. Uchebnoe posobie "Uchenova V. V., Staryx N. V.: Moscow, ., 78-s].

The amount and volume of information conveyed has a profound effect on the way information is received and processed. Excessive information in advertising, on the contrary, their inadequacy has a significant impact on the purchase of the product. It follows that the activation of cognitive need remains a strong psychological factor in advertising [2, 48].

It is content that aims to catch consumers' attention, compel them to do an action that fits with the goals of our advertising campaign, and encourages them to purchase our good or service. They are texts with a strong capacity for persuasion and for commercial reasons, therefore every marketing strategy must take them into account. Every ad or advertisement needs to include marketing copy that reaches the target market and opens doors to sales.

Remember that advertising text should be clear, simple, concise, original, coherent, new ideas, and, above all, generate a significant impact on the public. In copywriting, there are two main groups of advertising text: argumentative copy and narrative copy. Argumentative-descriptive. These works are built on arguments to persuade the intended audience, as the name implies. Additionally, the message is descriptive and explains the features of the good or service as a component of the justification. The cell phone and technology device industries regularly use this style of combative advertising copy. These are the brands that make an effort to persuade customers by outlining features, distinctions, and other details.

Narratives. Brands that appeal to emotionality and feelings use narrative advertising copy for their campaigns. This is due to the use of narrative and stories as an element to connect with the receiver. One brand that uses this type of advertising copy is Coca-Cola.

The act of transforming an advertisement created for a particular audience into a format that appeals to a group of people who speak a different language is known as advertising translation. Ad material must be contextualized and culturally adjusted

when being translated in order to effectively engage target audience. Advertising text is the informational message intended to pique the target audience's interest in a good or service. The translation of advertisements must be proficient from the perspectives of both linguistic standards and marketing strategies. The requirement for their modification to cultural traits, mentalities, and pertinent trends for the foreign target audience is the distinguishing aspect of the translation of advertisements. It takes either target language proficiency or creative ability to complete the translation. The content on brochures, booklets, and leaflets, as well as presentations and messages in the media, on websites and bulletin boards, etc., are all examples of campaigns for the promotion of goods.

When a business enters foreign markets for sales as well as for international partners and investors, translation of marketing materials is necessary. Translation will also be essential if the target audience includes immigrants from other countries. Strict control over the translation's semantic component is required. Otherwise, the following errors could occur:

- inappropriate tracing-paper from a foreign language;
- incorrect interpretation of the name of a brand.

The essential requirement of translating commercials is to concentrate on the message rather than the words alone. When it comes to translating advertising, taking a literal approach might be a significant mistake that could lead to a disastrous campaign as well as a weak one.

According to R. Reeves, a specialist in advertising, the consumer remembers only one clear proof or one clear idea from the text of the advertisement [3, 27].

The English language has a large vocabulary, which is well-known. Without a strong vocabulary, advertising is boring. It cannot open up consumer markets for a brand. These words should be associated with the brand that is most likely to draw customers. Advertising language is simply a combination of extra linguistic and linguistic means of expression governed by mass communication laws and general literary rules, as well as a unique language structure that allows the addressee to

understand specific information while taking into account the cultural, sociological, and psycholinguistic features of the language. The primary communicative goal of the advertising text is to persuade the reader to select the promoted goods and services.

## LIST OF REFERENCES

1. "Sotsialnaya reklama. Uchebnoe posobie" Uchenova V. V., Staryx N. V.: Moscow.
2. Rosenthal D.E., Kokhtev N.N. The language of advertising texts. - Moscow, 1981 .-- 104 p.
3. Medvedeva E.V. Advertising propaganda, or how much is opium for the people vestnik MGU
4. Xojiev A. Annotated Dictionary of Linguistic Terms. - Tashkent, 2002. 158 p

**SPINAL OG‘RIQSIZLANTIRISH FONIDA INTRAOPERATIV  
SEDASIYANING OPERATSIYADAN KEYINGI DAVRDA KOGNITIV  
FUNKTSIYAGA TA’SIRI**

**Xudoyberdiyeva Gulrux Sobirovna,  
Musurmonov Aminjon Melikulovich**  
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti  
[Xudoyberdievagulruh@gmail.com](mailto:Xudoyberdievagulruh@gmail.com)

**ANNOTATSIYA**

**Dolzarbliligi.** Zamonaviy anesteziologiyada eng ko‘p muhokama qilinadigan muammolardan biri bu jarrohlik va og‘riqsizlantirish bilan bog‘liq kognitiv disfunktsiyadir[1].

**Tadqiqot materiallari.** Tadqiqot Samarqand Davlat Tibbiyot Universitetiga qarashli 1-son Klinikasida va Samarqand viloyati perinatal markazida o‘tkazildi. Tadqiqotga 35 nafar homilador ayollar qatnashdi.

**Tadqiqot natijalari.** Tadqiqot natijalarini tahlil qilish operatsiyadan keyingi 1 va 5-kunlarda guruhlar o‘rtasida kognitiv funksiyalar darajasida statistik jihatdan muhim farq borligini aniqladi. Shunday qilib, operatsiyadan keyingi 1 va 5-kunlarda, deksmedetomidin yordamida guruhda kognitiv holat ko‘rsatkichlari sibazon guruhiga qaraganda statistik jihatdan sezilarli darajada yuqori bo‘ldi, bu sedasya deksmedetomidin bilan orqa miya og‘riqsizlantirish usulining tug‘ruq paytida ayollarning kognitiv salohiyatiga minimal salbiy ta’sirini ko‘rsatdi.

**Xulosa.** Orqa miya og‘riqsizlantirish fonida kesarcha kesish operatsyalarida intraoperativ sedatsiya benzodiazepin guruhiga kiruvchi sibazon bilan emas, balki deksmedetomidinni qo‘llash, operatsiyadan keyingi kognitiv disfunksyalarining kamayishiga xizmat ko‘rsatadi[3].

**Kalit So‘zlar:** Spinal og‘riqsizlantirish, sedatsya, homiladorlik, kognitiv funksya, deksmeditomodin, sibazon.

# ВЛИЯНИЕ ИНТРАОПЕРАЦИОННОЙ СЕДАЦИИ ПРИ КЕСАРЕВОМ СЕЧЕНИИ В УСЛОВИЯХ СПИНАЛЬНОЙ АНЕСТЕЗИИ НА КОГНИТИВНЫЕ ФУНКЦИИ В ПОСЛЕОПЕРАЦИОННОМ ПЕРИОДЕ

Худойбердиева Гулрух Собировна,

Мусурмонов Аминжон Меликулович

Самаркандский Государственный Медицинский Университет

## **АННОТАЦИЯ**

**Актуальность.** Одной из наиболее обсуждаемых проблем в современной анестезиологии является когнитивная дисфункция, связанная с оперативным вмешательством и анестезией. Когнитивные нарушения после операции являются распространенным и нежелательным явлением, а интерес к ним сопровождается увеличением числа научных трудов, опубликованных за последнее время [1].

**Материал и методы.** Перспективное, рандомизированное, простое слепое исследование выполнено в областном перинатальном центре (г. Самарканд). Обследовано 35 женщин, которым были включены: доношенная беременность, рубец на матке после кесарево сечения, врожденная или приобретенная патология костей таза, отсутствие неврологической симптоматики повреждения головного мозга, преэклампсия, а также миопия.

**Результаты исследования** Анализ результатов исследования выявил наличие статистически значимой разницы в уровне когнитивных функций между группами на 1-е и 5-е сут после операции. Так, на 1-е и 5-е сут после операции в группе с использованием дексмедетомидина показатели когнитивного статуса были статистически значимо выше, чем в группе с применением сибазона, что свидетельствовало о минимальном негативном влиянии спинальной анестезии с седацией дексмедетомидином на когнитивный потенциал у рожениц.

**Заключение.** При операции кесарево сечения в условиях спинальной анестезии более предпочтительной является седация дексмедетомидином[3].

**Ключевые слова.** Седация, дексмедетомидин, сибазон, спинальная анестезия, когнитивные функции, беременность.

**Dolzarbliligi.** Operatsiyadan keyingi kognitiv disfunktsiya (OKKD) – operatsiyadan keyingi erta va kech davom etadigan kognitiv buzilish hisoblanib, klinik jihatdan xotira buzilishi, diqqatni jamlashda qiyinchilik va boshqa yuqori kognitiv funktsiyalarning buzilishi (fikrlash, nutq va boshqalar) shaklida namoyon bo‘ladi [2,5].

So‘nggi yillarda og‘riqsizlantirish uchun ishlatiladigan dorilar va OKKD o‘rtasida ma’lum bir bog‘liqlik borligi haqida ba’zi adabiyotlarda ko‘rishimiz mumkin, bu esa og‘riqsizlantirish amaliyotini yanada takomillashtirish orqali kognitiv buzilish xavfini kamaytirishga imkon beradi. 2011 yilda Evropa dorilar agentligi Deksmedetomidin ustida tadqiqot o‘tkazdi va amaliyotda foydalanishga ro‘xsat berdi. Deksmedetomidin (Kvanadeks) alfa-2-adrenergik retseptorlarning yuqori selektiv Agonisti sifatida u umumiyl, mahalliy og‘riqsizlantirish va intensiv terapiya bo‘limlarida bemorlarni tinchlantirish ya’ni sedativ, anksiyolitik va og‘riq qoldiruvchi dori sifatida taklif qilingan[3]. O‘tkazilgan ko‘plab tadqiqotlarga qaramay, operatsiyadan keyingi kognitiv kasalliklarning oldini olish va davolash bo‘yicha klinik protokollar hozirda mavjud emas.

**Tadqiqotning maqsadi:** Spinal anesteziya fonida kesarcha kesish operatsyalarida intraoperatsion sedatsyaning operatsiyadan keyingi kognitiv xususiyatlariiga ta’sirini aniqlash.

**Tadqiqot material va usullari.** Tadqiqot Samarqand Davlat Tibbiyot Universitetiga qarashli 1-son Klinikasida va Samarqand viloyati perinatal markazida o‘tkazildi. Tadqiqotga 35 nafar homilador ayollar qatnashdi, quyidagi tashhis ostida: to‘liq va to‘liq bo‘lmagan muddatli homiladorlik, kesar kesish operatsiyasidan so‘ng bachadonda chandiq, tos suyaklarining tug‘ma yoki orttirilgan patologiyasi, miya shikastlanishining nevrologik belgilari yo‘qligi, preeklampsiya yengil darajasi,

shuningdek turli darajadagi miyopiya. Istisno mezonlari: katta qon yo‘qotish (AQH ning 30% dan ortig‘i), eklampsiya, surunkali nonspesifik va o‘tkir o‘pka yallig‘lanish kasalliklari, yurak-qon tomir kasalliklari, morbid semirish, bemor og‘riqsizlantirish usulini rad etishi. Barcha bemorlar operatsiyadan oldin anesteziolog tomonidan tekshirildi va ASA bo‘yicha II sinfga to‘g‘ri keldi. Barcha homilador ayollar og‘riqsizlantirish uchun yozma ravishda rozilik xati berishdi. Barcha homilador ayollar operatsiyadan oldingi premedikatsya tayyorgarligini oldilar: oyoqlarni bintlash, 0,9% - 500 ml natriy xlorid eritmasini oldindan infuziya qilib yuborish.

Tadqiqot guruhlari boshlang‘ich guruh holatlari ya’ni, homiladorlik yoshi va ekstragenital patologiya bo‘yicha yosh, vazn, jismoniy kabi holatlar bilan taqqoslandi. Shuningdek, perioperativ davrda sezilarli farqlar bo‘lmagan (anesteziyaning sezgir darjasи, operatsiya davomiyligi, intraoperativinfuziya qon yo‘qotish), jarrohlik aralashuvning davomiyligi 30-40 daqiqa ichida o‘zgargan.

Barcha ayollar II guruhga bo‘lingan. I (n = 18) guruhda sedasiya 5 mg sibazon bilan o‘tkazildi. Subaraxnoidal bo‘shliq punksyasi LII–LIV bel umurtqalari sohasida pencil-point G25-26 tipidagi ignalar bilan amalga oshirildi va orqa miya suyuqligi chiqgandan so‘ng sekin-asta (2 daqiqa davomida) 0,5% bupivakainning giperbarik eritmasi yuborildi[3]. II (n = 17) guruhda premedikatsiya davomidan boshlab vena ichiga 0,5 mkg/kg Kvanadeks ("Yuriy Farm") 15 daqiqa davomida yuborildi, davom ettiruvchi dozasi operatsiya oxirigacha 0,50,8 mkg/kg soatni tashkil etdi.

Kognitiv funktsiyalar quyidagi shkalalar yordamida baholandi: Mini Mental State Examination (MMSE), sedasiya davomiyligi RASS shkalasi yordamida nazorat qilindi va -2,-3 ballarda saqlandi.

Statistik ishlov berish "ma’lumotlarni tahlil qilish", "ta’riflovchi statistika" bo‘limlari tomonidan "Microsoft Excel" 2013 dasturlari to‘plami yordamida statistik ishlov berish dasturlari to‘plami bilan amalga oshirildi. Muhimlik mezoni xato ehtimoli ko‘rsatkichining qiymati yoki xato gipotezani qabul qilish ehtimoli (p) 5% dan ko‘p bo‘lmagan ( $p \leq 0,05$ ) ko‘rsatkichlar bilan baholandi.

### **Tadqiqot natijalari va ularni muhokama qilish.**

Sibazonni fraksiyonel yuborishdan keyin 5 mg (I gr.) [3] va kvanadeksning 15 daqiqalik vena ichiga yuklanish dozasi (II gr), guruh bemorlarida sedasiya darajasi  $2,8 \pm 0,27$ , II guruhda esa  $2,5 \pm 0,19$  ball kuzatilgan. Teri kesmasidan oldin og‘riqsizlantirish chuqurligi RASS I gr., 7,4% ga o‘rtacha darajaga ko‘tarildi, II-da esa 8,2% ga ( $p > 0,05$ ) engil darajaga tushdi. Meva chiqarilgandan so‘ng RASS I gr. operatsiya oxiriga kelib 10,4% ( $P < 0,05$ ) ga oshdi va operatsiya tugaganidan 4 soat o‘tgach,boshlang‘ich bosqichga nisbatan 8,7 ( $p > 0,05$ ) va 70,8% ( $P < 0,05$ ) ga kamaydi. II guruhda RASS bo‘yicha tadqiqotning barcha bosqichlarida sedasiya darajasi -2,1 va -1,8 ball ( $P < 0,05$ ) oralig‘ida barqaror bo‘lib qoldi (2- jadval).

Operatsiyadan bir kun oldin dastlabki kognitiv holat guruhlar o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farqlarga ega emas edi. Mini mental state examination shkalasi bo‘yicha 1-guruhdagi median 28 ball, 2 – guruhda 28,5 ballarni tashkil etdi. (1-jadval). Operatsiyadan keyingi davrda ikkala guruhda ham OKKD rivojlanish darajasi 14,3% (5 bemor) ni tashkil etdi, shundan 11,4% (4 ayol) 1-guruhga va 2,9% (1 ayol) 2-guruhga tegishli. Operatsiyadan keyingi davrda kognitiv holat ko‘rsatkichlarining dinamikasi 1- jadvalda keltirilgan. 1

### **Jadval 1. Operatsiyadan oldingi va keyingi davrda kognitiv funktsiyalar ko‘rsatkichlari**

Kognitiv holat	1-guruh (n = 18)	2-guruh (n = 17)	P
Minimentalstateexamination shkalasiMinimentalstateexamination, operatsiyadan oldingi davr, ballar	28 [27; 29]	28 [28; 29]	0,001
Шкала Mini mental state examination Scale on 1-esutki, ballar	27 [26; 28]	28 [27; 29]	0,05
Шкала Mini mental state examination shkalasi на5-esutki, ballar	29 [27; 29]	30 [29; 30]	0,001

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki. 1 - tadqiqotda ishlatalidigan barcha o‘lchovlarning kognitiv holati operatsiyadan keyingi 1-kuni pastroq edi, shuni ta’kidlash kerakki,

neyropsixologik tekshiruv vaqtida og‘riqsizlantirish uchun dorilarning ta’siri tugadi va barcha bemorlar es-hushi aniq ongda edilar.

**Jadval 2. Sedatsya maqsadida qo‘llanilgan Deksmeditomidin va sibazonning operatsya davomida hayotiy muhim ko‘rsatgichlarga ta’siri.**

Ko‘rsatkic h	Gr	Sedasyondan oldin	Predoperatsy a holati	Homila olinganda n so‘ng	Operatsiyanin g oxiri	Operatsyada n so‘ng 4- sutka
Yurak urishib, min.	I	, min. 92,3±7,22	78,3±2,1	86,1±2,6	78,4±0,8	82,1±2,8
	II	90,8±3,1	66,4±6,4	76,7±3,1	72,7±1,2	78,3±1,6 BP
sistolik mm simob ustuni.	i	modda 136,35±6,4,4	88,4±8,5	96,8±3,7	107,4±3,6	112,7±0,4
	II	134,7±5,3	97,7±1,7	117,4±0,8	111,6±6,8	118,4±9,3
AD diastolik mm simob ustuni.	i modd a	92,3±4	57,3±6,2	67,4±4,2	66,4±9,3	67,2±3,3
	II	91,7±2,4	61,8±0,4	64,8±3,3	67,2±8,1	72,4±8,1
SpO <sub>2</sub>	I	97,4±1,4	94,1±0,3	95,7±0,9	96,5±6,3	97,3±2,4
	II	98,2±3,3	96,6±2,7	97,4±1,6	97,8±1,1	98,7±0,7
si, l/min×m <sup>2</sup>	I	2,49±0,035	2,30±0,025	2,32±0,04 7	2,41±0,04	2,50±0,06
	II	2,4141±0,03 1	2,27±0,04	2,31±0,06 2	2,47±0,016	2,61±0,03
opss, din ×C × sm <sup>-5</sup>	I	1867,2±40,5	1623,5±21,1	1643±18,1	1651±0,05	1720±0,017
	II	1881,5±31	1578,2±19,7	1641±30,5	1667±20,2	1703±9,3
RASS shkalasi (ballar)	I		-2,8±0,1	-2,4±0,7	-1,8±0,4	0,5±0,12
	II		-2,7±0,14	-2,4±0,2	-2,1±0,8	0±0,0

Gemodinamik ko‘rsatkichlar, operatsiya davomida qonning kislorod bilan to‘yinganligi va operatsiyadan keyingi laboratoriya va instrumental tadqiqotlar ko‘rsatkichlari maqbul qiymatlar doirasida edi. Qon bosimining o‘zgarishi (intraoperatsion qon bosimining dastlabki qiymatdan 30% yoki undan ko‘proq

operatsiya ichidagi pasayishi), gemodinamikaning beqarorligi, shuningdek vazopressorni qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'lgan barcha bemorlar tadqiqotdan chiqarildi. Onada yurak urish tezligi va qon bosimining pasayishi Markaziy postsinaptik adrenoreseptorlar -2 ning deksmedetomidin faollashishi bilan bog'liq bo'lib, natijada simpatik faollik pasayadi, so'ngra qon bosimi va yurak urish tezligi pasayadi [8]. Deksmedetomidin va sibazonning ong darajasiga ta'sirini qiyosiy baholash shuni ko'rsatdiki, deksmedetomidin tomonidan qo'zg'atilgan sedasiya, bemorlarning operatsiyadan keyin osonroq uyg'onishi bilan tavsiflanadi va bu ularning tibbiyot xodimlari bilan yanada samarali o'zaro muloqotini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish operatsiyadan keyingi 1 va 5-kunlarda guruhlar o'rtasida kognitiv funksiyalar darajasida statistik jihatdan muhim farq borligini aniqladi. Shunday qilib, operatsiyadan keyingi 1 va 5-kunlarda, deksmedetomidin yordamida guruhda kognitiv holat ko'rsatkichlari sibazon guruhiqa qaraganda statistik jihatdan sezilarli darajada yuqori bo'ldi, bu sedasya deksmedetomidin bilan orqa miya og'riqsizlantirish usulining tug'ruq paytida ayollarning kognitiv salohiyatiga minimal salbiy ta'sirini ko'rsatdi.

**Xulosa.** Orqa miya og'riqsizlantirish fonida kesarcha kesish operatsyalarida intraoperativ sedatsiya benzodiazepin guruhiqa kiruvchi sibazon bilan emas, balki deksmedetomidinni qo'llash, operatsiyadan keyingi kognitiv disfunksyalarining kamayishiga xizmat ko'rsatadi[3]. Uning qo'llanilishi operatsiyadan keyingi dastlabki davrda kognitiv buzilish chastotasining pasayishiga, og'riq sindromini intensivligining pasayishiga, operatsiyadan keyin tiklanish va faollashuvga ijobiy ta'sir ko'rsatishga olib keladi.

## ADABIYOTLAR

1. Ovezov tomonidan.M. IDR., 2018; McGuinnessS.P. etal., 2016; ChanB. etal., 2018; TraupeI. etal., 2018; TiwaryN. etal., 2021
2. Akimenko T. I., Zhenilo V. M., Lebedeva E. A., Zdiruk S. V., Aleksandrovich уиинтраоперационнойседации.s. operatsiyadan keyingi davrda kognitiv funktsiyalarga o‘murtqa behushlik sharoitida bachadon amputatsiyasida intraoperativ sedasyonning ta’siri // anesteziologiya va reanimatologiya Byulleteni. – 2018. - Jild 15, № 1. 10-17 betlar. DOI: 10.21292/2078-5658-2018-15-1-10-17
3. September 2011 EMA/789509/2011. CommitteeforMedicinalProductsforhumanuse (CHMP), кванадекса (дексмедетомидинарекламpsi bilan og‘rigan bemorlarda sezaryen uchun kvanadeks (deksmedetomidin) dan foydalanish imkoniyati преэклампсиейким yon-Din1, Nadirxanova N. S., Tkachenko R. A., Kulichkin yu. V., Nishanova F. P. PainMedicineJournal, 6-jild №4,2021.
4. Matlubov Mansur Muratovich, Khudoiberdieva Gulrukh Sobirovna, Mamaradjabov Sobirzhon Ergashevich/ Effect of Intraoperative Sedation in Women under Spinal Anesthesia on Cognitive Functions in the Postoperative Period American Journal of Medicine and Medical Sciences/ 2022; 12(12): 1223-1226  
doi:10.5923/j.ajmms.20221212.10
5. Khudoiberdieva Gulruh Sobirovna //Assessment of postoperative cognitive dysfunction when using dexmedetomidine in women after abdominal delivery// Журнал Проблемы Биологии и Медицины PBIM 2022 №6 (140)

## BOLTLI VA PARCHIN MIXLI BIRIKMALAR

**A.M.Abdurahmanov.,**

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti, O‘zbekiston

**Abdug‘ofurov.U.A**

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti talabasi, O‘zbekiston

Elektron pochta: [akhmadjon00@mail.ru](mailto:akhmadjon00@mail.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola boltli va parchinli birikmalar haqida, ularni hisoblash, mustaxkamlik afzallik va kamchilik, haqidagi malumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** parchin, boltlar, normal, mix, mustaxkam, diametri, ferma, balka.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о болтовых и заклепочных соединениях, их прочности, преимуществах и недостатках.

**Ключевые слова:** Заклепки, болты, нормальные, гвозди, прочные, диаметральные, ферменные, молотковые.

**Annotation:** This article provides information about bolted and riveted joints, their strength, advantages and disadvantages. According to these calculations, it is possible to determine and select bolted connections for construction work. The article shows examples of bolted connections and provides calculation examples.

### KIRISH

Boltlar qurilish soxasida keng qo‘llaniladi. Asosan boltlar po‘lat konstruksiyalarning montaj montaj birikmalarida ishlataladi. Boltlar aniqligi 3 turda bo‘ladi Normal, oshirilgan, o‘ta mustaxkam xillarga bo‘linadi.

Aniqligi normal bolitlar uchun teshiklarning diametri boltlarning diametriga 2-3mm ortiq, aniqligi oshirilgan bolitlar uchun esa boltlarning diametriga teng qilib parmalab teshiladi. Normal bolitlar uglerodli po'latdan tayoranadi. Ishlab chqarish texnologiyasiga qarab mustaxkamligi bo'yicha bir necha guruhga bo'linadi. 4.6 dan 8.8 gacha. Bolit mustaxkamligi ikkita son bilan bilgilanadi. birinchi sonni ikkinchi songa ko'paytirsak, materialning oqish chegarasidagi normal qarshilik anlanadi.


$$\sigma_T = R_{un} \text{ kg/mm}^2$$

Birinchi sonni 10 ga ko'paytirganda ,po'latning vaqtincha bo'ladigan qarshiligini topamiz.

$$\sigma_B = R_{un} \text{ kg/mm}^2$$

Normal boltlarning diametri kichikroq bo'lganligi sababli elementlar brikmasi tez va oson bajariladi, lekin brikma yumshoq yani (egiluvchan) va defarmatsiya xosil bo'lish imkoniyati bor. Shu tufayli hamma bolitlar ham bir hilda ishlamaydi.

### Parchinlik mixli brikmalar va ularning turlari



**Parchinli mixli birikmalarining afzalliklari:** birikmanning yuqori ishonchliligi, parchin chok sifatini osongina tekshirish qobiliyati, zarba va tebranish yuklariga yuqori qarshilik, qiyin ulanishi mumkin bo'lgan va butunlay qo'shilmaydigan materiallardan tayyorlangan qismlarni birlashtirish imkoniyati.

**Parchinli mixli brikmalarning kamchiliklari:** nisbatan yuqori narx va parchinli bo‘g‘inni ishlab chiqarishda ba’zi qiyinchiliklar, materialning yuqori iste’moli, murakkab shaklli qismlarni ulashning mumkin emasligi.

#### **Asosiy qism:Parchinli mixli choklarni mustaxkamlikka xisoblash**

Parchin mixli brikmalar ishlash sharoitiga binoan quydagicha turlarga tasniflanadi Mustaxkam (Ko‘priklar, fermalar ) brikmalarning yetarli darajada mustaxkam bo‘lishi talab etilganda ishlatiladi.

(5.5-rasm ) Parchin mix ishlarilgan ko‘pri




Parchin mixli brikmalarni xisoblashda soddalashtrishlar qabul qilinadi:

- 1.Yuklanish barcha parchin mixlarga teng tasir etadi deb qaraladi.
- 2.Tekshirilganda kuchlanishlar jamlanmasi e’tiborga olinmaydi.
- 3.Parchin mix yonboshdagi va teshikcha devordagi bosim baravar taqsimlangan eb olinadi.
- 4.Kesishuvchi kuchlanish parchin mixning ko‘ndalang kesimidabir tekis ,ravon taqsimlangan deb xisoblanadi.

(5.5-rasm) ko‘rsatilgan ustma-ust parchin mix yordamida biriktrilganini ko‘ramiz bunda  $d_0$ -parchin mix diametri, biriktrilgan listlarning qalinligiga bog‘liq bo‘lib ,bir kesimli brikmalar uchun  $d_0=(1.8:2.0) \sigma$ ,ikki kesimli brikmalar uchun  $d_0=(1.2:1.8) \sigma$ ,  $\sigma$ -briktriladigan detalarning qalinligi : Samalyotsozlikda  $d_0=2\sqrt{\sigma}$ . t-parchin mixlar o‘rtasidagi masofa bu masofa bir kesimli brikmada  $3.5d$ , t-masofaga tasir qluvchi kuch

$[\pi]$ -parchin mix sterjeni uchun kesilishdagi kuchlanish  $[\sigma]$ -parchin sterjeni bilan briktrlayotgan detallar o‘rtasidagi ezuvchi kuchlanish ;(L) Parchin mixdan chokning chekasigacha bo‘lgan masofa ,barcha turdagি choklar uchun (L)..(1.5.....2.0)d<sub>0</sub>



### 5.6-rasm Parchin mix va detallarni mustaxkamlikka xisoblash

5.6- rasmda berilgan parchin mix brikmaning mustaxkamlik sharti :

a) Parchin mix sterjinda kesishuvchi kuchlanishning xisobiy qiymati

$$\tau = \left[ \frac{F}{d_0} \right] \leq [\tau]$$

b) Parchin mix sterjini srti bilan brikayotgan detallar o‘rtasidagi ezilishdagi kuchlanishning hisobiy qiymati

$$\sigma = \frac{F}{l} \leq [\sigma]$$

c) Briktrlayotgan listning 1-1 kesim bo‘yicha cho‘zuvchi kuchlanishning xisobiy qiymati:

$$\sigma_u = \left[ \frac{F}{l} \right] \leq [\sigma_u]$$

Parchin mixlar asosan po‘lat ,miss ,alyumin kabi materiallardan taylorlanadi C<sub>T0</sub>, C<sub>T2</sub> Po‘lat materiallardan taylorlangan parchin mixlar uchun kesilishdagi kuchlanish  $|\pi_k|=100:140 Mna$ ,ezilishdagi kuchlanish  $[\sigma_{un}]=240:280 MPa$  Detallar uzilishida  $[\sigma_{un}]=160 MPa$

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. N.A. Samig‘ov “Qurilish materiallari va buyumlari” darslik. Toshkent Cho‘lpon 2013-yil.
2. Arxitektura ashyoshunosligi kitobi E.Qosimov
3. Беленя Е.И. Металлические конструкции. Москва, Стройиздат, 1985г.
4. Мельников Н.П. Металлические конструкции. Москва, Стройиздат, 1983 г.

### **Elektron manba**

1. <https://english-life.uz/parchin-mixli-birikmalar-parchin-mixli-birikmalarni-hisoblash/>

**“O‘SMIRLIK DAVRIGA XOS AGRESSIVLIKNI IJTIMOIY – PSIXOLOGIK  
XUSUSIYATLARI”  
(MEHRIBONLIK UYI TARBIYALANUVCHILARI MISOLIDA)**

**Xamidova Fariza Shuxrat qizi**

O‘zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti

Pedagogika va umumiy psixologiya kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi

**ANNOTATSIYA:** *Tajavvuzkorlikni keltirib chiqaradigan yana bir sabab: kelisha olmaslik, aniq bir to‘xtamga kela olmaslik kabilar, tarbiyalanuvchi o‘smirlarda keyinchalik doimiy salbiy hissiyotlarni shakllanishiga olib keladi.*

**KALIT SO‘ZLAR:** *Agressiya, yetimlik, tajovuzkorlik.*

**ANNOTATION:** *Another reason that causes aggression: inability to come to an agreement, such as inability to come to a definite end, later leads to the formation of permanent negative emotions in adolescents.*

**KEY WORDS:** *Aggression, orphanhood, aggression.*

### **KIRISH**

Angliyalik psixolog olim R.Bernisonalik mehrga tashnalikni tahlil kila turib, shunday deb yozadi: salbiy dalillarsiz “men konsepsiyasi”ning rivoqlanishi va hissiz tajavvuzkorlik bolaning ota-onasiga va onalik rolini bajaruvchi kishiga nisbatan qo‘polligi natijasidir. Bolada hech kimga qo‘shilmaslik, odamovilik, tundlik hissi paydo bo‘la boshlaydi. Bular esa salbiy “Men konsepsiya”sini keltirib chiqaradi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Tajavvuzkorlikni keltirib chikaradigan yana bir sabab: kelisha olmaslik, aniq bir to‘xtamga kela olmaslik kabilar, tarbiyalanuvchi o‘spirinlarda keyinchalik doimiy

salbiy hissiyotlarni shakllanishiga olib keladi. Psixolog olimlardan V.S.Rotenberg va S.M.Bondarenko o‘z konsepsialarini ishlab chiqdilar. “Qidiruv faolligi” deb atalgan ushbu konsepsiya mualliflarining ta’kidlashicha agar qidiruv faolligini yo‘nalishi o‘zgartirilsa tajavuzkorlikni yo‘qotish mumkin bo‘ladi. O‘z o‘rnida bu olimlar nemis psixoterapevti G.Ammon konsepsiyasiga yaqinlashadi. G.Ammon har bir odam tajavuzkorlik bilan tug‘ilishini, normal rivojlanish natijasida asta-sekinlik bilan ijodiy garmonik rivojlanishga o‘tishini ta’kidlaydi.

Bolalar uyi va maktab internatdagи tarbiyalanuvchilarda shaxs xislatlarining shakllanishi va bir qancha ruhiy holatlariga taaluqli muammolarni o‘rganish bilan ham olimlar keng shug‘ullanishgan, xususan Avstriyalik olim A.Adlerkarov bolalar orasidagi jinoyatchilik, qonunbuzarlikni o‘rganib chiqib, ba’zi bir olimlar fikrini inkor kiladi. Tarbiya jarayonida yosh xususiyatlari, shaxs xislatlari yo‘nalishi to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilsa, qayta tarbiyalashga erishish mumkinligini aytib o‘tadi.

Amerikalik psixolog R.A.Ships bolalar uyidagi intizomni saqlash uchun qo‘llaniladigan jazolashni qat’iyan qoralaydi. Bolalarni guruh oldida jazolash yaxshi oqibatlarga olib kelmaydi. Aybdorlar jazoni unutmaydilar, tarbiyachiga nisbatan hurmatsizlik hissi paydo bo‘ladi. Izquvarlik qilish xam yaramaydi. Buning o‘rniga sodir etilgan jinoyatni guruh oldida muhokama etish yaxshi natija beradi. Birinchi navbatda intizom buzilishining sababini o‘rganish kerakligini ko‘rsatadi. Ikkinchidan, ishonch va aralashish intizom buzilishi bilan bog‘liq bo‘lsa, jazolash voqeа sodir etilgandan so‘ng qo‘llaniladi. Jazolash vaqtida bolalar, shu tarbiyachi intizom tiklashini va shu yerda tartib o‘rnata olishini bilishi kerak.

Jon Boulbi fikricha, o‘smirlilik va ilk o‘spirinlik yosh davrlarida mehribonlik uylari sharoitida sevgi-muxabbat to‘g‘risidagi tasavvurlarning o‘ta torligi, buzib idrok qilinishi qaltis jinsiy munosabatlarni keltirib chiqaradi. Ota-onaning mehr-muhabbatidan, maslahatidan maxrum bo‘lishlik nazokatli harakatlarni qo‘llashga imkon bermaydi. Bu ruhiy xolat o‘z-o‘zidan bolada jismoniy, aqliy hamda emotsional beqarorlikni keltirib chiqaradi. Deprivatsiya ushbu holatning asosiy sababchisi sifatida namoyon bo‘ladi.

Chexiyalik tadqiqotchilar I.Langieer va Z.Mateychev fikricha, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida psixik taraqqiyotning quyidagi sohalari bilan bog'lik muammolar ko'zga tashlanadi:

1. Intellektual rivojlanishidagi muammolar.

- ko'p hollarda aqliy tarqqiyotning susayishi kuzatiladi. Bundan tashqari, ular xatto oldilarida turgan muammoga doir mustaqil qaror qabul qila olmaydilar. Ularga namuna asosida ish olib borish qulayroq;

- yangilikka bo'lgan qiziqish, yorqin hayotiy misollar va xatto g'ayritabiyy holatlar kabi primitiv shakllarda ham extiyojlarning anglanishi xaddan tashqari kuchsiz aks etadi. Bu yerda voyaga yetmaganlarning axlok tuzatish koloniyalari tarbiyalanuvchilarini xam misol keltirish mumkin. Lekin, ularda motivatsiya sust aks etishiga qaramay, hayotga bo'lgan bevosita qiziqish juda yorkin namoyon bo'ladi;

- tarbiyalanuvchilar normal darajadagi intellekt imkoniyatlaridan na o'qishda va na hayotiy faoliyatlarida to'liq foydalanadilar. Bu bolalarining ma'lum darajada motivatsiya hamda to'laqonli jamiyatdan uzilib qolganligi bilan izohlanadi. Buni "intellektual sustlik" deb atash mumkin.

2. Ehtiyoj - motivatsiya jabhasining rivojlanishi bilan bog'lik muammolar:

- mehribonlik uylari va internat bolalariga qaraganda "uy" bolalarining bugungi kun yoki yaqin kelajak bilan bog'liq bo'lgan motivlari ustunlik qiladi. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari ertangi kun yoki vaqt o'tishini deyarli idrok qilmaydilar va bugungi kun bilan yashashni ma'qul ko'radilar.

## NATIJALAR

Dunyoning turli mamlakatlarida o'tkazilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, oila muhitida o'smagan bola alohida yo'ldan yuradi va unda yaxshi yoki yomon deb baholab bo'lmaydigan xarakter, xulq-atvor va shaxslilikning shunchaki boshqacha, o'ziga xos xususiyatlari shakllanadi.

Bunday sharoitda yetim va ota-onasiz qolgan bolalarga psixologik yordam ko'rsatish muammozi sotsiolog, psixolog va pedagoglar oldidagi har bir bola uchun individual metodik ish olib borish talabini kuchaytiradi. Xususan, yurtimizda

Mehribonlik uylari, maxsus maktablar, maktab-internatlarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, bolalar uchun barcha sharoit va imkoniyatlarni yaratish, tarbiyachi-pedagoglarning mehnatini qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ehtiyojli bolalarga ko'rsatiladigan pedagogik-psixologik xizmatlarni yanada takomillashtirish, ularning jamiyatga integratsiyalashuviga ko'maklashish yuzasidan keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

### **MUHOKAMA**

Emotsional jihatdan bola o'zini qulay xis etishi uchun jismoniy salomatligi, atrofdagi odamlar bilan muloqoti xususiyati, shaxsiy muvaffaqiyatlarini belgilab beruvchi ijtimoiy shart-sharoit muhim hisoblanadi. Albatta, yaxshi go'daklar uyi va mehribonlik uylarining tajribasidan ma'lumki, imkon qadar oilaviy muhitga yakinlashtirilgan shart-sharoitlarda unib-o'sishlari katta hayotga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlovchi muhim omildir.

### **XULOSA**

Shunday qilib, yuqorida o'rganib chiqilgan ilmiy adabiyotlar sharhi davomida shu narsaga iqror bo'ldikki, Mehribonlik uyida tarbiyalanuvchilarining shaxs xususiyatlari, xarakter hislatlari, ahloqiy bilimlari, aggressivlik motivlari, aqliy imkoniyatlari, o'z-o'zini anglash va bir qancha ijtimoiy-psixologik muammolarni ochib beradigan, aniq manbalar hozircha yetarli emas. Mavjud ba'zi bir ilmiy ishlar esa, bir tomonlama tadqiq etilganligi, hududiy va mintaqaviy jihatdan axloqiy-ijtimoiy munosabatlari bizning sharoitimiz, milliy qadriyatlarimizga ma'lum bir darajada mos kelmasligi bilan xarakterlanadi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni. 23-noyabr 2007-yil (o‘zgartirish va qo‘sishimchalar bilan)
2. O‘zbekiston Respublikasi “Vasiylik va homiylik” to‘g‘risidagi qonuni 02.01.2014 yil
3. O‘zbekiston Respublikasi “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi” to‘g‘risidagi qonuni 29.09.2010 yil
4. O‘zbekiston Respublikasi “Bola huquqlarining kafolatlari” to‘g‘risidagi qonuni 07.01.2008 yil
5. “Bola huquqlarining kafolatlarini ta’minalash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari” to‘g‘risida 09.08.2021 yildagi PQ-5216-son
6. “Yetim bolalar va ota-onalarning qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari” to‘g‘risida 09.08.2021 yildagi PQ -5215-son

## ONA TILIDAN MILLIY TIL VA ADABIY TILLARNING FARQLI JIHATLARI

**Oramova Nafosat Jo‘rayevna**  
Iqtisodiyot va Pedagogika Universiteti

### ANNOTATSIYA:

*Bu maqola ona tilidan milliy til va adabiy tillarning farqli jihatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqolada milliy va ona tillari, shuningdek, adabiy va ona tillari o‘rtasidagi farqlar ko‘rib chiqiladi. Xulosa qilib aytganda, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish har bir inson va umuman milliy madaniyat uchun muhimligi ta’kidlanadi.*

**Kalit so‘zlar:** milliy til, adabiy til, ona tili, sheva, standartlashtirish, rasmiyatchilik, lug‘at, madaniyat.

### **Kirish:**

Til va adabiyot tushunchasi turli jihatlar va omillarni qamrab olishi mumkin bo‘lgan boy tadqiqot sohasidir. Dunyoda turli xalqlar foydalanadigan ko‘plab tillar va shevalar mavjud. Har bir tilning o‘ziga xos xususiyatlari bor, bu u foydalanadigan mamlakatning madaniyati, tarixi va geografiyasiga bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Ushbu tadqiqotda milliy til va adabiy tillarning ona tili bilan bog‘liq holda turli jihatlari ko‘rib chiqiladi. "Ona tili" deganda insonning bolalikdanoq o‘rganadigan va muloqot qilishning eng tabiiy usuli bo‘lgan til tushuniladi. "Milliy til" va "adabiy til" ma’lum bir mamlakatda rasmiy muloqot, yozuv va adabiy asarlar uchun ishlataladigan tillardir.

Ushbu turdagи tillar o‘rtasidagi farqlarni o‘rganish tillar qanday rivojlanishi va ular har bir xalqning madaniy va tarixiy xususiyatlarini qanday aks ettirishini tushunish va tahlil qilishga yordam beradi. O‘z navbatida, bu o‘qitish usullarini rivojlantirish va til ko‘nikmalarini va madaniy tushunishni rivojlantirishga yordam beradi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi - ona tillari, milliy va adabiy tillarning o‘zaro ta’siri va ijtimoiy-madaniy muhit uchun ahamiyatini tushunish uchun ularning farqlarini tahlil qilishdir.

### **Asosiy qism:**

Ona tili - inson bolaligidanoq o‘rganadigan, odatda oila va ijtimoiy guruh ichidagi kundalik muloqotda qo‘llaniladigan til. Ona tilidan farqli o‘larоq, milliy til ma’lum bir mamlakatda rasmiy muloqot tili bo‘lib, davlat tuzilmalarida, biznesda, ta’limda va hayotning boshqa sohalarida qo‘llaniladi.

Ona tili va milliy til o‘rtasidagi asosiy farqlardan biri shundaki, ona tili milliy tildan ko‘ra torroq doiraga ega bo‘lishi mumkin. Misol uchun, ma’lum bir guruh odamlarining ona tili bo‘lgan dialekt ushbu guruhga kirmaydiganlarga tushunarli bo‘lmasligi mumkin. Shu bilan birga, milliy til, qoida tariqasida, hayotning barcha jabhalarida qo‘llaniladi va kengroq tarqalishi mumkin.

Bundan tashqari, milliy til ona tilidan ko‘ra ko‘proq rasmiylashtirilgan va standartlashtirilgan bo‘lishi mumkin. Bu milliy tilda yanada qat’iy grammatika va imlo qoidalari, shuningdek, talaffuz me’yorlari qat’iyroq ekanligida namoyon bo‘ladi. Ona tili ma’lum bir mintaqa yoki ijtimoiy guruhga qarab ko‘proq sheva va talaffuzlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Bunday farqlarga qaramay, ona tili va milliy til bir-biri bilan o‘zaro o‘xhash bo‘lishi va bir-biriga ta’sir qilishi mumkin. Ona tili, masalan, ona tilida qo‘llaniladigan lug‘at va grammatik tuzilmalarni o‘z ichiga olish orqali milliy tilning rivojlanishiga hissa qo‘shishi mumkin. O‘z navbatida, milliy til ona tiliga grammatika va talaffuzning standart shakllarini yoyish, shuningdek, adabiyotda va hayotning boshqa sohalarida qo‘llash orqali ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Adabiy til - adabiyotda, ilmiy ishlarda, rasmiy hujjatlarda va boshqa aloqa sohalarida qo‘llaniladigan standartlashtirilgan til shakli bo‘lib, unda ifodaning aniqligi va ravshanligi talab qilinadi. Ona tilidan farqli o‘larоq, adabiy til odatda milliy til institutlari tomonidan ishlab chiqiladi va qattiqroq grammatika va imlo qoidalariga ega bo‘lishi mumkin.

Ona tili va adabiy tillar o‘rtasidagi asosiy farqlardan biri ularning rasmiyatchilik darajasidadir. Ona tili odatda kundalik muloqotda qo‘llaniladi va boshqa tillarda so‘zlashuvchilar tushunmaydigan og‘zaki til, dialekt va idiomalarni o‘z ichiga olishi mumkin. Adabiy til, aksincha, keng auditoriya bilan muloqot qilish uchun ishlatiladi va hamma uchun tushunarli va mazmunli bo‘lishi kerak.

Qolaversa, adabiy tilda ona tilidagi kundalik nutqda qo‘llanilmaydigan boyroq so‘z boyligi ham bo‘lishi mumkin. Masalan, adabiy tilda oddiy ona tilida so‘zlashuvchilar uchun notanish bo‘lishi mumkin bo‘lgan ilmiy-texnik sohalarga oid atama va so‘zlar bo‘ladi.

Adabiy til, ona tiliga qarshi kelgan xilma-xilliklarga qarab emas, o‘zining o‘ziga xos yo‘nalishlari va qoidalari bilan ham ko‘zga tashlanishi mumkin. Masalan, adabiy til uchun qo‘llaniladigan lug‘atlar va grammatik tuzilmalar mavjud, lekin ular katta o‘zgarishlardan o‘tgan va rasmiy usullarga muvofiq shakllgan. Adabiy til o‘zining o‘ziga shakliga ega, masalan, grammatika va talaffuzning standart shakllarini o‘rganib, keyinchalik ularni kundalik nutqning bir qismida qo‘llash mumkin.

### **Xulosa:**

Bundan xulosa qilish mumkinki, milliy til va adabiy tilni ona tilidan ajratib turuvchi turli jihatlari bor. Milliy til boshqa tillarda so‘zlashuvchilar uchun tushunarsiz bo‘lishi mumkin bo‘lgan ko‘plab dialekt va variantlarga ega bo‘lishi bilan ajralib turadi, adabiy til esa rasmiy hujatlarda, akademik yozuvlarda va muloqotning boshqa sohalarida qo‘llaniladigan tilning ancha standartlashtirilgan shaklidir.

Ona tili va adabiy til ham rasmiyatchilik darajasi va qo‘llanilgan so‘z boyligi bilan farqlanadi. Ona tili og‘zaki til va dialektlardan foydalanishi mumkin, adabiy til esa keng auditoriya bilan muloqot qilish uchun ishlatiladi va hamma uchun tushunarli va mazmunli bo‘lishi kerak.

Bu xilma-xilliklarga qaramay, adabiy til ham ona tilidan ildiz otishi va unga ta’sir qilishi mumkin. Ona tili milliy va adabiy tillar uchun asos ekanligini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish har bir insonning, qolaversa, butun milliy madaniyatning muhim vazifasi ekanligini hisobga olish zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Bernd Xayntsning “Til universallari va lingvistik tipologiya”.
2. Zdenek Salivaning "Til, madaniyat va jamiyat: lingvistik antropologiyaga kirish".
3. Jon Makvortning "Bobil kuchi: Tilning tabiiy tarixi".
4. "Tilshunoslik bo‘yicha Kembrij qo‘llanmasi" muharrirlari Kate Anderson va Kate Haspelmut.
5. Stiven Pinkerning "Til instinkti: aql qanday qilib til yaratadi".

## ЁГОЧ КОНСТРУКЦИЯЛАРИНИ ҲИСОБЛАШ БҮЙИЧА УМУМИЙ ТУШУНЧАЛАР

**А.М.Абдурахманов**

Андижон иқтисодиёт ва қурилиш институти, Ўзбекистон

Электрон почта: [akhmadjon00@mail.ru](mailto:akhmadjon00@mail.ru)

**Аннотация:** Ушбу мақолада ёғоч конструкцияларини хисоблаш бўйича умумий тушунчаларни кўрсатиб берилади. Бунда Ўзбекистон Республикастда амал қилинадиган меъёрий хужожатлар кўрсатиб берилган.

**Калим сўзлар:** ёғоч, конструкция, хисоблаш, лойихалаш, тушунча.

**Аннотация:** В данной статье будут показаны общие понятия расчета деревянных конструкций. При этом показаны нормативные документы, реализуемые в Республике Узбекистан.

**Ключевые слова:** дерево, конструкция, проектирование, расчет, понятие.

**Annotation:** This article will show the general concepts of the calculation of wooden structures. At the same time, the regulatory documents implemented in the Republic of Uzbekistan are shown.

**Кириш:** Замонавий бино ва иншоотларни барпо этишда ёғоч конструкцияларидан ха фойдаланилади. Ёғоч конструкцияларининг ўрнини тўғри аниқлаш, ҳисоблаш ва лойиҳалаш усусларини билиш, амалдаги меъёрий хужжатлардан унумли фойдалана олиш, оптимал ечимларни ишлаб чиқиш, лойиҳачидан юқори малака ва амалий билимга эга бўлишни талаб этади.

## Ёғоч конструкцияларини ҳисоблашнинг умумий тушунчалари.

Конструкцияларни ҳисоблаш ва лойиҳалашда уларнинг ишлаш, тайёрланиш, ташиш ва монтаж қилиш шароитлари эътиборга олиниши керак. Шунингдек, уларнинг узоққа чидамлилиги, пишиқлиги ва мукаммаллигини таъминлаш чоралари кўрилиши лозим.

Бевосита қурилиш майдонларида фақат чорқирра (брус)лар ва ходалардан конструкциялар тайёрланиши мақсадга мувофиқдир.

Тахталардан михлаб тайёрланувчи кўп қатламли конструкциялар ва пластинасимон (яssi) нагеллар билан биректирилувчи чорқиррали (брассимон) конструкциялар фақат вақтинчалик бино – иншоотларни тиклашда қўлланилиши мумкин.

Замонавий индустрималь тўсиқ конструкциялар – плита ва панелларни тайёрлашда ёғоч ва пластмассалар билан бир қаторда юпқа пўлат листлар, алюминий қотишмаларидан тайёрланган материаллар, асбестцемент ва рақлар кабиларнинг қўлланилиши яхши самара беради. Иситгич қатлами сифатида енгил иссиқлик сақлагич материаллар ишлатилади.

Ёғоч конструкцияларни лойиҳалашда уларни биологик емирилишдан, ёнишдан ва химиявий агрессив муҳит таъсиридан ҳимоялашнинг конструктив тадбирлари кўзда тутилиши керак.

Ёғоч конструкцияларни ҳисоблашда юкларнинг турлари ва уларнинг қийматлари, таъсир этиш муддатлари ва йифиндиси бўйича бўлиниши ҚМҚ 2.01.07-96 талаблари асосида қабул қилинади.

## Замонавий ёғоч конструкцияларини ҳисобини бажариш учун меъёрий хужжатларни ўрганиш.

**Лойиҳалаш** - бу техник хужжатларни ишлаб чиқиш жараёни бўлиб, у қурилишни олиб бориш учун лозим бўлган техник-иктисодий асослар, ҳисоб, чизма, смета ва бошқа хужжатлардан ташкил топади. Лойиҳалашни лойиҳалаш институтлари Қурилиш учун қўлланилаётган меъёрий хужжатлар асосида

бажаради. ҚМК (СНиП) қурилиш меъёрлари ва қоидалари ҳамда Давлат стандартлари (ДАСТ) лойиҳалаш учун асосий ҳужжат ҳисобланади.

ҚМК да шаҳар ва аҳоли пунктлари, барча турдаги бино ва иншоотларни лойиҳалаш ва қуриш, муҳандислик ускуналар ва конструкцияларни танлаш ва лойиҳалаш, қурилишни нархини белгилашни асослари белгиланади. ҚМК 5 та қисмдан иборат: 1-ташкел қилиш, бошқариш ва иқтисод; 2-loyiҳalash меъёрлари; 3-iшлаб чиқаришни ташкел қилиш ва ишни қабул қилиш; 4-смета меъёрлари; 5-материаллар ва меҳнат ресурслари сарфи меъёрлари. ҚМК лар ўзига хос тўртта рақамдан иборат шифр билан нашр қилинади. Улар қисм рақами, гуруҳ рақами, ҳужжат рақами ва тасдиқланган йили.

*ҚМК 2.03.08-98 Ёғоч конструкциялар. ҚМК 1.02.07-97 Қурилишида муҳандислик изланишилар. ҚМК 1.01.04-98 Архитектура-қурилиши атамалари. ШНҚ 1.03.01-03 Корхона бино ва иншоотлар қурилиши учу лойиҳа. ҳужжатларининг таркиби, ишлаб чиқшининг маъқулланиши ва тасдиқланиши. ҚМК 2.08.01-94*

*Турар-жой бинолари. ШНҚ 2.07.01-03 Шаҳар ва қишлоқ аҳоли пунктлари ҳудудларини ривожлантириши ва қурилишини режалаштириши. ҚМК 2.04.08-96 Газ таъминоти. Лойиҳалаш меъёрлари. ҚМК 3.07.03-97 Сугории системалари. Ишлаб чиқаришни ташкел қилиш ва ишни қабул қилиши. ҚМК 3.03.04-Йиёма темирбетон конструкциялар ва маҳсулотларни ишлаб чиқариш. ШНҚ 4.02.00-04 Қурилиши ишларига елементли ресурс смета нормаларини ишлаб чиқариши ва тадбиқ этиши бўйича умумий Низом*

### **Ёғоч конструкцияларга таъсир этадиган юклар.**



**Конструкцияга таъсир қиласидиган юклар қуйидагилардир:**

**Доимий юклар** - конструкция барча элементларининг хусусий оғирликларидан ҳосил бўладиган юклар.


**Вактинчалик юклар** - қор ва шамол таъсирларидан ҳосил бўладиган юклар.

**Махсус юклар** - зилзила, портлаш, инерция кучи ва турли динамик таъсирлар натижасида ҳосил бўладиган юклардир.

Вақтингалик меъёрий қор ва шамол юклари қурилиш жойи иқлимий муҳити ҳолатига қараб қурилиш меъёрлари ва қоидалари(ҚМК) хариталари ёрдамида аниқланади.



Бино ва иншоотларга таъсир (қор) этувчи юклар



Бино ва иншоотга таъсир этувчи юклар (шамол) схемаси

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Djalolova D. N. Yog‘och va plastmassa konstruksiyalari Toshkent, TAQI, 2016.
2. Donald E Breyer, P.E., Kelly E Cobeen, Kenneth J Fridley, PH.D. Design of Wood Structures-ASD/LRFD 7th Edition. USA 2014.
3. Турсунов С., Маҳкамов Й.М., Матгазиев Х.М., Ёғоч конструкцияларни ҳисоблаш ва лойиҳалаш. ФарПи, 2010, - 160 б.

## TIKUV MASHINASI UCHUN TAXLANMA TISHLI G‘ILDIRAKLI MOSLAMASI

Ubaydov Q.Z. – t.f.n. dotsent.

Shokirov L.B. – (PhD) doktorant

Saidova G.Sh. – (PhD) doktorant

Sayfullayev S.S. - assistent

Buxoro muhandislik texnologiya instituti

### ANNOTATSIYA

*Biz taklif qilayotgan ushbu moslama o‘z ichiga rom, tikuv mashinasining qisish novdasiga biriktiruvchi element, pastki uchi bilan kultivator biriktirilgan ushlagich bilan bog‘langan mayatnik dastagidan iborat.*

**Kalit so‘zlar:** tikuv, tishli g‘ildirak, buram, material, qadam, dizayn.

### АННОТАЦИЯ

*Данное устройство, которое мы предлагаем, состоит из рамы, элемента, который крепится к прижимной штанге швейной машины, и маятникового рычага, соединенного с держателем, к нижнему концу которого прикреплен культиватор.*

**Ключевые слова:** шов, зубчатое колесо, крутка, материал, шаг, конструкция.

Yengil sanoat korxonalariga, shu jumladan paxtani dastlabli ishslash, tikuvchilik, tikuv-trikotaj, to‘qimachilik korxonalari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga marketing, axborot va konsalting xizmatlari ko‘rsatish, ko‘rgazmalarda va matbuot nashrlarida reklama tadbirlarini amalga oshirish, eksport salohiyatini keng yoritish hisobiga yengil sanoat mahsulotlarini eksportga yo‘naltirish va bozor

iqtisodiyoti uchun raqobatbardosh eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarish davlatimiz oldida turgan dolzarb vazifalardandir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 – 2019 yillarda respublikaning to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risidagi qarori bunga misol bo‘la oladi[1,2,3,4,5,].

Biz taklif qilayotgan ushbu moslama o‘z ichiga rom, tikuv mashinasining qisish novdasiga biriktiruvchi element, pastki uchi bilan kultivator biriktirilgan ushlagich bilan bog‘langan mayatnik dastagidan iborat. Mayatnik qo‘li vilkalar qo‘lining tebranishi bilan tebranadi, vilkalar qo‘l qo‘shimchasi biriktirilgan tikuv mashinasining igna vintini o‘rab olish uchun oldingi uchida ikkiga bo‘linadi. Vilkalar dastagida tish bilan ta’minlangan panja elementi o‘rnataladi. Aylanish imkoniyati bo‘lgan ramkada vilkalar korpusidagi panja bilan bog‘langan tishli g‘ildirak o‘rnatalgan. Tishli qadam g‘ildiragi chuqur va sayoz chuqurchalar bilan ta’minlangan va panja elementi g‘ildiragining sayoz chuqurchalari bilan aloqa qilganda, mayatnik dastagida elkali biriktirma mavjud emas va shuning uchun u ikkinchisini boshqarmaydi. Panjali g‘ildirakning tishlari orasining biriga kirganda, u mayatnik dastagining yelkasiga kiradi, freza pichog‘ini harakatga keltiradi, ya’ni material buklanadi. Moddiy burmalar soni tishli g‘ildiragidagi chuqurliklar soniga teng. Tishlar chuqurchalari orasidagi masofalar teng tanlangan. Materiallarning burmalari sonini ko‘paytirish uchun g‘ildiraklar almashtiriladigan qilib qo‘yiladi.

Bu qurilmaning tishli g‘ildiragi dizaynining kamchiliklari tikuv mashinasida materialning burmalarini olishning imkoniyati cheklanganlididadir. Ushbu dizayn, qurilmanin tishli g‘ildiragining chuqurliklari orasidagi doimiy qadam tufayli materiallarni silliqlash jarayonida burmalarning qadamini o‘zgartirishga imkon bermaydi.


Tikuv mashinasida materiallarni yig‘ish uchun qurilmaning boshqa taniqli dizaynida tishli g‘ildiragi ham turli xil sonlar bilan qilingan. Ushbu dizaynning kamchiligi, shuningdek, g‘ildiraklarini almashtirmasdan turli xil qadamlar bilan moddiy burmalarni olishning iloji yo‘qligida.

Ma'lum dizaynning kamchiliklari uning murakkabligi va materiallarni tikish jarayonida turli xil bosqichlarga ega bo'lgan materialning burmalarini olishning mumkin emaslidigidir[6,7,8,9].


Dizaynning mohiyati shundan iboratki, tishli qadamlari g'ildiragi sayoz chuqurchalar (tirqishlar) bo'lgan pastki g'ildirak va chuqur bo'lgan qattiq g'ildirakdan iborat.

Taklif etilayotgan qurilmaning maqsadi materiallarni tikish jarayonida g'ildiraklarini almashtirmasdan, ular orasidagi turli qadamlarga ega bo'lgan burmalarni ta'minlashdir.

Yuqori g'ildirakning chuqurliklari orasidagi qadamning kombinatsiyasi boshqacha bo'lishi mumkin. Tishli qadam g'ildiragi plastikdan tayyorlanishi mumkin. Tishli g'ildiragining yuqori g'ildiragining chuqurliklari orasidagi o'zgaruvchan qadam turli shakldagi qadamlar bilan burmalarni ishlab chiqarish imkonini beradi.



**1 – rasm.**



**2 - rasm.**

Dizayn chizma bilan tasvirlangan, bu yerda 1-rasm tishli qadam g'ildiragining yuqori ko'rinishi; 2-rasm - 1-rasmdagi A-A bo'limi; 3-rasm – tishli qadam g'ildiragi versiyasining yuqori ko'rinishi.

Tikuv mashinasida burmalar hosil qilish uchun moslamaning g‘ildiragi kompozit g‘ildirak (1 rasmda), shu jumladan chuqurcha 5 ga yuqori g‘ildirak 2, balandligi h, pastki g‘ildirak 3, sayoz tirkish 4 shaklida qilingan. 2 va 3 g‘ildiraklar bir-biriga qattiq bog‘langan va ular plastmassadan tayyorlanishi mumkin, ular qurilma yuritmasiga birikuvchi o‘qini o‘tkazish uchun umumiyl teshik 6 ega.


Dizayn quyidagicha ishlaydi. Jihozning ishlashi paytida panja tishi pastki g‘ildirakning 3 sayoz tirkishlari 4 bilan ulanadi, mayatnik dastagida yelkaning mahkamlanmaydi va shuning uchun u ikkinchisini boshqarmaydi. Uskuna ustki g‘ildiragi 2 ning chuqurliklaridan biri 5 ga kirganda, mayatnik dastagi yelkasining bog‘lanishiga olib keladi va frezalash pichog‘ining harakatini ta’minlaydi va material buklanadi. Bunday holda materialning burmalari orasidagi qadam ustki g‘ildirak 2 ning chuqurliklari 5 orasidagi qadamga bog‘liq. Tishli g‘ildiragi 1 chuqurliklar 5 orasidagi boshqa qadam bilan amalga oshiriladi va nisbatga ega:

$$t_{\varphi_3} > t_{\varphi_2} > t_{\varphi_1}$$

bu yerda,  $t_{\varphi_1}, t_{\varphi_2}, t_{\varphi_3}$  yuqori g‘ildirakdagi 2 uning aylanasi bo‘ylab burchak pog‘onasining qiymatlari.

Bunday holda chuqur tirkishlar orasi qadami 5 tirkak g‘ildiragi 1 atrofi bo‘ylab ortib boradi[1,,2,7,8,9].

Turli pog‘onalarga ega bo‘lgan moddiy burmalarni olish uchun yuqori g‘ildirak 2 ning chuqur tirkishlari 5 orasidagi burchak qadami mos ravishda boshqacha qilib tanlanadi. Misol uchun 3-rasmda burchakli qadamlarning mos keladigan qiymatlari bilan oltita chuqur tirkish 5 tishli g‘ildirak 1 diagrammasi ko‘rsatilgan



$t_{\varphi_3} > t_{\varphi_2} > t_{\varphi_1}; t_{\varphi_4} > t_{\varphi_5} > t_{\varphi_6}; t_{\varphi_1} = t_{\varphi_6}; t_{\varphi_2} = t_{\varphi_5}; t_{\varphi_3} = t_{\varphi_4}$

bu yerda ,  $t_{\varphi_1}, t_{\varphi_2}, t_{\varphi_3}, t_{\varphi_4}, t_{\varphi_5}, t_{\varphi_6}$  - o‘z navbatida, tishli g‘ildiragi 1 ning yuqori g‘ildiragi 2 dagi chuqur tirqishlar 5 orasidagi burchakli qadamlar.

Tishli g‘ildirakning yuqori g‘ildiragining chuqurliklari orasidagi o‘zgaruvchan qadam turli shakldagi qadamlar bilan burmalarni ishlab chiqarish imkonini beradi[1,2,6,5,3].

### **ADABIYOTLAR.**

1. United States patent office application, April 22, 1952, serial №2,593,519 Ruffler attachment for sewing machines.
2. Патент США , Н.А. MAAShoff №1. 787.692, Filolmarch26, 1928.
3. Патент США №5239937, пл. Д05В35/089, 1923.
4. RUFFLER Attachment №A900 (A900E), ruffler eau 4 stitchand and 8 stitch chancaing CAM.
5. Шокиров Лазиз Бахтиёрович, & Саломов Илҳом Салимович. (2023). Модификацияланган крахмал асосида пахта ва зигир калава ипларни сувда эрувчан охор билан охорлаш технологияси. GOLDEN BRAIN, 1(6), 83–86. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7700066>.
6. Шокиров Лазиз Бахтиёрович, & Ширинов Умиджон Ҳасанович. (2023). Модификацияланган оқшоқ крахмали қовушқоқлигининг ўзгаришини, натрий метасликат миқдорига боғлиқлигини ўрганиш. GOLDEN BRAIN, 1(7), 53–57. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7738669>.
7. Шокиров Лазиз Бахтиёрович, & Хасанов Баходир Кимсанович. (2023). Синтетик полимерлар концентрациясининг калава иплар физик-механик хусусиятларига таъсири. GOLDEN BRAIN, 1(4), 4–9. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7629634>.
8. Шокиров Лазиз Бахтиёрович, & Саломов Илҳом Салимович. (2023). Модификацияланган крахмал асосида пахта ва зигир калава ипларни сувда эрувчан охор билан охорлаш технологияси. GOLDEN BRAIN, 1(6), 83–86. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7700066>.
9. Shokirov Laziz Bakhtiyorovich, Ubaydov Qodir Zokirovich, Kazakov Farkhod Farmonovich. To study the effect of filling parameters on the efficiency of the cotton yarn spinning process. European Journal of Research Development and Sustainability (EJRDS) Available Online at: Vol. 2 No. 4, April 2021, ISSN: 26605570. 40-43 p.

## ANVAR OBIDJON ASARLARINING NASRIY POETIKASI

**Muydinov Muhammadzoir Zafarjon o‘g‘li**

O‘ZMU O‘zbek filologiyasi fakulteti  
adabiyotshunoslik yo‘nalishi 2-kurs magistranti.

**Annotatsiya:** Poetika so‘zi yunoncha bo‘lib, san’at, badiiyat ma’nosini angalaldi. Badiiy asar poetikasi deganda, biz avvalo, uning san’atga xos xususiyatlari, badiiy olamini tushunamiz. Anvar Obidjon asarlarida poetikani qo‘llanishi.

**Kalit so‘zi:** ohang, tahlil, san’atkor, persanaj, hikoya qilish, sujet.

Badiiy asarning tuzilishi, sujet va kompozitsiyasi, til xususiyatlari, hikoya qilish yo‘sini, ifoda tarzi, tasvir usullari va vositalari, ohangi bularning barchasi asar poetikasini tashkil etadi. Ijodkorning san’atkorligi, o‘ziga xosligi birinchi galda uning poetik ixtirosi, mahorati bilan belgilanadi. Qolaversa, har bir chinakam san’at asari badiiy jilolari bilan ajralib turadi, biri ikkinchisini aslo takrorlamaydi. Bu jihatdan Anvar Obidjon ijodi, asarlari g‘oyat ibratlidir.

Salkam o‘ttiz yildirki, u gazeta, jurnal, televideenie tahririyatida faoliyat ko‘rsatdi. Anvar Obidjon hozirgacha o‘ttizga yaqin kitob nashr ettirdi. “Bahromning hikoyalari” (1980), “Ey, Yorug“ dunyo” (1983), “Masxaraboz bola” (1986), “Meshpolvonning janglari” (1994), “Oltiariq hangomalari” (1999), “Alisher ila Husayn yoki uch dono va o‘g‘ri” (1996), “Bezgakshamol” (1985), “Ketmagil” (1985), “Juda qiziq voqeа” (1987), “Bezgakshamol – 2” (2003), “Tanlangan she’rlar” (2006) kabi asarlari kitobxonlarga ma’lum. Shunday ijodkorlar bo‘ladiki, yozgan, nashr etilgan asarlarini qayta-qayta ishlayveradi. Natijada, bir asar, to‘plam turli nomlarda nashr ettiriladi. Anvar Obidjon ham yozganlarini hamisha mukammallashtirib, yangiliklar bilan

boyitib borishga o‘ch san’atkorlardan. Uning “Akang qarag‘ay Gulmat”i “Kambag‘albop Gulmat”ga aylanib qolsa, ajablanmaslik kerak.

Asar yaxshidir, yomondir yozuvchi ijodining samarasi, farzandi, misoli. Anvar Obidjonning “Yaltiroq tugma”, “Alamazon va uning piyodalari” haqida ko‘p yaxshi gaplarni aytish, ulardagi biografik, sarguzasht voqealarni ta’riflash mumkin. Qolaversa, bir tanqidchiga ma’qul bo‘lgan asar ikkinchisiga yoqmas. Bu asarlar to‘g‘risida har biriga alohida-alohida tadqiqot ishi qilsa bo‘ladi. Chunki bu asalarida boshqa asarlarda uchramaydigan hayoliy va fantastic ruh ajralib turadi. Bolalalrning ong-tafakkurini yuksaltiradigan ichki olamini boyitadigan sarguzashtlar bilan jonlantirgan.

Adibning "Dahshatli Meshpolvon", "Oltin yurakli avtobola" asarlari yoki "Alamazon va uning piyodalari", "Yaltirok tugma" dilogik kissalari shu jixatdan uzbek bolalar adabiyotida yangi vokelik hisoblanadi. Bu asarlardagi obrazlar xam shu kunning kaxramonlari. Va ular oddiy bola emas: dahshatli Meshpolvon, g‘aroyib, olovkalb Alamazon yoki temirtan avtoboladir. Ular tinib-tinchimasgina emas, ozodlik va haqiqat uchun, o‘z erki va xak-xukuki uchun kurashchuvchan, jasur hamda erkparvar bolalar. Adib shu sababli "Alamazon" turkumidagi qissalarini yosh avlodga, aniqrog‘i "ona yurtning jasur farzand"lariga bag‘ishlagan.

Asar qahramonlari qo‘sishq aytadilar, hasbi hol so‘zlaydilar, maktub bitadilar, tavsifu ta’rif beradilar. “Juda qiziq voqeа”da go‘zal ohang, g‘aroyib mutanosiblik, turfa ranglar jilosi, ziddiyatlar kurashi, hayot-mamot jangi tasvirlangan. Bolalar yozuvchilari hamisha, hamma erda bitta muhim qonuniyatga amal qilganlar: yashamoq – ulug‘ ne’mat. Yashash baxti hammaga ham nasib etavermaydi. Yashayotgan har bir jonzot Yaratganning ro‘yxatidan o‘tgan. Odamlar jonzotni oyoq osti qilishga, qirishga haqsizdirlar. Anvar Obidjon atayin ko‘kshira, chivin, burga, pashsha, kapalak, shilliqqurt, suvarak, chumoli singari hasharotlarni tasvirlaydi. Ko‘kshira, masalan, nihoyatda uvoq, sustharakat, yuztasi, mingtasi bittagina bargga jo bo‘ladigan hasharot. U – kushanda. Ammo shoir bu mayda maxluqni ochiq haqorat qilmaydi. maqtamaydi ham.

*Yopishqoqman,  
O‘z nomim –  
O‘zim bilan shiraman.  
Ekinlarga g‘animman,  
O‘taketgan xiraman...*

.....  
*Tuproq kuylar hayotni,  
Men kuylayman  
O‘limni!*

Anvar Obidjon o‘z qahramonlarini ko‘rsatadi, tasvirlaydi, zinhor ularga baho bermaydi. Yosh kitobxонни о‘yлашга, baholashga о‘ргатиш bolalar adabiyotining vazifasi.

Anvar Obidjon bolalar uchun nimaiki yozmasin, go‘zallikni, kuyni, shakl va mundarija mutanosibligini nazarda tutadi. “Bulbulning cho‘pchaklari” turkumida hamma narsa go‘zal, mukammal. Ohangga mos so‘zlarni tanlaydi, qahramonlar fazilatini topib-topib, o‘rniga qo‘yib-qo‘yib tasvirlaydi:

*Musichalar yuvvoshu Chumolilar tirishqoq,  
Suvaraklar beboshu Kuchukchalar urishqoq.  
Xo ‘tiklar zo ‘r yallachi, Qo ‘y, Sigirlar dalachi,  
Sho ‘x Qo ‘chqorlar kallachi, Takalar ham suzishqoq.*

Tahlil va talqin tushunchalari, ularning tushunish jarayonidagi nisbati haqida. Badiiy asami tushunish jarayonidagi obyektiv va subyektiv jihatlar haqida. Kontekstual va immanent tahlil. Tahlil metodlari..

Adabiyotshunoslikda tahlil va talqin tushunchalari juda keng qo‘llanilib, ular badiiy asarni tushunish jarayonining bir-biriga bog‘liq jihatlaridir. Badiiy asarni tushunish, uning mazmun mohiyatini anglash jarayonida tahlil va talqin amallari har

vaqt hozirdir. Tahlil atamasi odatda ilmda "analiz" deb yuritiladigan istilohning sinonimi sifatida tushuniladi. Analiz esa, ma'lumki, butunni anglash uchun uni qismlarga ajratishni, qismning butun tarkibidagi mohiyatini, uning boshqa qismlar bilan aloqasi va butunlikning yuzaga chiqishidagi ornini o'rganishni ko'zda tutadi. Ayrimlar badiiy asami tirik organizmga qiyos etishadi-da, "uni qismlarga ajratish jonsiz tanaga aylantirishdan boshqa narsa emas" degan qarashga tayanib, tahlilga qarshi chiqadilar. Biroq bu xil qarash asossizdir. Zero, adabiyotshunoslikdagi tahlil ham o'qish, faqat bunda badiiy asarni tadqiqotchi sifatida o'qish tushuniladi. Bu xil o'qish jarayonida tadqiqotchi badiiy asarni qismlarga ajratarkan, uning badiiyat hodisasi sifatidagi mavjudligini, undagi o'quvchi ongi va ruhiyatiga ta'sir qilayotgan, uning u yoki bu tarzda tushunilishiga asos bolayotgan omillarni o'rganadi.

Talqin atamasini biz "interpretatsiya" istilohining sinonimi sifatida tushunamiz. Talqin badiiy asarni sharhlash, uning mazmun mohiyatini, undagi badiiy konsepsiyanı idrok etish demakdir. Keng ma'noda "talqin" so'zi o'zga tomonidan aytilgan gap yoxud yozilgan asar (ilmiy, falsafiy, diniy, badiiy va h. ) mazmunini anglash, uni ma'lum yaxlitlikda tushunish va tushuntirish (adabiyotshunosning maqsadi tushunishning o'zagina emas, tushuntirish hamdir) ma'nolarini anglatadi. Shu ma'noda qaralsa, mumtoz adabiyotshunosligimizda, umuman, o'tmish ilmida "talqin" so'zining ma'nosi qisman "sharh", "tafsir" atamalari bilan ham berilgan. Yana ham aniqroq aytsak, talqin badiiy asardagi "obrazlar tili"ni "mantiq tiliga o'girmoq. obrazlar vositasida ifodalangan mazmunni tushunish va tushuntirmaqdır.

Yuqorida aytdikki, badiiy asarni tushunish jarayonida tahlil va talqin amallari har vaqt hozir, ular tushunish jarayonining ikki qirrasidir. Aytaylik, "o'quvchi badiiy asarni tushundi" degani, mohiyatan, "o'quvchi asarni o'zicha talqin qildi" deganidir. Ayni paytda, uning asarni tushunishida tahlil unsurlari ham mavjud, zero, oddiy o'quvchi ham tushunish jarayonida asar qismlarini (mas., alohida epizodlarni, personajlarni, ularning turli holatlardagi xatti-harakati, gap-so'zlarini va h. ), ularning o'zaro mazmuniy aloqalarini tasavvur qiladi. Ilgari ham aytganimizdek, konkret badiiy asar turli o'quvchilar tomonidan turlicha tushunilishi mumkin. Biroq shunisi ham

aniqliki, oquvchilar ongidagi minglab talqinlarni umumlashtiradigan mushtarak nuqtalar ham mavjud. Demak, konkret asar talqinlari nechog‘li turfa bo‘lmashin, ularning chegaralarini belgilab beruvchi muayyan asos, deylik, yadro (javhar) mavjudki, barcha talqinlar shu yadro atrofida hosil bo‘ladi. Bu yadro esa badiiy asarning ozi, badiiyat hodisasini o‘zida moddiylashtirgan badiiy matndir. Ayon bo‘ldiki, badiiy asarni tushunish jarayoni obyektiv va subyektiv ibtidolardan tarkib topar ekan: agar bu o‘rinda talqin qilayotgan shaxsni subyektiv ibtido deb olsak, badiiy matn obyektiv ibtidodir.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, agar talqin qiluvchi shaxs badiiy matnni yetarli darajada bilmasa, asar qismlarini, ularning o‘zaro aloqalarini yetarli tasavvur qilolmasa, uning talqini subyektivlik kasb etadi. Boshqa tomondan, badiiy adabiyotning obrazlar orqali fikrashi, obrazning esa assotsiativ tafakkur mahsuli ekanligini e’tiborga olsak, talqinning subyektsiz mavjud emasligi ayon haqiqatdir. Chunki ijodkorning assotsiativ fikrashi mahsuli o‘laroq yaratilgan va asarda aksini topgan obrazning mazmun qirralari faqat subyekt ongidagina (ya’ni, uning ham assotsiativ fikrashi asosida) qayta tiklanishi mumkin bo‘ladi. Aytilganlar tushunish jarayonida tahlil va talqin har vaqt hozirligining yorqin dalilidir. Oddiy oquvchidan farq qilaroq, adabiyotshunos badiiy asarni talqin qilarkan, tahlilga tayanadi, uning talqini tahlil asosida yuzaga kelgani uchun ham ilmiy sanaladi. Shu ma’noda tahlil badiiy asarni tadqiqotchi sifatida o‘qish va uqish demakdir.

Yuqoridagilardan ma’lum bo‘ladiki, badiiy asar tahlilining maqsadi - asamni tushunish (asarni baholash ikkilamchi maqsad). Xo’sh, “asarni tushunish” deganda nima nazarda tutiladi? Bu masalada ham adabiyotshunoslikda turlichalik mavjud: ayrimlar asarga muallif tomonidan yuklangan mazmunni tushunishni nazarda tutsalar, boshqalari asarda tasvirlangan narsalardan (obyektiv ibtidodan) kelib chiqadigan mazmunni tushunishni nazarda tutadilar. Bu qarashlarning birinchisiga kora tushunish jarayonida tahlil yetakchilik qilsa, ikkinchisida talqinning mavqeい ustunroq ekanligi tayin; birinchisi badiiy asarni uning ichki va tashqi aloqalarini birlikda olib o‘rganishni (kontekstul tahlil) taqozo etsa, ikkinchisi badiiy asarga alohida mavjudlik sifatida

qarab, uning ichki aloqalarini organish (immanent tahlil) bilan cheklanadi. Biroq mazkur qarashlarning ikkisini ham mutlaqlashtirib bo‘lmaydi, bu o‘rinda "oraliq" mavqening egallangani, har ikki yo‘sindagi tahlilning ham mavjudligini, ularning bir-biridan ko‘zlagan maqsadi va ahamiyati jihatidan farqli ekanligini tan olingani tog‘riroq bo‘ladi.

Tushunish jarayonining nazariy muammolarini o‘rganuvchi soha germenevtikaning asosiy qoidasi shuki: qismni butun, butunni qism orqali tushunish darkor. Bu qoida yuqoridagi tahlil yo‘sinlarining ikkisiga ham birdek aloqador. Faqat bu o‘rinda immanent tahlil "kontekst" tushunchasini asar doirasi bilan cheklab olsa, kontekstual tahlilda "kontekst" tushunchasining ko‘lami kengayib boradi (konkret asar "yozuvchi biografiyasi", "muallif yashagan davr shart-sharoitlari", "muallifning ijodiy merosi", "asar yaratilgan davr adabiyoti", "milliy adabiy an'analar" kabi kontekstlar doirasiga kiradi). Kontekstual tahlil asarga muallif tomonidan yuklangan mazmunni tushunishga yo‘l ochsa, immanent tahlil asarda tasvirlangan narsalarga (va, albatta, undagi muallif obraziga) tayangan holda o‘quvchiga o‘z mazmunini shakllantirish imkonini beradi. Mutaxassisdan farqli o‘laroq, oddiy o‘quvchilarining asarni tushunishida immanent tahlil unsurlari yetakchilik qiladi (shu bois ham oquvchilar ongida konkret asarning turfa talqinlari mavjud). Zero, aksariyat o‘quvchilar uchun konkret asarning qay maqsadda, qanday omillar ta’sirida yozilgani ahamiyatsiz ular asarning o‘zinigina taniydlilar, uning o‘zidangina zavq oladilar. Aksincha, adabiyotshunos uchun bularning bari muhim, chunki asarni tarixiylik tamoyiliga tayanib, biografik yoxud sotsiologik metodlar (kontekstual tahlil) asosida tekshirib chiqarilgan xulosalar adabiy-nazariy tafakkur rivojida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ular, tabiiyki, badiiy adabiyot rivoji hamda badiiy did tarbiyasiga ham bilvosita ta’sir qiladilar, bu xil xulosalar bilan badiiy didga bevosita ta’sir qilishga urinishning esa adabiyotga ziyon keltirishi ehtimoli koproq. Buni qanday tushunmoq kerak? Gap shundaki, o‘zining ijtimoiy hayoti davomida badiiy asar turli talqinlarga duch keladi, zero, har bir konkret davr uning mazmun qatlamlaridan birini aktuallashtiradi. Ikkinci tomonidan, kitobxonlardagi ijodiy o‘qish imkoniyatlari turlicha, shunday ekan,

kitobxonlar ichida chinakam badiiy asarning hali hech kim e'tibor qilmagan mazmun qirralarini ochishga, uning hali hech kim ilg'amagan voqelik bilan aloqalarini korishga qobilari har vaqt bo'ladi. Agar biografik yoki boshqa xil metodlarga tayanib amalga oshirilgan talqinni yagona, eng togrisi deb bilib, shu talqinni barcha oquvchilarga singdirmoqchi bo'lsak, bu bilan ijodiy oqish imkoniyatlarini cheklagan, badiiy didga jiddiy zarar yetkazgan bolib chiqamiz. Masalan, aksariyat kishilarda sho'ro davrida yozilgan asarlarning o'sha davrda amalga oshirilgan talqinlari orinlashib qolgan. Bu esa davr adabiyoti haqida muayyan tasavvur, munosabatga asos bo'ladiki, yuqoridağı mulohazalardan kelib chiqilsa, ularni ilmiy jihatdan togri deb bo'lmaydi. Demak, talqinlar yangilanishi zarur. Zero, adabiyotshunosning vazifasi ham mavjud talqinlarni bilish emas, balki ularga tayangan (ularga ba'zan qo'shilib, ba'zan inkor etib) holda asarni bugungi kun nuqtayi nazaridan talqin qilish va baholashdir. Xulosa qilib aytsak, badiiy asarni alohida butunlik sifatida ham, kontekst doirasida ham tushunish (tahlil va talqin qilish) mumkin, faqat har ikkisining ham o'z o'rni, vazifasi va maqsadi tayinli ekanligini unutmaslik darkor.

Badiiy asarni kontekstual tahlil qilishda unga turli jihatlardan yondashish mumkinki, shu asosda bir qator tahlil metodlari haqida gapirish mumkin boladi.

"Alamazon va uning piyodalari" kissasining bosh qahramoni Amazon U toshtakaliklar shevasida gurkirab yonayotgan gulxanni anglatadi. Amazon yoshligidanok kitobga mexr kuyib, jahon bolalar adabiyotidagi tengdoshlari Chippolino, Buratino, Tom Soyer, Gek Finni, o'zbek xalk dostonlaridan Ravshanbek, Alpomish kabi qahramonlarni savodi chikkandan buyon taniydi, shuningdek, o'zbek va jahon mumtoz adabiyot durdonalaridan baxramandligi ayonlashadi. Amazon bu kitoblarni shunchaki o'kish bilan cheklanmay, ulardan ta'sirlanib, do'sti Eshmat bilan xazina kidirib topish, topganda uni nimalarga sarflash xakida reja tuzadi. Eng avvalo, yaylov etagida o'n ming kishilik stadion, ko'p qavatli uylar, marmar devorli kattakon choyxona kurish, kuchalarga asfalt yotkizib, ko'priksi yangilash, umuman, qishloqlarida zamonaviy inshootlar barpo etishni o'laydi, xatto butun umri

boshlangich sinflarga dars berish bilan o‘tgan Axmadali otaga atab terak buyi xaykal o‘rnatmokchi bo‘ladi.

Yozuvchi bu asarni 1976-78 yillarda yozganiga e’tibor berilsa, uning dolzarbligi va keljakni yorqin tasvir eta oydinlashadi Ayniqsa, bolalar olish mahorati yanada kitobxonligida hikmat ko‘pligi Alamazonning uyg‘oq tafakkuri bilan ko‘rsatib berilgan. Rost, qissadagi voqealar ertaklarga xos sayohat, tush ko‘rish, tilsimlanish motivlari yordamida tasvirlanadi. Goh ilmiy-fantastik, goh realistik buyoklarda badiiy talqin etilgan hikoyalar zaminida hayot haqiqati yotadi, albatta. Alamazon tog‘asi professor Og‘abek Turkoniy olib kelgan antiqa dori - uni tatib ko‘rganda kishi xuddi ertaklardagidek murod maqsadga etishiga qiziqib qoladi: buni o‘zi va o‘rtog‘i Eshmatda sinab ko‘radi. U Jek Londonning "Uch qalb" kitobidagi yozganiga qahramonlar, ularning g‘ordan topgan bexisob xazinalari haqida xayol surib yurganidan, o‘zlarining Jandago‘rida ham "Xazinaga ishonganidan, dori tasirida uxlagach, tushida Zimistonsaroy orqali Yulduzistonga kelib qoladi. U erda Humo Kartum, Qo‘tirlar sulolasি, Isqirtlar mamlakati va ular boshqargan tuzum hamda odamlari bilan tanishishga tuyassar bo‘ladi. Tirtiq, Shilpik, Qo‘tir Beshinchi, Malika Maston, Idris Ibrohim, Barri Baraka, Fisqiddin Makru Maraz, Isom Ittu Iskabtopar, Hoshim Heziddin, Xum kabi ismlari yo‘q ularning tashqi ko‘rinishi, kasb-kori va fe’l-atvorini bildirib turuvchi kishilar bilan tanishadi. Bu yurtda Qo‘tirlar sulolasи tugab, Isqirt Birinchining taxtga o‘tirish marosimi jarchi tilidan shunday bayon kilinadi:

- “*Xe-xe, xe-e-e-ey! Eslilaru nodonlar, xafalaru shodonlar, go‘ng Xidlagan cho‘ponlar, gul hidlagan juvonlar, eshitmadim demanglaro-o-ov! Isqirt Birinchi padari oliylari mamlakat aholisiga katta g‘amxo‘rlik kursatib, bugundan e’tiboran ularni yuvinish va cho‘milishdek mushkulotdan butunlay ozod qiladilar.. qasddan yuvinayotgan yoki cho‘milayotgan paytda qo‘lga tushirilgan baliqpadarlar esa xavfli g‘alayonchi sifatida achigan zindonga tashlanadilar.*”

Anvar Obidjon – yangi o‘zbek adabiyotida o‘z o‘rni, uslubi, qarashlari, qahramonlari, o‘quvchilari mavjud betakror san’atkor. U o‘zligini izlay-izlay yetuk shoir, so‘z san’atkori bo‘ldi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. A.Obidjon. Ajinasi bor yo‘llar. – T,: “Sharq yulduzi” jurnali, 2014 yil
2. A.Obidjon. Alamazon va Gulmat. T.: Cho‘lpon”, 1998-yil
3. A.Obidjon. Juda qiziq voqeа. T.: "Cho‘lpon", 1997-yil
4. A.Obidjon. Ketmagil. T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1985- yil
5. Said Ahmad. Farg‘onada bittagina "Xalq so‘zi". 2000 yili 19 aprel
6. Rahmon Qo‘chqor. Ajabtovur idrok usuli. "Fidokor", 2000-yil 20 avgust.

## REKLAMA TARJIMASIDA TARJIMON MAHORATI, REKLAMA TARJIMASI USLUBI VA MUAMMOLARI

Nuraliyev Jasur,

SamDCHTI magistranti

*Annotatsiya: Ingliz tilidagi reklamalarni o‘zbek tilidagi tarjimasini tahlil qilish maqsadida mazkur ilmiy ishda manba sifatida bevosita tarjimalardan bir nechtasini kiritib otdik, bevosita o‘girmalardan ingliz tarjimalari tanlab olindi. Shuningdek, ingliz – o‘zbek reklamalarni tuzilishlari o‘rtasidagi formal hamda funsional mutanosibliklarni o‘rganish maqsadida ingliz, amerika va o‘zbek reklamalarnining qator asosiy matnlari tekshirildi va o‘zaro chog‘ishtirildi.*

**Tayanch so‘zlar:** tarjima, maqsad, original uslub, reklama, asliyat, milliylik, iste’molchi.

Xorijiy tildagi matnni o‘rganish va uni bir tildan boshqasiga o‘girish va tildagi o‘ziga xos xususiytlarni tarjima jarayonida saqlab qolish tarjimashunoslikda muhim o‘rin tutadi. Bu yerda tarjimon mahoratiga qoyil qolmay iloj yo‘q.

Bu tarjimada tarjimon tomonidan qolip mos tarzda tanlangan va mohironalik bilan tarjima qilingan. Bizda asl nusxa uslubini bergan tarjimalar ko‘p, mohir tarjimonlar bu og‘ir ishni sharaf bilan bajarganlar. O‘tkir tarjimonlar original uslubni berish uchun juda ko‘p bosh qotirishgan. Shuning uchun ham ularning tarjimalari yaxshi chiqqan. Shu maqsada bir misol keltirib o‘tamiz:

Coca-cola firmasining ishlab chiqargan mahsuloti bu koka-kola ichimlik suvlaridir, bu mahsulotni ishlab chiqargandan keyin uning bozori chaqqon bo‘lishi uchun uni reklama qilish kerak bo‘ldi, hammaga ma’lumki yevropa mamlakatlarida reklamalar no‘ananaviy bo‘ladi, ya’ni reklama tayyorlashdagi video ro‘liklar o‘ziga tortish kuchiga ega bo‘lish kerak. Endi bu mahsulot bizning mamlakatda, bu

mahsulotni sotish uchun uni reklama qilish kerak bo‘ladi. Reklama qilishda koka-kola firmasining shiorini tarjimasi bilan reklama qilinadi. Tarjima bir qator usularda amalga oshirilishi mumkin:

“*Open happiness*”. Koka-kola firmasining bu shiorini bizning tarjimonlar “*Baxtinga erish*” shaklida tarjima qilgan. Agar so‘zma-so‘z tarjima qilinganda “*baxting ochiq*” qabilida bo‘lishi tayin edi. Tarjimon tomonidan amalga oshirilgan tarjima e’tiborni tortishi aniq. Tarjimaning qaysi bir sahifasini ochmang, qaysi bir satrini o‘qimang, bari asl nusxaga mos, katta did va zo‘r ilhom bilan ifodalangan.

Bu yerda “*open*” so‘zi “*erish*” shaklida tarjimon tomonidan katta mahorat bilan tarjima qilinganligi ko‘rinib turibdi. *Moslashirma tarjima usuli qo‘llangan*. Bu tarjima turida asliyatga o‘ta erkin munosabatda bo‘lingan. Ko‘proq komediya janriga, reklama va e’lonlar tarjimalarida mavzu personajlar tarkibi, mazmuniy xususiyat odatda saqlansada, asliyatda mujassamlangan milliy o‘ziga xoslik, urf-odatlar, ruhiy holatlar tarjima tili sohiblariga xos jihatlar bilan almashtiriladi. Bunday tarjima beasos asliyatni imkon qadar tarjima tili sohiblariga yaqinlashtirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Moslashtirilgan tarjimaning paydo bo‘lish sabablaridan biri o‘z qalami quvvatiga ishonqiramagan ijodkorning asarni kitobxon qo‘lida tezroq ko‘rish orzusi bilan bog‘liqdir.

Ikkinci sababi – tarjimonning o‘zga xalq hayotining o‘ziga xos tarzdagi tasviriga bag‘ishlangan baddiy yodgorlikni o‘z kitobxoniga maqbul va manzur tarzda yetkazib berish istagidan iboratdir.

KaOoga! Mobile, by joining the kaooga club you are automatically entered and agree to receive exclusive offers, crazy deals and FREE STUFF every week Your standard text message rates apply and you may opt out at any time by replying STOP.

Tarjimasi: HAMMA G‘OLIB!

*Har hafta ekskluziv yutuqlar va chegirmalarni yutib ol bu galgi yutuqlar va sovg‘alar: bir yillik bahorgi sayohat, bitta I Pod, bitta video kamera, bir yil uchun turli xil ichimliklar, kinoga chiptalar, tekin ovqatlar.*

*Qo'l telefoning orqali kaooga klubiga bog'lan va sen har hafta to 'g'ridan to 'g'ri kutilmagan takliflarga, ga'royib yutuq va sovg'alarga duch kelasan! Sen tanlagan xabar darajasi yuqorilashib boraveradi va sen xohlagan vaqtingda STOP tugmasuini bosib uyindan chiqishing mumkin.*

Tarjimon tanlagan uslubning yangiligi faqat so'zda emas, avvalo jumla tuzishida ko'rindi. Jumla – bu uslub kaliti hisoblanadi. Tarjimon bir qator muammolar qarshisida turadi. Birinchidan: U – ijodkor, lekin o'zganining ijodi bilan ish ko'radi. Ikkinchidan: U Vatan adabiyoti ravnaqi yo'lida zahmat chekadi. Ayni vaqtda asliyatning milliyligini saqlash lozim. Uchinchidan: Tarjimondan o'tmishto 'g'risida kitobxonga tasavvur berish (uyg'otish) talab qilinadi. To'rtinchidan: Tarjima qilish jarayonida u hamma vaqt o'z ona tilida fikrlaydi. Ona tili unga tahlil quroli, sinov mezonib bo'lib xizmat qiladi. Tarjimon avtorning g'oyaviy-estetik dunyosi, kitobxonni rom etgan jozibani o'quvchilarga yetkazishga bel bog'lagan kishi hisoblanadi. Tarjimon voqelikni asliyatda ko'rsatilgan darajasida bilsagina uni qayta yarata oladi. Voqelikni qayta yaratish – tarjimondan keng tasavvurga ega bo'lishini hamda matn "interpretatsiyasi" ustida ijodiy mehnat qilishni taqozo etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak reklama tarjimasida so'z tovar iste'molchisining ehtiyojini ma'lum darajada qondirayotgani haqida borayotganini tushunish muhim. Ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasidagi kommunikativ aloqa reklama hisoblanadi. Reklama korxona va bozor o'rtasidagi butun aloqa tizimini o'z ichiga oladi. Iste'molchi reklama qilinayotgan tovar to 'g'risida malakali bilimga, ya'ni tasavvurga ega bo'lishi kerak. Reklama xabarlari shunday bo'lishi zarurki, u iste'molchida tovarga nisbatan ijobiy munosabat uyg'otishi va uni sotib olishga ishonch uyg'ota olishi lozim. Reklama mazmuniga kelganda, unga tovarlarni va ularning iste'mol qilish xususiyatini tashviqot qilish deb qaralishi shart. Ayrim qarash va g'oyalarning shakllanishini tashviqot qilish reklamani rivojlantirishning yangi imkoniyatlarini ochadi.

**ADABIYOTLAR**

1. Кулдошов У. Инглиз ва ўзбек тилларида конверсивлик ва антонимлик ҳодисаси //Иностранный филология: язык, литература, образование. – 2021. – №. 3 (80). – С. 67-73.
2. Daminov N. K. SIMULTANEOUS TRANSLATION INTERPRETING AS A MODERN TYPE OF TRANSLATION //Academic research in educational sciences. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 77-81.
3. Daminov N. Using some strategies in simultaneous interpreting process //E3S Web of Conferences. – 2023. – Т. 381. – С. 01104.
4. Kasimova A. N., Nurullayeva D. S. H. NEOLOGISMS IN MODERN ENGLISH AND THEIR TRENDS IN WORD FORMATION (BASED ON TEXTS IN THE MEDIA) //Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры. – 2023. – Т. 3. – №. 3. – С. 130-133.
5. Sukhrobovna N. T. AXBOROT TEXNOLOGIYALARDA MATNLARNING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – Т. 24. – С. 1087-1090.
6. Xidirovich N. X., Daminov N. Q. SINXRON TARJIMON NUTQIGA QO ‘YILADIGAN TALABLAR //IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 21-27.
7. Сафаров Ш. Тил бирлиги ва воқелик муносабати //Иностранный филология: язык, литература, образование. – 2021. – №. 2 (79). – С. 5-8.

## REKLAMA MATNLARINING LINGVOMADANIY JIHATLARI

Nuraliyev Jasur,  
SamDCHTI magistranti

### ANNOTATSIYA

*Maqolada reklama matnlarining o‘ziga xos xususiyatlari, ularda uchraydigan lingvomadaniy til birlarining tarjima qilish usullari tahlil qilingan. Reklama mahsulatning jahon bozoriga chiqish uchun mo‘ljallangan bo‘lsa, unda milliy o‘ziga xoslik xususiyatlarining minimallashtirilishi lozimligi taklif qilingan.*

**KALIT SO‘ZLAR:** *reklama, lingvomadaniy jihat, madaniyat, milliylik, konsept, freym, konseptual asos, pragmatik moslashuv, kognitiv aspekt.*

Reklama tarjimasi o‘zining pragmatik vazifalari va kommunikativ salohiyati bilan badiiy matn tarjimasidan farq qiladi [2, 146]. Shu sababli, zamonaviy dunyoda asosiy vazifa reklamani odatiy ma’noda tarjima qilish emas, balki uni, qoida tariqasida, asl matn asosida qayta tiklash lozim. Tarjimon oldida, birinchi navbatda, asl nusxaning ma’nosini emas, balki uning pragmatik imkoniyatlarini yetkazish vazifasi turibdi. Reklama tarjimalarida tarjimonlar duch keladigan eng asosiy muammolar quyidagilar:

- 1) reklamaning ma’lum bir madaniyatga xosligi muammosi;
- 2) reklama tarjimasining adekvatligi muammosi;
- 3) tarjima qilinmaydigan reklama matni biriklari muammosi;
- 4) fonetik moslashuv muammosi [2, 239].

Til va madaniyatning o‘zaro aloqasi, muammolari, milliy mentalitet, til muvofiqligi masalalari doimo insoniyatni qiziqtirib kelgan masalalardan. Ushbu maqolada lingvistik va madaniy tushunchalarining tarjimada qayta yaratilishi masalasini reklama materiallari asosida o‘rganishga harakat qildik. Tadqiqot mobaynida reklama matnlarining qiyosiy tahlili o‘tkazildi. Kognitiv-pragmatik

aspektda tushunchalarning tabiatini farqlashdan oldin, reklama matnlarining quyidagi guruhlari aniqlandi:

- tarjima paytida kontseptual komponenti saqlanmaydigan reklama matnlari;
- asl nusxadan tarjima qilinganda kontseptual asosni saqlaydigan reklama matnlari.

Ko‘rib chiqilayotgan reklama shiori zamirida turli ma’nolar mujassam: ingлиз tilida “*free-erkinlik*” tushunchasi “*o’zingiz xohlagan narsani tanlash qobiliyatini anglatgan*”. Asrlar davomida shakllangan va folklorda mustahkamlangan an’anaviy “*free-erkin*” konseptiga kelsak, dastlab erkinlik makon sifatida tushunilgan ya’ni “*bo’sh, bo’sh joy*” ma’nosida, keyinroq u konkretlashtirilgan. Ya’ni “*free*” so‘zi turli birikmalar tarkibida va konteks ta’sirida turli ma’nolar kasb etgan. Masalan, *Free light is not a wedge, there is space*. “*Free – erkin*” so‘zining mutloq cheksizligi chegaralangan, uning chegarasi noaniq.

Ingliz tilida “*free*” tushunchasining ma’nolari quyidagicha tavsiflanadi: “*spontaneous*”, “*plunging a person into the sphere of instincts, depriving him of his human appearance*”, ‘*openly manifested*’, ‘*inherent, peculiar to a few*’, “*having a destructive effect on someone or something; causing any negative consequences; dangerous*”, “*necessary for life, of value to a person*”, “*related to the soul*”, etc.

“*Freedom – Erkinlik*” – bu istak, ya’ni biror narsani amalga oshirish istagi, egalik qilish, insonning his-tuyg‘ulari, intilishlari va ehtiyojlari sohasiga bevosita bog‘liq bo‘lgan narsadir.

Demak, “*free – erkin*” tushunchasi freym strukturasiga ega, ya’ni u tegishli vaziyatning modelini aks ettiradi: Erkinlikning subyekti – baxtni boshdan kechirgan odam, erkinligidan o‘zini qush yoki shamol kabi his qiluvchi, ko‘pincha harakatlar va namoyishlarda aqlini yo‘qotgan, mas’uliyatsiz holatga tushgan kishi.

O‘zbek tilidagi “*erkin*” leksemasi 1) ozod, hur, ixtiyoriy, (freedom): release the bird into the wild – qushni ozod qilmoq; 2) (the free manifestation of smth.) erkin, erkinlik, bo‘shalmoq, erk bermoq - ko‘z yoshiga erk berish - give way to tears; jahliga erk bormoq – to give vent to anger; at liberty – erkinlikda, willy-nilly – istar-istamas;

Ko‘rib turibsizki, luga’atlarda yoki lug‘at boyligi orasida “*free*” so‘zining “*yovvoyi*” ma’nosini uchratish qiyin. Lekin, reklama tilining o‘ziga xos xususiyatlari va vazifalardian kelib chiqib, unga “*yovvoyi, qo‘lga o‘rgatilmagan*” ma’nolarini kasb etmoqdamiz. O‘ylaymizki bu reklama tarjimasining uslubiy jihatdan adekvat yaratilishiga xizmat qilgan.

“*Yovvoyi*” leksemasi – 1) qo‘lga o‘rgatilmagan, daladagi; 2) ibridoiy, xonakilashtirilmagan, oddiy; yovvoyi olma - wild Apple; yovvoyi hayvonlar - wild animals; oddiy usul - primitive way; oddiy til bilan aytganda - speaking in plain language).

Tahlillardan ayon bo‘ldiki, “*erkin, erkinlik va yovvoyi*” leksemalarining ifodasi bir madaniyat ichida har xil xususiyatlarga ega, ular bir xil xususiyat kasb etmaydi (*free* - acting on their own; without restrictions; being not in prison; *wildness* - unrestrained, unrestrained, violent, indomitable), biroq ushbu reklama matnini tarjima qilishda biz nutq ta’sirchanligiga erishish uchun “*yovvoyi*” so‘zidan foydalanib, ingliz tili bilan qiyoslaganda konspetual asos saqlanmasada, o‘zbek tilida kontseptual komponentni saqlagan holda, zero, erkin va yovvoyi sifatlari turli semantik ma’nolarni ifodalsada, tarjimaga pragmatik yondashgan holda ingliz tilidagi “*free*” so‘zining ma’nosiga, uslubiy jihatdan, tarjimada “*yovvoyi*” so‘zini adekvat deb topdik. Lekin bu tarjimamiz orqali ingliz va o‘zbek tilida konseptual asos saqlangan deb aytolmaymiz. Chunki, ingliz tilidagi “*free*” konseptining ma’no ko‘lamiga o‘zbek tilidagi “*yovvoyi*” so‘zini kiritolmaymiz.

Endi, tarjimada asliyatdagi kontseptual asosi saqlangan reklama matnini tahlil qilsak. Masalan, qozoq tilidagi “*Oq o‘tov*” jumlesi qo‘llangan reklamani olaylik. Oq o‘tov - White Yurt. Oq o‘tov (White Yurt) - dome (upper part) in the figurative meaning of “*hearth, house*” [2, 65-68].

“*Oq o‘tov*”ni tarjima qilganda uning majoziy ma’nosи – uy ishlatiladi, ya’ni qozoqchada “*Yurt*” so‘zining ma’nolaridan biri – bu uyga to‘g‘ri keladi. Yurt bu uyning turi bo‘lgani uchun uni uy deb talqin qilish mumkin. Lekin “*Yurt*” so‘zi

madaniy xos so‘z bo‘lgani uchun uni tarjimada “*Yurt*” shaklida ifodalash maqsadga muvofiq.

**Jahon bozori uchun mo‘ljallangan reklama matnini tarjima qilishning asosiy metodi tarjima tilida mos variantni tanlash usuli.** Reklama - bu muloqotning bir turi, u mahsulot sifatini iste’molchilarining ehtiyojlari tiliga o‘tkazadi. U ikki qismdan – verbal va noverbal, kreollashtirilgan matndan iborat.

Til birliklarining grafikli, imlo, fonetik, morfologik, sintaktik va leksik darajalaridan foydalanish turli tillar uchun umumiy bo‘lgan xarakterli xususiyatlarni ochib beradi. Maqol, matal, va aforizmlar ishtirokida tuzilgan reklama matnlarining o‘xshashligi tarjima tili o‘quvchisining tushunishi uchun ma’nolarni idrok etishni yengillashtiradi.

Konsep tarjimaning eng qiyin elementlaridan, chunki u boshqa tilda mavjud bo‘lman til vositalariga asoslangan bo‘ladi. Agar konseptni “so‘zma-so‘z tarjima usuli”da adekvat tarjima qilishning imkonini bo‘lmasa, unda tarjimon o‘z tajribasiga, til me’yorlariga hamda lingvomadaniy jihatga e’tibor qaratib boshqa til vositalaridan foydalanishi maqsadag muvofiq.

## ADABIYOTLAR

1. Dyer G. Advertising as Communication. – London: 1995. –143 p.
2. Kenzhegulova A. Peculiarities of the translation of advertising texts in the linguocultural aspect. Philological sciences. The scientific heritage. No 44 (2020). pp. 65-68.
3. Алексеева И.С. Профессиональный тренинг переводчика: учебное пособие по устному и письменному переводу для переводчиков и преподавателей. – СПб.: Союз, - 2001. – 256 с.
4. Кулдошов У. Инглиз ва ўзбек тилларида конверсивлик ва антонимлик ҳодисаси //Иностранный язык: литература, образование. – 2021. – №. 3 (80). – С. 67-73.

5. Daminov N. K. SIMULTANEOUS TRANSLATION INTERPRETING AS A MODERN TYPE OF TRANSLATION //Academic research in educational sciences. – 2023. – T. 4. – №. 2. – C. 77-81.
6. Daminov N. Using some strategies in simultaneous interpreting process //E3S Web of Conferences. – 2023. – T. 381. – C. 01104.
7. Kasimova A. N., Nurullayeva D. S. H. NEOLOGISMS IN MODERN ENGLISH AND THEIR TRENDS IN WORD FORMATION (BASED ON TEXTS IN THE MEDIA) //Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры. – 2023. – T. 3. – №. 3. – C. 130-133.
8. Sukhrobovna N. T. AXBOROT TEXNOLOGIYALARDA MATNLARNING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – T. 24. – C. 1087-1090.
9. Xidirovich N. X., Daminov N. Q. SINXRON TARJIMON NUTQIGA QO ‘YILADIGAN TALABLAR //IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMUY JURNALI. – 2023. – T. 3. – №. 4. – C. 21-27.
10. Сафаров Ш. Тил бирлиги ва воқелик муносабати //Иностранный филология: язык, литература, образование. – 2021. – №. 2 (79). – C. 5-8.

## ИНГЛИЗ ТИЛИДАГИ ФРАЗАЛИ ФЕЪЛЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ТАРЖИМА МАШАҚҚАТЛАРИ

Қўлдошев Ў.,

СамдЧТИ в.в.б. доценти

### АННОТАЦИЯ

*Мақолада инглиз тилининг ўзига хос хусусиятларидан бири бўлган фразали феълларнинг ўрганилиши тарихи, ҳосил бўлиши усуллари ва уларни нутқ жараёнида қўллаш хусусиятлари таҳлил қилинган. Идиомалашиган ва идиомалашмаган предлогли бирикмаларнинг чоғиштирма таҳлили келтирилган. Фразали феълларнинг семаник хусусияти, яъни улар иккита сўздан иборат бўлсада семантик яхлитликка эга эканлиги асосланган.*

**КАЛИТ СЎЗЛАР:** турғун бирикмалар, фразали феъллар, идиомалар, фразеологик бирликлар, предлогли бирикма, юклама, ўрин алмасиши, идиомалашиган, алмаштириши, кенгайтириши, ўрин алмаштириши.

Инглиз тилини ўрганиш жараёнида ундаги турғун бирикмалар – идиомалар, фразеологик бирликлар ҳамда фразали феъллар ҳақида маълумотга эга бўлиш нафақат ушбу тил борасидаги билимларимизни чуқурлаштиради, балки ушбу тилда сўзлашишни гўзаллаштиради, ўша миллатнинг маданиятига чуқурроқ кириб боришни англатади. Зеро, фразали феълларнинг пайдо бўлиши инглиз халқи тарихи ва маданияти билан чамбарчас боғлиқ.

Инглиз тилшунослигида фразали феъллар нутқнинг тасвирий воситаларидан ҳисобланиб, сўзларнинг ифода тамойилларига зид келади. Улар инглиз тилининг алмаштириб бўлмас тил бирлиги бўлиб, кишида яққолроқ таассурот уйғотиш, фикрни қисқа ва лўнда ифодалаш ҳамда ўқувчида ўзига хос ҳиссий таъсирчанликни яратишга ёрдам беради. Ҳозирги коммуникацион

технологиялар жадал ривожланиб бораётган даврда фразали феъллар коммуникацияни янада таъсирчан ва самаралироқ қилишда аҳамияти катта бўймоқда.

Инглиз тилидаги фразали феълларнинг тарихи Англо-Саксон даврига бориб тақалади. Герман қабилалари тилларидан сақланиб қолган баъзи феъллар ва равишлар, мисол учун, *be, for-, under-, over-*, қўшма феълларни ташкил этган. Кейинчалик француз ва лотин тилларининг таъсири билан равишлар анча ривожланиб феълга томон яқинлашди ва охир оқибат улар фразали феълларни ҳосил қилдилар. [1, 61 б.]

Фразали феълларнинг идиомалашганлик даражасининг ўзига хос хусусияти шундаки, кўпчилик фразали феъллар (масалан, *take off*) ўзида турли маъно касб этади, яъни улар кўп маъноли ҳисобланади: *-Take your coat off and sit down. (remove)*. *-Some local trains have been taken off. -I took off three kilos last week. (lost weight)* *-He is very funny when he takes off. (imitate)* *-Why don't you take off that silly moustache? (shave)*. Ушбу мисоллардаги “тақлид қилмоқ” (*humorously imitate*) маъносида келган “*take off*,”нинг маъноси ҳақиқатан ҳам кучли идиомалашган, чунки таркибидаги сўзларнинг маъносидан жумла маъносини тушуниш қийин. Бунга қарама қарши тарзда “*put off*” (*delay*) фразали феълининг маъноси қисман идиомалашган, чунки унинг маъносини жумла маъносидан келтириб чиқариш мумкин. Яна бир фразали феъл “*speed up*” (*suddenly accelerate*)нинг маъноси эса деярли сезилмас даражада идиомалашган холос.

Демак, таржимон учун ушбу ҳолат жуда катта аҳамият касб этади. Кучли идиомалашган фразали феълларнинг маъносини контекстдан ҳам англаб бўлмаслик сабабли таржимон жуда эҳтиёткор бўлиши ва бевосита фразеологик ёки идиомалар луғатига мурожаат қилиш лозим.

Таржимон фразеологик феъллар билан ишлар экан, у оддий феъл+предлогли бирикма билан фразали феълнинг фарқига бориб, унинг идиомалашган ёки идиомалашмаган бирикма эканлигига эътибор қаратиб ишлаш лозим. Масалан қўйидаги икки мисолда битта бирикма икки хил

вазифада келган, яъни биринчи мисолда оддий феъл+предлог шаклидаги бирикма, иккинчи мисолда эса идиомалашган фразали феълдир: *-She put down the book.* (*идиомалашмаган оддий бирикма*) *-The army put down the rebellions.* (*идиомалашган*). Яна бир мисол, *-She opened her suitcase and packed all her cloths in.* *-He decided to pack his job in.*

Баъзан, фразали феъл таркибининг ўзгариб келиши ёки сўз тартибининг ўзгариши маънонинг ҳам ўзгаришига олиб келади. Яъни фразали феъл таркибидаги предлогнинг тўлдирувчининг олдида ёки орқасида келиши маънога таъсир қиласи: *-He turned on me.* (*He betrayed me; he attacked me.*) *- He turned me on.* (*He excited me.*).

Бундан ташқари олим Мак Артурнинг фикрича фразали феъллар идиомалашган ёки идиомалашмаган маъноларидан ташқари контекстдан келиб чиқиб бошқа турли маънолар ҳам касб этиши мумкин [3, 167 б].

Олимлардан Гарденер ва Девислар фразали феъл ва предлогли феълларни қиёслаб ўргангандан: 1) Барча предлогли феъллар воситасиз тўлдирувчи билан келиши керак бироқ фразали феъллар тўлдирувчи олиши шарт эмас. 2) Кўпчилик фразали феълларда юклама феълдан ажратилган ҳолда ишлатилиши мумкин: “figure out something” ва “figure something out”. Лекин тўлдирувчи олмош билан ифодаланганда ёндашув бошқача. Бунга қарама қарши тарзда, предлогли феълларда предлог феълдан ажралган ҳолда қўлланилмайди. 3) Фразали феълларда ургу ҳамиша юкламага тушади: *-He woke \*up.* Бироқ, *-\*He woke up* эмас. 4) Кўпчилик фразали феъллар нутқда қўп ишлатиладиган кам сонли феъллар (*take, get, put*)дан ҳосил қилинади ва феълга бирикадиган юкламалар ҳам қўп сонли эмас. Предлогли феъллар эса ҳар хил феъллар билан бирикиб келадиган турли предлоглардан ҳосил бўлади.

Фразали феълларга қисқа назар ташлаб келтириб ўтган фикрларимиз асосида қуйидагича хулосаларга келишимиз мумкин: инглиз тилида фразали феълларни қўллаган ҳолда нутқ сўзлаш тилни чуқурроқ ўргангандикдан далолат бериб, кишида яққолроқ таассурот уйғотиш, фикрни қисқа ва лўнда ифодалаш

ҳамда ўқувчида ўзига хос хиссий таъсирчанликни яратишга ёрдам беради. Таржимон фразелогик феъллар билан ишлар экан, у оддий феъл+предлогли бирикма билан фразали феълнинг фарқига бориб, унинг идиомалашган ёки идиомалашмаган бирикма эканлигига эътибор қаратиб ишлаши лозим.

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Gardner D, and Davis, M. Pointing out Frequent Phrasal Verbs: A Corpse-based Analysis. TESOL Quarterly. 2007. pp.236
2. Kollin M. and Funk R. Understanding English Grammar. 5th ed., Boston: Allyn and Bacon Press. 1998. pp.183
3. McArthur, T., The Oxford Companion to the English Language. Oxford. New York: Oxford University Press. ed., 1992. pp.334
4. Кулдошов У. Инглиз ва ўзбек тилларида конверсивлик ва антонимлик ҳодисаси //Иностранный филология: язык, литература, образование. – 2021. – № 3 (80). – С. 67-73.
5. Daminov N. K. SIMULTANEOUS TRANSLATION INTERPRETING AS A MODERN TYPE OF TRANSLATION //Academic research in educational sciences. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 77-81.
6. Daminov N. Using some strategies in simultaneous interpreting process //E3S Web of Conferences. – 2023. – Т. 381. – С. 01104.
7. Kasimova A. N., Nurullayeva D. S. H. NEOLOGISMS IN MODERN ENGLISH AND THEIR TRENDS IN WORD FORMATION (BASED ON TEXTS IN THE MEDIA) //Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры. – 2023. – Т. 3. – №. 3. – С. 130-133.
8. Sukhrobovna N. T. AXBOROT TEXNOLOGIYALARDA MATNLARNING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – Т. 24. – С. 1087-1090.
9. Xidirovich N. X., Daminov N. Q. SINXRON TARJIMON NUTQIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR //IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 21-27.
10. Сафаров Ш. Тил бирлиги ва воқелик муносабати //Иностранный филология: язык, литература, образование. – 2021. – №. 2 (79). – С. 5-8.

## O‘QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN UNUMLI FOYDALANISH

**Nasrullayeva Tozagul Suhrobovna**

(SamDCHTI o‘qituvchisi)

**Mavlonova Gulnora Abdigani kizi**

(SamDCHTI magistranti)

***Annotatsiya:** Mazkur maqola pedagogik texnologiyalarga bag‘ishlangan. Innovatsion va pedagogik texnologiyalar muammolari, masalalarini o‘rganayotgan o‘qituvchi professorlar, amaliyotchi tadqiqotchilarining ta’kidlshicha, pedagogik texnologiya – bu faqatgina axborot texnologiyasi bilan bog‘liq shuningdek o‘qitish jarayonida qo‘llanishi lozim bo‘lgan Axborot kompyuter texnologiyalari, masofaviy o‘qish, yoki har xil texnikalardan foydalanish deb ataladi.*

***Tayanch so‘zlar:** analiz, sintez, o‘quvchi, talaba, faoliyat, fikr, texnologik xarita.*

Pedagogikaning asosi bu - o‘qituvchi va o‘quvchi-talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalar muhim rol o‘ynaydi, ya’ni dars jarayonida, maqsad bo‘yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo‘llaniladigan har bir ta’lim texnologiyasi professor-o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida tashkil etilgan hamkorlik faoliyatini rivojlantira olsa, har ikkalasi tomon ham kutilgan ijobiy natijaga erisha olsa, o‘quv jarayonida o‘quvchi-talabalar erkin fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, analiz va sintez qila olsalar, o‘zlari xulosa qila olsalar, o‘z-o‘ziga baho bera olsa, o‘qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, ana shular o‘qitish jarayonining asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi[1]. Har bir mavzu, dars, o‘quv jarayonining o‘ziga xos texnologiyasi mavjud, ya’ni o‘quv jarayonidagi

pedagogik texnologiya – bu yakka tartibdagi jarayon hisoblanib, u ta’lim oluvchilarning ehtiyoj va talabidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan reja qilingan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayon hisoblanadi.

O‘qituvchi va o‘quvchi-talabaning maqsaddan natijaga erishishda qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda o‘quvchi-talabalarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi[2].

Shu bilan bir qatorda, o‘qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonida o‘qituvchi o‘quv predmetining o‘ziga xos tomonini, mavjud moddiy va ma’naviy shart-sharoitlarni, AKT vositalarini, eng asosiysi, o‘quvchi-talabalarning imkoniyat va ehtiyojini hamda ularning hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olish qobiliyatlarini hisobga olishi kerak. Shundagina kerakli va kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, o‘quvchi-talabani ta’limning markaziga olib chiqish kerak.

O‘qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko‘ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo‘lajak dars jarayonini loyihalashtirib olish kerak.

Bunda o‘qituvchiga u tomonidan bo‘lajak darsning texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga egadir, chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o‘qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, o‘quvchi-talabalarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi.

Bunday texnologik xaritani tuzish oson emas, chunki buning uchun o‘qituvchi pedagogika, psixologiya, xususiy metodika, pedagogik va axborot texnologiyalaridan xabardor bo‘lishi, shuningdek, juda ko‘p metod va usullarni bilish kerak bo‘ladi. Har bir darsning rang-barang, qiziqarli bo‘lishi avvaldan puxta o‘ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlari asosida zamonaviy madaniyat

va iqtisodiyotning pedagogik shakl va vositalarini ishlab chiqish, amaliyotga joriy etishga alohida ahamiyat berilgan.

Shu jihatdan ham umumiyl o'rta ta'lim maktablarida davlat ta'lim standartlari bo'yicha ko'zda tutilgan iqtisodiy ta'lim va iqtisodiy tarbiyani takomillashtirish, uni o'quvchilar ongiga singdirib borib, iqtisodiy tafakkurni shakllantirish muammosi dolzarbdir.

Chunki har bir o'quvchi-talaba bozor munosabatlari rivojlanib borayotgan bir davrda – uni o'rab turgan iqtisodiy voqyelikni, unda kechayotgan jarayonni anglashi, tadqiq va tahlil qilib, xulosalar chiqarish imkoniga ega bo'lishi lozim. Bu esa har bir fuqaroden iqtisodiyot nazariyasining asoslaridan xabardor bo'lishini, uni amalda joriy qilish yo'l va vositalarini talab darajasida o'zlashtirishini taqozo etadi. Bu masalalar, asosan, o'quv muassasalarida amalga oshiriladi.

O'quvchi-talabalar bosqichma-bosqich uzlusiz ta'lim jarayonida iqtisodiy bilim asoslarini o'rganish mobaynida ularning tafakkurlari ham shakllana boradi. Ular quyidagi bilimlar majmui bo'lib xizmat qiladi: shaxsning ehtiyoj imkoniyatlarini hisobga olib, aniq reja va dasturlar tuzib, o'ziga xos uslub va metodlar asosida amalga oshirishda; shaxsning mustaqil faoliyatida samarali o'rin tutadigan aniq iqtisodiy tushunchalarni; iqtisodning siyosat va bozor munosabatlari bilan bog'liq qonuniyat asoslari va ulardan amalda foydalanish yo'l-yo'riqlarini; mustaqil faoliyat ko'rsatishda zarur bo'ladigan barcha iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakalar majmuini o'zlashtirishni;

Xulosa qilib aytish mumkinki, hayotda qaysi sohani tanlashidan qat'i nazar, ehtiyoj darajasida iqtisodiy tayyorgarlikni o'zida shakllantirishni; iqtisodiy bilim asoslaridan to'g'ri va maqsadga muvofiq holda foydalana olish-shaxs barkamolligini belgilovchi axloqiy sifatlaridan biri, deb qarashni; iqtisodiy bilim asosidan xabardorlikni o'z faoliyati davomida jamiyat va davlat iqtisodiy, huquqiy siyosati asosida namoyon etadi.

**ADABIYOTLAR**

1. Daminova N. K. TA'LIM TASHKILOTLARIDA IJTIMOIYLASHUV JARAYONLARINI BOSHQARISH IERARXIYASI //Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities. – 2023. – T. 2. – №. 2. – C. 44-51.
2. Daminov N. K. SIMULTANEOUS TRANSLATION INTERPRETING AS A MODERN TYPE OF TRANSLATION //Academic research in educational sciences. – 2023. – T. 4. – №. 2. – C. 77-81.
3. Daminov N. Using some strategies in simultaneous interpreting process //E3S Web of Conferences. – 2023. – T. 381. – C. 01104.
4. KUDRATOVNA D. N. ИНТЕРФАОЛ УСУЛЛАРНИНГ ЧЕТ ТИЛЛАРНИ ЎКИТИШДАГИ АҲАМИЯТИ //Scienceweb academic papers collection. – 2018.
5. Sukhrobovna N. T. AXBOROT TEXNOLOGIYALARDA MATNLARNING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – T. 24. – C. 1087-1090.
6. Xidirovich N. X., Daminov N. Q. SINXRON TARJIMON NUTQIGA QO'YILADIGAN TALABLAR //IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALLI. – 2023. – T. 3. – №. 4. – C. 21-27.

## SCIENTIFIC SIGNIFICANCE OF NOTION “FATE”

Raxmonova Farida Zafar kizi

(Master student of SamSIFL)

**Annotation:** This article is written about the category of fate is one of the key in philosophy, culture, significant for the worldview of an individual. Fate is the most important category of consciousness, with the help of which a conceptual picture of the world of the people is built. The explanatory dictionary gives the following definitions of “fate”: firstly, it is a combination of circumstances that do not depend on the will of a person.

**Key words:** share, fate, life path; history, existence; happiness, predestination, future, destiny.

In the dictionary of V. I. Dahl, the concept of “fate” is inscribed in the dictionary entry of the verb "to judge", in the same row with the words "court", "judgment". At the same time, “fate” is interpreted as “fate, lot, share, fate, part, happiness, predestination, inevitable in earthly life, the path of conduct; what is destined, what is destined to come true or to be. As a note, it is highlighted: "The agreement of fate with the freedom of man is inaccessible to the mind”[1]. Thus, in both dictionaries, emphasis is placed on the inevitability, incomprehensibility of fate, and therefore on the need for humility with it. The lexeme "fate" is also associated with the idea that one of the many possible lines of development of events at a certain moment is chosen. Therefore, the problem of choice, its definition by moral principles or, conversely, deviation from them, becomes relevant in this regard. The presence of fate exacerbates the question of the freedom of man in building his life path, which was decided in different ways throughout human history.

In philosophy and cultural studies, fate is interpreted as “an unreasonable and incomprehensible predestination of events and actions”[2]. In antiquity, there were different concepts of fate. Fate as Moira, presented in early antiquity, is meaningless, dark and blind, but at the same time it carries impersonal justice, retribution. A similar personification of fate was also among the ancient Slavs: Makosh, spinning the threads of fate, assisted by Dolya and Nedolya. In the era of Hellenism, among the Greeks and Romans, fate appears in the images of Tyche, Fortune, giving hope for good luck, chance. During the heyday of the Roman Empire, fate is presented as a fate, asserting the lack of freedom of a person and even a people, a fate that cannot be avoided. Philosophers turn to astrology in an attempt to find an explanation, the logic of fate. Christianity rejects fate, defining human life by an incomprehensible Divine Providence. The Renaissance revived interest in astrology. The magical practice of knowing fate in an unconscious state, in a trance, has become widespread. The development of science, faith in the conscious construction of the life path of a person and the state in modern times pushed the idea of fate into the sphere of philistine ideas. At the end of the 19th century, there is again an appeal to the idea of fate. Nietzsche’s proposition about the death of God has as a consequence the thesis about fate as the abandonment of man to himself. Something similar is defined by the Marxist assertion that man is the master of his own destiny. In Spengler’s philosophy, man and society depend on "fate", incomprehensible to the mind, depriving a person of will. The concept of "fate" in existential philosophy builds up a negative emotional layer, actualizes the axiological component.

In modern European culture, "fate" has a double interpretation: fate as an inevitable fate that has an unknowable higher pattern of the life path of a person, clan, people, as well as fate as fortune, luck. In Russian culture, fate is seen as divine providence, all the vicissitudes of fate are accepted as necessary trials. “Fate is a key concept of Russian culture,” writes A. Vezubitskaya in her fundamental study “Semantic Universals and Basic Concepts”[1]. The researcher, considering the concept of fate in different cultures, speaks of its universality and finds its expression in all

languages, just as it happens with the concept of "death", highlighting such characteristic qualities as predestination and determinism. The two main meanings of this concept are also indicated in the Brockhaus dictionary (as everything that happens to a person and determines his existence, which is not subject to the will of a person and cannot be changed by him; as a force that guides a person's life, determines its course, does not depend on his will ). Fate is seen, first of all, as the meaning of his existence presupposed to man, identified with his essence.

If, within the framework of German civilization, fate appears as an inevitable force, not subject to anyone's will, which leads a person to an unknown goal, forcing him to perform actions that often contradict the moral law, then the Vedic concept of fate postulates the existence of rigid causal relationships between all phenomena in the Universe and excludes any kind of coincidence. Eastern philosophy itself, which professes the harmonious coexistence of all principles, is focused on the individual's understanding of his path and finding his place in a holistic picture of the world.

## LITERATURE

1. Гладкова А.Н., Ларина Татьяна Викторовна Анна Вежбицкая: язык, культура, коммуникация // Вестник РУДН. Серия: Лингвистика. 2018. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/anna-vezhbitskaya-yazyk-kultura-kommunikatsiya> (дата обращения: 03.05.2023).
2. Daminov N. K. SIMULTANEOUS TRANSLATION INTERPRETING AS A MODERN TYPE OF TRANSLATION //Academic research in educational sciences. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 77-81.
3. Daminov N. Using some strategies in simultaneous interpreting process //E3S Web of Conferences. – 2023. – Т. 381. – С. 01104.
4. KUDRATOVNA D. N. ИНТЕРФАОЛ УСУЛЛАРНИНГ ЧЕТ ТИЛЛАРНИ ЎҚИТИШДАГИ АҲАМИЯТИ //Scienceweb academic papers collection. – 2018.

5. Sukhrobovna N. T. AXBOROT TEXNOLOGIYALARDA MATNLARNING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – T. 24. – C. 1087-1090.
6. Xidirovich N. X., Daminov N. Q. SINXRON TARJIMON NUTQIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR //IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2023. – T. 3. – №. 4. – C. 21-27.
7. Kasimova A. N., Rakhmonova G. N. THE USE OF PHRASEOLOGICAL UNITS AS HEADLINES OF MASS MEDIA //Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры. – 2023. – T. 3. – №. 3. – C. 153-158.

## TYPOLOGICAL STAGES AND SPECIFIC ASPECTS OF OPERA PERFORMANCE

**Djumaniyazov Otemis Tlemisovich**

Master of the State Conservatory of Uzbekistan

**Alimardanov Rustam G‘ayratovich**

Master of the State Conservatory of Uzbekistan

**Normuminova Gulmira Komiljonovna**

Teacher of Navoi State Pedagogical Institute

**Abstract:** *Specific aspects of vocal performance in opera art, timbre, important stages in the singing process were explained practically and theoretically.*

**Keyword:** *timbre, sound, vocalist, vocal, opera, recitative.*

The goal of vocal lessons is to achieve free, easy singing, flying, without tension of sound, clear expressive diction, bright, rich timbre. Some teachers in their work try to "set the voice" and pay much attention to the development of technology. For others, a figurative, artistic vision of performance is important. However, the main principle is the unity of technique and artistic process.

Knowing the methods of well-known teachers, you can compare them with your own principles, learn something interesting and useful for working with vocalists. There is no single methodology. Prominent teachers of the Italian school recommend using a "hard attack" in their work, and most teachers associate this attack with the appearance of nodules on the vocal cords. But in practice, many singers used the "hard attack". And yet, it is necessary to decide which sound attack to use - "hard" or "soft" - based on the characteristics of the individual nature of the singer.

Vocal is the work on the way of vocalization of a piece of music based on the vocal qualities of the voice. More often, teachers are engaged in vocals, because working on voice production is a long and difficult path. Voice setting is the improvement of the necessary qualities of voice for the professional activity of an actor, singer, speaker. If the voice is naturally beautiful in timbre, then it is better not to interfere with its physiology, but to engage in vocalization. Therefore, it is better to use the terms "voice development", "voice education", "voice formation".

Well-known teachers recommend, firstly, to learn to feel muscular and stage freedom, to be able to trace your sensations during phonation and learn to control these sensations. M.I. Glinka, for example, wrote exercises to improve the flexibility of the voice, gave instructions to start developing the voice from the primary sounds that the performer sounds easily and timbre-colored, that is, from the sounds of the middle range.

There are many methods for developing the voice, they have a lot in common, but there are also differences. Therefore, the singer masters his instrument through certain sensations known only to vocalists due to internal vocal hearing. And the task of a vocal teacher is to teach the student to listen to the sound of his voice, to understand and control the nature of singing, to find techniques and methods that remove clips that interfere with performance, to cultivate vocal sensations and develop the necessary singing skills.

All forms of vocal music are embodied in the opera (aria, arioso, song, monologue, recitative, duet, trio, quartet, grand finale with chorus). Oratorio (from Latin I say, I pray) is a major piece of music for singers (soloists) of a choir and a symphony orchestra. They were usually written on dramatic and biblical subjects.

Vocal music is music in which the voice predominates, or is equal to the instruments, with accompaniment or a cappella.

Major genres are musical drama, oratorio, medium genres are cantata, vocal cycle, liturgy, choral concert, small ones are vocal miniature (song, romance). There

are also works in which the human voice is used as an orchestral paint (The Nutcracker by P. I. Tchaikovsky), in which the voice participates, accompanied by a melody.

The opera combines in a single theatrical action: solo vocal, vocal ensemble, choral, instrumental music (symphony orchestra), dramaturgy, fine arts (decoration, costume), choreography (ballet). All forms of vocal music are embodied in the opera (aria, arioso, song, monologue, recitative, duet, trio, quartet, grand finale with chorus).

### **References:**

1. Trigulova A. X. "Xorijiy musiqa adabiyoti", "ILM- ZIYO", 2009.
2. V. Vladimirov, A. Lagutin "Muzikalnaya literatura", -M., "Muzika", 1971.
3. Krasilnikova M. S. "Opera na urokax muziki v shkole v kontekste modernizatsii obshego obrazovaniya", Jurnal "Pedagogika isskustva", 2016.

## HISTORICAL DESCRIPTION OF THE PLACE AND STAGES OF DEVELOPMENT OF THE ART OF OPERA IN UZBEKISTAN

**Nurmuxamedov Beknazar Bahodir o‘g‘li**

Master of the State Conservatory of Uzbekistan

**Jo‘rayev Muhammadali Sherzodbek o‘g‘li**

Master of the State Conservatory of Uzbekistan

**Normuminova Gulmira Komiljonovna**

Teacher of Navoi State Pedagogical Institute

**Abstract:** *The place of opera art in Uzbekistan and the historical description of its development stages were covered by biographical information.*

**Keyword:** *Russian opera, composers, opera, recitative, libretto opera series, aria, french opera.*

The first Uzbek operas began to appear in the second half of the 1930s. These were the opera "The Storm" by S. Vasilenko and M. Ashrafiy and the operas "Layli and Majnun" by R. Gliyer and T. Sadikov. The opera "The Tempest" is a large work in five acts, and its content reflects the conflicts of the Uzbek people with the tsarist government that took place in Jizzakh in 1916. Even though the uprising was suppressed, the main goal of the work remains the aspirations of the Uzbek people for freedom.

Russian intellectuals have been living in Turkestan for many years and as a result of their interest in art, a Russian opera theater will be opened in Tashkent. One of the main reasons for the establishment of the opera theater was the tour (creative tour) of the Italian opera group in Tashkent in 1900. The Italians introduced operas

such as "Rigoletto", "Traviata", "Troubadour", "Carmen", "Payatsi", "Faust" to Russian intellectuals in Tashkent.

At the same time, Russian intellectuals laid the foundation for the establishment of the Russian opera theater by performing symphonic works of Western and Russian classical composers, excerpts from operas, symphonic suites in their concert programs. The first performances of the Opera Theater were "Rusalka" by Dargomijsky and "Eugene Onegin" by Tchaikovsky.

Due to the wide spread of the opera genre, Verdi's Rigoletto, Gouno's Faust, Rubenstein's Demon, Tchaikovsky's Pikovaya dama, Mussorgsky's Boris Godunov, Borodin's Prince Igor, Verdi's La Traviata, and Verdi's "Faust" were performed on the stage of the Russian Opera Theater. Aida, Puccini's "Bohemia", Rossini's "Sevilsky Serulnik" saw the stage. The artists of the Russian Opera Theater organized performances in the regions of Uzbekistan and began to promote the art of opera among the Uzbek people, and these services became the basis for the establishment of Uzbek operas.

During the 40s and 50s, several opera works were staged on the stage of the State Opera and Ballet Theater named after Alisher Navoi. His repertoire includes Russian and foreign operas and ballets, as well as works by composers of brotherly nations. D. Kabalevsky's "Taras Family", T. Khrennikov's "Boronda", G. Mayboroda's "Arsenal" and A. Kozlovsky's "Ulugbek" operas created in Uzbekistan are among them.

But the most important of the problems that were highlighted was the creation of national Uzbek operas and their staging. That is why several Uzbek national operas were created and performed on the theater stage during 1947-1967. Operas staged in previous years: "Great Canal" by S. Vasilenko and M. Ashrafiy, "Gulsara" by R. Gliyer and T. Sadikov, "Takhir and Zukhro" by T. Jalilov and B. Brovsin, " by G. Mushel and V. Uspenskyi" In addition to Farkhod and Shirin operas, newly created Uzbek national operas are gradually created in the opera genre of musical art and appear on the stage.

These are "Dilorom" by M. Ashrafi, "Song of Khorazm" by M. Yusupov, "Zaynab and Amon" by D. Zakirov, "Song of Khorazm" by T. Sodikov, B. Zeidman, Yu. Rajabi, D. Zakirov. "Heart of a Poet" by Ashrafi, "Zulmatdan Zia" by R. Hamroyev are works.

Among the works mentioned above, the opera "Dilorom" from the poem "Sa'bai Sayyor" by A. Navoi, dramatists K. Yashin and Mumtaz Muhammedov, and the services of composer M. Ashrafi in creating a modern work from Uzbek classical literature took a special place in Uzbek music culture. The opera "Dilorom" consisting of four acts and seven scenes will be performed on the stage of the State Opera and Ballet Theater named after A. Navoi. The events take place against the background of the ruthlessness of the king and the officials towards the people, the rebellion of the people against the oppression, and the struggle against the king Bahram and his associates who wanted to take Dilorom by force. Dilorom disobeys the cruel king and saves his honor and love by sacrificing his life.

### **References:**

1. Andrushenko Y.Y. "Sovremennaya opera pod znakom myuzikla: predposilki, istoki, tendensii", statya VAK, 2015.
2. Sharipov N. "Xorijiy musiqa adabiyoti", O'quv qo'llanma, – T., 2003.
3. V. Vladimirov, A. Lagutin "Muzikalnaya literatura", -M., "Muzika", 1971.

## MOBIL ILOVALAR YARATISH ZARURIYATI VA UNI TA'LIM TIZIMIDA O'RGATISH ZARURIYATI

**Mamatov Maxtumquli Jumanazarovich**

Termiz Davlat universiteti

Kompyuter tizimlari va ularning dasturiy ta'minoti 2 kurs magistranti

### **ANNOTATSIYA**

*Mobil ilova yaratuvchi dastur va platformalarni o'rganish va talabalarning ilovalar yaratish orqali kelajakda mobil ilovalar dasturchisi kasbi egasi bo'lishga tavsiyalar ishlab chiqish. Tahlil natijasida mobil ilovalarni ishlab chiquvchi dastur va saytlar yuqori bilim va daromad keltirilishi isbotlandi*

### **ANNOTATION**

*To study mobile application creation programs and platforms and develop recommendations for students to become mobile application developer profession in the future by creating applications. As a result of the analysis, it has been proven that mobile application development programs and sites bring high knowledge and income.*

**Kalit so'zlar:** *Android Studio, project, mobil ilova, turizm, geolokatsiya, AppMarket, Object, GPS.*

Yurtimizda IT sohasiga ko‘p e’tibor qaratilmoqda, ayniqsa ta’lim sohasidagi darsliklarning IT sohasi rivojlangan davlatlar tajribasi va o‘quvchi yoshlarning talab, istaklari inobatga olingan holda o‘zgartirilib sodda va qulay ko‘rinishga keltirilmoqda. Bu o‘zgarishlardan ko‘zlangan asosiy maqsad talaba yoshlar informatika fanlarini faqat o‘rganish bilan birga biron bir kasb egasi bo‘lishdir. O‘quv darsliklarning o‘zgarish jarayonida ko‘proq foydali mobil ilovalar yaratish dasturlarini ham kiritish ko‘plab mobil dasturchilarni yuzaga chiqaradi. Mobil ilovalar yaratish juda daromadli kasb hisoblanadi. Masalan, hozirda ko‘pchilik yoshlarning sevimli o‘yinlari yaratilib

ilovalar do‘koniga joylanmoqda va bundan foydalanuvchilarga katta foyda emas balki jismoniy, ma’naviy va iqtisodiy jihatdan kata zarar, ammo ilovani yaratgan inson uchun kata daromad manbai hisoblanadi.

Mobil ilova nima? Mobil ilovalar yaratishni o‘rganish nima uchun kerak? Bu kabi savollarga deyarli har kuni duch kelamiz. Mobil ilova bu android va boshqa mobil tizimlar uchun yaratilgan dasturlar to‘plamidir. Bu foydalanuvchilar uchun ko‘plab qulayliklar yaratadi.

Mobil ilovalar quyidagi dastur va saytlar yordamida yaratiladi:

- Android Studio – bu Google tomonidan yaratilgan dasturiy muhit. Dastur juda qulay bo‘lib turli xil testlar va diagnostika o‘tkazish imkonini beradi;
- RAD Studio – Berlin deb nomlangan RAD Studioning yangi versiyasi bo‘lib, bu platforma dasturlarini , uyali dasturlarni Object Pascal va C++ dasturlarini ishlab chiqish uchun to‘liq vosita hisoblanadi.
- AppsGeyser.com. Bu o‘z-o‘zidan yuqori sifatli Android ilovalarni yaratadigan sayt.
- AppsMakerstore – oddiy mobil ilovalarni yaratish uchun platforma.

Masalan biror bir inson o‘ziga kerakli ma’lumotlarni turli saytlar orqali olishga harakat qiladi ammo ayrim hollarda trafigi yo‘qligi, browserlardagi xato va kamchiliklar tufayli ma’lum bir saytlarga kira olmashi mumkin yoki vaqt kamligi bois muammolar paydo bo‘ladi. Hozirgi kunda biron bir dasturni yuklab olib kompyuter yoki mobil operatorlarga o‘rnatish biroz qiyin, sababi barcha dastur bitta joyda yig‘ilgan browser yoki sayt topish mushkul. Dastur yuklash va o‘rnatish uchun ko‘plab savollarga javob berish, ayrim dasturlar uchun pul o‘tkazish talab qilinishi, ro‘yxatdan o‘tishi, reklamalarga munosabat bildirish so‘raladi, shu tartibda ko‘p vaqt va anglashilmovchiliklar vujudga keladi, bunday hollarda mobil ilovalarning yordami kerak bo‘ladi. Mobil ilovalar orqali qidirish, topish va internetsiz foydalanish birmuncha oson amalga oshiriladi. Mobil ilovalarni qidirib toppishda App Store, Iphone App kabi mobil dasturlar jamlanmasi yaratilgan bo‘lib, bular orqali kerakli dasturlarni toppish qulaydir.

Mobil ilovalar yaratishda foydali sohalarni tanlash muhum hisoblanadi masalan tibbiyot sohasi, ta’lim sohasi, oyinlar yaratish yo‘nalishi yoki iqtisodiy sohalar. Iqtisodiy sohadagi ilovalar rivojlanishi va daromadi ko‘payib bormoqda, ayniqsa turizm sohasidagi mobil ilovalar nafaqat dastur yartuvchisiga balki mamlakat turizm salohiyatiga yuqori daromad keltirishi bilan ajralib turadi.

Rivojlangan mamlakatlarda barcha sohalarda mobil ilovalar yaratilgan bu sohalar rivoji uchun kata qulayliklar yaratib bermoqda. Birgina misol qilib turizm sohasi rivojlangan davlatlar (BAA, Fransiya, Buyuk Britaniya, Misr, Turkiya, Hindiston, Italiya, AQSH, Gretsya) da turizm salohiyatini oshirish uchun mobil ilovalarda samarali foydalilanadi. Nima uchun mobil ilova sayohat sanoati uchun shart? Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, sayohat va turizm sohasi daromad topishning eng yuqori tizimi hisoblanar ekan. Sayohat Sayohat bugungi kunda odamlarning dunyoviy hayotining ajralmas qismiga aylandi. Xuddi shunday, turizm asosiy daromad manbaiga aylandi. Internet mavjudlikning muhim jihatiga aylandi va hech qanday domen undan saqlanmaydi.

Qayerga sayohat qilishni qanday hal qilasiz?

Siz qayerda yo‘nalishlar izlayotgan?

Parvozlar va turar joylarda yaxshi narxlarni qanday topish mumkin?

Kelganingizdan so‘ng o‘zingizni qanday joyda topasiz?

Eng yaxshi sayohat dasturlari bu savollarning barchasiga javob beradi. Sayohat va turizm sanoati oldindan bron qilish madaniyati bilan rivojlanadi va bu aniq xizmat va yetarli ma’lumotlari mavjud bo‘lgan ilovalar talab qiladi.

To‘g‘ri, odamlar ularga yaqinlashmaydilar, hatto yaqinlashayotgan bo‘lsalar ham, ular tashrif buyurmoqchi bo‘lgan joy haqida juda yaxshi ma’lumotga ega. Turizm salohiyati rivojlangan davlatlarda yuqori sifatli mukammal tuzilgan mobil ilovalar mavjud. Misol uchun Airbnb-bu o‘z uylarini ijaraga olmoqchi bo‘lgan odamlarni o‘sha joyda turar joy izlayotgan odamlar bilan bog‘laydigan onlayn bozor ilovasi. Bu dunyoning 191 dan ortiq shahrlaridagi turistik hududlarni dunyoning turli qismlaridan kelishi mumkin bo‘lgan insonlarga xizmat ko‘rsatadi. Sayohat va turizm sanoati uchun eng yaxshi

sayohat ilovalaridan biri. Barcha yo‘llar va noma’lum joylarning yaqinroq xaritasini namoyish qiluvchi “Barcha yo‘llar” mobil ilovasi. Har bir sayyoh yoki tadqiqotchilar uchun telefonidagi barcha yo‘llar kerak bo‘lgan jarayonda bu ilova juda ko‘p yordam beradi. Ilova qo‘shma Shtatlar va Kanadadagi 75000 dan ortiq yo‘llarning yo‘nalishini, ushbu yo‘llardan yurish imkoniyatlari, xavfsizligi kami imkoniyatlarni yaratadi. Yo‘llarni toppish uchun eng asosiysi telefoningizda GPS yoqilgan bo‘lishi aniq joylashuvningizni kuzatish imkonini beradi.

“Culture Trip” mahalli madaniyatni bilish uchun eng yaxshi sayohat dasturi hisoblanadi. Bu dunyoning 300 dan ortiq joylarida, sayohhlik obyektlari joylashgan mobil ilova bo‘lib sayohat qiluvchilar va go‘zallik ishqibozlari uchun juda qo‘l keladi. Google Flights – parvozlarni bron qilish uchun eng yaxshi sayohat dasturi Ushbu ilovada sayohatlarni osongina rejalashtirish uchun sizga kerak bo‘lgan hamma narsa mayjud. Bu Sizning barcha sayohat, parvoz, mehmonxona va sayohat paketlari variantlarini baholashga yordam beradigan mustahkam ilovadir, bu ilovada yana bir bor narxlarni kafolatlash funktsiyasi bilan parvozlarni bron qilish uchun konvertatsiya qilish imkoniyatlari bor. Google sizning Google hisobingizga kirganingizda sayohat marshrutlarini ko‘rish imkonini beruvchi xususiyatni qo‘shdi. Qo‘shimcha funktsiyalarga mehmonxonalar, restoranlar va Googleni boradigan joyingizga qarab qilish uchun tavsiyalar kiradi.

Bu kabi ilovalar davlat turizm sohasidagi rivojlanishiga kata yordam beradi, chunki mobil ilovada sayohat qilish mumkin bo‘lgan joylar aniq qilib belgilab qo‘yilgan bo‘lib sayyoh mobil ilovani Play market yoki App store kabi ilova magazinlaridan yuklab oladi va mobil telefoniga o‘rnatadi natijada borishi mumkin bo‘lgan nuqtalar haqida ma’lumotlar va yo‘nalishlar olishi mumkin bo‘ladi.

### Hulosa

Hulosa qilib shuni aytish joizki, Rivojlanishni hohlagan har bir mamlakat va shaxs birinchi navbatda ta’limga, bilimga sarmoya kiritishi va uni nazorat qiloshi lozim, zero bilimga e’tibor berilsa bu albatta kelajakda o‘z saamarasini beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Turakulov I.N., Rashidov A., Rabimov N.R. Ma'lumotlar bazasining murojaatli modeli asosida virtual kutubxonaning web ilovasini yaratish texnologiyasi. Samarqand davlat universiteti 2018-yil, 3-son..//
2. Badalov Azamat. Web sahifadan Android ilova yaratish. Toshkent–2018. –35 b.
3. Tashmatov Sharaf O'roqboyevich Туризм соҳасини ривожлантиришнинг. Самарқанд иқтисодиёт 08.05.2000
- 4.. Михеев Р.Э. android studio как платформа разработки электронных билетов // Bangladesh Journal of Public Adminstration (BJPA). DOI: 10. – pp 35-39.

## EKOLOGIK TURIZM AMALIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA YASHIL MARKETING SAMARADORLIGI

**Axmedov Alisher Turayevich**

BuxDU Iqtisodiyot va turizm fakulteti

II bosqich magistranti

[alisher.axmedov.97@internet.ru](mailto:alisher.axmedov.97@internet.ru)

### **ANNOTATSIYA**

*Ekologik turizmda yashil marketing deganda sayyoohlarga tabiat bilan bog‘lanish imkonini beruvchi haqiqiy tajribalarni taqdim etish bilan birga atrof-muhitga minimal ta’sir ko‘rsatadigan barqaror turizm amaliyotini targ‘ib qilish tushuniladi. Ushbu maqolada ekologik turizm amaliyotini rivojlanirishda yashil marketing samaradorligining nazariy asoslari tahlil qilinadi.*

### **KALIT SO‘ZLAR**

*Ekologik turizm, marketing, yashil marketing, ekoturist, yashil marketing strategiyalari.*

### **KIRISH**

Ekologik turizmda yashil marketing deganda sayyoohlarga tabiat bilan bog‘lanish imkonini beruvchi haqiqiy tajribalarni taqdim etish bilan birga atrof-muhitga minimal ta’sir ko‘rsatadigan barqaror turizm amaliyotini targ‘ib qilish tushuniladi. Barqaror turizm amaliyotini targ‘ib qilish va mas’uliyatlari sayohatni rag‘batlantirish orqali ekologik turizmda yashil marketing tabiiy muhit va ekotizimlarni turizmning zararli ta’siridan himoya qilishga yordam beradi, shu bilan birga iqtisodiyot va mahalliy jamoalarni qo‘llab-quvvatlaydi.

Yashil marketing ekologik turizmni rivojlanirish uchun juda muhimdir, chunki yashil marketing zamonaviy marketingning muhim qismi hisoblangan sohadir[1]. va u

atrof-muhitga zararli bo‘limgan barqaror turizm amaliyotini rivojlantirishga yordam beradi. Ekologik turizm tabiiy muhitni, ekotizimlarni va madaniy meros ob’ektlarini saqlashga, shu bilan birga sayyoohlarga haqiqiy tajribalarni taqdim etishga qaratilgan. Shu sababli, yashil marketing turizmning tabiiy muhitga salbiy ta’sirini minimallashtiradigan barqaror turizm faoliyatini rivojlantirish uchun juda muhimdir. Bunga ekologik toza transport imkoniyatlarini targ‘ib qilish, chiqindilarni kamaytirish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish va mahalliy jamoalarni qo‘llab-quvvatlash kiradi.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Ekologik turizm amaliyotini rivojlantirishda yashil marketingning o‘rniga oid tadqiqotlar asosan xorij olimlari Madhumita Nayak[1], Alina-Cerasela Aluculesei[2],Daniel Avram[2], Puiu Nistoreanu[2], Sui he[3] tomonidan olib borilgan.

Alina-Cerasela Aluculesei[2],Daniel Avram[2], Puiu Nistoreanu [2] fikricha, barqarorlikka e’tibor bugungi kunda turizm sanoatining kalitidir. Yashil marketing doimiy ravishda mahalliy hokimiyat organlarining kun tartibida bo‘lib, ilmiy doiralar uchun ham qiziqish uyg‘ota boshladi, ammo Sharqiy Evropa mamlakatlarida, ayniqsa turizmni o‘rganishda unga juda kam murojaat qilindi.

Sui hening [3] fikricha, hozirgi vaqtida ekologik muhitni yaxshilash va yashil rivojlanish jamiyatning yangi kontseptsiyasi va yangi normasiga aylandi. Ekoturizm-bu turizmning yangi shakli va turizmni rivojlantirish rejimi bo‘lib, u nafaqat sayyoohlarning ekologiya, madaniyat va turizmga bo‘lgan ko‘p qirrali ehtiyojlarini qondira oladi, balki mintaqaviy iqtisodiyotning rivojlanishiga turtki beradi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Ekologik turizmda yashil marketing strategiyasi sayyoohlar uchun haqiqiy tajribalarni taqdim etish bilan birga atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytiradigan barqaror turizm amaliyotini targ‘ib qilishni o‘z ichiga oladi. Strategianing ba’zi asosiy elementlari:


1. Ta’lim va xabardorlik: ekologik turizmda yashil marketing sayyoohlar, turoperatorlar va mahalliy jamoalar o‘rtasida barqaror turizm amaliyoti to‘g‘risida ma’lumot berish va xabardorlikni oshirishni talab qiladi. Bunga atrof-muhitni muhofaza qilishni targ‘ib qiluvchi seminarlar, seminarlar va boshqa marketing kampaniyalari orqali erishish mumkin.

2. Barqaror turizm amaliyotini targ‘ib qilish: marketing strategiyasi ekologik toza transport imkoniyatlarini targ‘ib qilish, chiqindilarni kamaytirish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish va turizmning atrof-muhitga salbiy ta’sirini minimallashtirish uchun mahalliy jamoalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilishi kerak.

3. Haqiqiy tajribalar: yashil marketing strategiyasi sayyoohlar uchun tabiiy muhit, mahalliy madaniyatlar va meros ob’ektlariga e’tibor qaratadigan haqiqiy tajribalarni yaratishni qo‘llab-quvvatlashi kerak. Shunday qilib, sayyoohlar atrof-muhit bilan bog‘lanib, barqaror turizm amaliyotini qo‘llab-quvvatlashga intilishlari mumkin.

4. Hamkorlik: atrof-muhitni muhofaza qilishga yo‘naltirilgan mahalliy hokimiyat va tashkilotlar bilan hamkorlik marketing strategiyasining muhim qismidir. Ushbu hamkorlik barqaror turizm amaliyotini rivojlantirishga yordam beradi va tabiatni muhofaza qilish harakatlarini qo‘llab-quvvatlaydi.

5. Yashil sertifikatlardan foydalanish: yashil marketing strategiyasi, shuningdek, barqaror turizm mahsulotlari va xizmatlarini oddiylardan farqlashga yordam beradigan yashil sertifikatlar va eko-yorliqlardan foydalanishni o‘z ichiga olishi kerak. Ushbu sertifikatlardan foydalanish iste’molchilarning sotib olish qarorlariga ijobjiy ta’sir ko‘rsatishi va barqaror turizm amaliyotini targ‘ib qilishi mumkin.



(1-rasm GlobalwebIndex sayti maʼlumotlariga asosan ekologik turizmda ekoturistlarni yashil marketing orqali jalg qilishning yosh toifasi)

GlobalwebIndex sayti maʼlumotlariga asosan yashil marketing bugungi kunda ekologik turizmda ekoturistlarni jalg qilishda eng muhim omillardan biri boʻlib hisoblanadi. GlobalwebIndex sayti maʼlumotlariga asoslanadigan boʻlsak, bunda 16-21 yosh oraligʼidagi ekoturistlarni 58%ni, 22-35 yosh oraligʼidagi ekoturistlarni 61%, 36-54 yosh oraligʼidagi ekoturistlarni 55%ni va 55-64 yosh oraligʼidagi ekoturistlarni ekologik turizmda yashil marketing strategiyalari orqali jalg qilish mumkinligini koʻrishimiz mumkin (1 rasmga qarang).

Umumiyl qilib oladigan boʻlsak umumiyl sayyoohlarning 55%i aynan yashil marketing strategiyalari orqali ekologik turizmga jalg qilinib kelinmoqda. Oʻzbekistanda ekologik turizmning rivojlanishiga toʼsqinlik qiluvchi eng katta omillardan yana biri, bu mamlakatimizda ekologik turizmning potensial mijozlarinini jalg qilishda aynan yashil marketing strategiyalarning qoʼllanilmasligini koʼrsatishimiz mumkin. Chunki, Marcel Merr va Marija Hamning fikricha “Yashil marketing ekologik turizm faoliyatining muhim shartidir va ular oʼzaro bogʼliq boʻlib, yashil ,marketing va ekologik turizm oʼzaro taʼsirga ega”.[4]

Ekologik turizm va yashil marketing bir-biri bilan chambarchas bog‘liq, chunki ikkalasi ham barqaror amaliyotni targ‘ib qilish va turizmning atrof-muhitga ta’sirini kamaytirishga qaratilgan. Ekologik turizm ekologik mas’uliyatli va ijtimoiy ongli sayohatni anglatadi, yashil marketing esa iste’molchilarga ekologik toza mahsulotlar, xizmatlar va amaliyotlarni targ‘ib qilishni anglatadi.

Yashil marketing ekologik turizmning muhim tarkibiy qismidir, chunki u barqaror amaliyotni targ‘ib qilishga va ekologik jihatdan ongli sayyoohlarni jalb qilishga yordam beradi. Qayta tiklanadigan energiya, suvni tejash va chiqindilarni kamaytirish kabi barqaror amaliyotlarni targ‘ib qilish orqali yashil marketing turizmning atrof-muhitga ta’sirini minimallashtirishga yordam beradi. Bu, o‘z navbatida, mas’uliyatli sayohatni rag‘batlantirish va tabiiy resurslar va ekotizimlarni saqlashga yordam berish orqali ekologik turizmni rivojlantirishni qo’llab-quvvatlaydi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ekologik turizm va yashil marketing o‘rtasidagi bog‘liqlik barqaror turizm amaliyotini targ‘ib qilish, turizmning atrof-muhitga ta’sirini kamaytirish va ekologik turizm provayderlarining brend imidjini oshirish uchun juda muhimdir. Birgalikda ishlash orqali ekologik turizm va yashil marketing mas’uliyatli sayohatni qo’llab-quvvatlashga yordam beradi va tabiiy resurslar va ekotizimlarni saqlashga hissa qo’shamdi.

Bundan tashqari, yashil marketing barqarorlik va mas’uliyatli sayohatga sodiqligini namoyish etish orqali ekologik turizm provayderlarining brend imidjini oshirishga yordam beradi. Bu yangi mijozlarni jalb qilishi va mavjudlarini saqlab qolishi va shu bilan ekologik turizmning o‘sishini qo’llab-quvvatlashi mumkin.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Madhumita Nayak. GREEN MARKETING -THE CHANGING WAY OF MARKETING. Journal of Interdisciplinary Cycle Research 14(2) . August 2022
2. Alina-Cerasela Aluculesei ,Daniel Avram, Puiu Nistoreanu. Is Green Marketing a Label for Ecotourism? The Romanian Experience. The Best [Accounting Information System & Information Technology Business Enterprise] 11(8). August 2020.
3. Sui He. Sustainable Development Strategy of Ecotourism Marketing Based on New Media: A Case Study of Qinghai Tibet Plateau in China. Journal of Humanities and Social Sciences Studies. January 2023.
4. Marcel Merr, Marija Ham. GREEN MARKETING FOR GREEN TOURISM. Conference: 21th Biennial International Congress: Tourism & Hospitality Industry 2012: New Trends in Tourism and Hospitality Management. May 2012

**KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARDA O‘Z-O‘ZINI  
ANGLASHDA IJTIMOIYLASHUVNI O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**Asqarov Anvarjon Rahimjon o‘g‘li**

Farg‘ona davlat universiteti, o‘qituvchi

**Aminjonov Isomiddin Zaylobidin o‘g‘li**

Fardu psixologiya yo‘nalishi 2-kurs magistranti

***Annotatsiya:** Inson tug‘ilganidan boshlab umrining oxirigacha ijtimoiylashuv jarayonini boshdan kechiradi, ya’ni u hayoti davomida jamiyatga qo‘shilishi uchun unda mavjud bo‘lgan va shakllangan hatti-harakatlar, me’yorlar, qadriyatlar, madaniyat, din, tarbiya, bilim va malakalarni, urchodatlarni o‘ziga singdirib boradi va o‘zlashtiradi. Ijtimoiylashuv murakkab jarayon hisoblanadi va insonning butun umri davomida sodir bo‘ladi.*

***Kalit so‘zlar:** Shaxs, kichik maktab yoshi , ijtimoiylashuv, oila, qadriyat, o‘z-o‘zini anglash.*

**KIRISH:** Shaxsning ijtimoiylashuvida yaratilgan shart-sharoitlardan unumli foydalanish bir xil kechmaydi, chunki ularga ta’sir etuvchi qator omillar mavjudki, ularning qaysi sifatlaridan ibrat olishi bir qator omillarga bog‘liq. Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “....tariximizda o‘tgan ulug‘ zotlarning hayot yo‘li, qoldirgan merosini biryoqlamalikka berilmay, to‘g‘ri va haqqoniy aks ettirish darkor. Toki ular yoshlar uchun tom ma’noda ibrat namunasi bo‘lsin”<sup>1</sup>. Ana shu ibratni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish uchun shaxs xususiyatlarini zamon talablari hamda milliy an‘analar bilan hamkorlikda o‘rganib, tegishli ijtimoiy-psixologik, pedagogik tadbirlarni belgilab olish zarur bo‘ladi.

So‘nggi paytlarda shaxs ijtimoiylashuvining psixologik-pedagogik qonuniyatlarini o‘rganish va ularga ta’sir etuvchi omillarni, psixologik xususiyatlarini aniqlash bilan bog‘liq bir qator ilmiy-amaliy tadqiqotlar bajarildi. Mazkur tadqiqotlar bola shaxsining rivojlanishi va uning faoliyati muvaffaqiyatini belgilovchi omillar sifatida ta’lim, tarbiya xususiyatlarini aniqlashga hamda o‘rganishga bag‘ishlangan. Biroq, shuni ta’kidlab o‘tish joizki, ota-onalari ibrati, oila-a’zolari, qarindoshlar, o‘qituvchilar ibrati, ijobiy ta’sir ko‘rsatish orqali uning samarali ijtimoiylashuvini ta’minlaydi. Bu omillarning shaxsga nisbatan ta’siri, shuningdek, shaxs bo‘lib shakllanishiga sabab bo‘luvchi omillarni ko‘rshimiz mumkin.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Shaxs, uning dunyoni bilish, o‘zini va atrofidagi insoniy munosabatlarni bilish, tushunishi va o‘zaro munosabatlar jarayonida o‘zidagi takrorlanmas individuallilikni namoyon qilishi hamda ushbu jarayonlarning yoshga va jinsga bog‘liq ayrim jihatlarini taxlil qilish bizga umumiylashtirishda shaxs-jamiyatda yashaydigan ijtimoiy mavjudotdir, degan xulosani qaytarishga imkon beradi. Ya’ni, u tug‘ilgan onidan boshlab o‘ziga o‘xshash insonlar qurshovida bo‘ladi va uning butun ruhiy potensiali ana shu ijtimoiy muhitda namoyon bo‘ladi. Chunki agar insonning ontogenetik taraqqiyoti tarixiga e’tibor beradigan bo‘lsak, xali gapirmay turib, odam bolasi o‘ziga o‘xshash mavjudotlar davrasiga tushadi va keyingina ijtimoiy muloqotning barcha ko‘rinishlarining faol obyekti va subyektiga aylanadi. Demak, ijtimoiylashuv yoki ijtimoiylashuv — inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot — faoliyat jarayonida uni faol tarzda o‘zlashtirish jarayonidir. Sodda til bilan aytganda, ijtimoiylashuv — har bir shaxsning jamiyatga qo‘silishi, uning normalari, talablari, kutishlari va ta’sirini qabul qilgan xolda, har bir harakati va muomalasida uni ko‘rsatishi va kerak bo‘lsa, shu ijtimoiy tajribasi bilan o‘z navbatida o‘zgalarga ta’sirini o‘tkaza olishi jarayonidir.

Shaxs ijtimoiylashuvi yoki shakllanishnning o‘z sohasi, bosqichlari va muassasalari mavjud.

Shaxsning shakllanishi asosan uch sohada amalga oshiriladi:

1) faoliyat sohasi, ya’ni umri mobaynida shaxs turli faoliyatlarga bevosita yoki bilvosita jalgan etilgan bo‘lib, bu jarayonda faoliyatlar katalogi kengayib, boyib boraveradi. Har bir faoliyat turi individdan maxsus fazilatlarni, malaka va ko‘nikmalarni, bilimlarni talab etadiki, ularni qoniqtirish yo‘lidagi faolligi unda o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlar kompleksini shakllantiradi;

2) muloqot sohasi, ayniqsa maktabgacha yosh davrdagi va kichik maktab yoshi davrlaridagi muloqot tizimlari bolada bir qancha ijtimoiy-psixologik xislatlarni paydo qiladiki, buning natijasida u faol hayotiy mavkega ega bo‘ladi, jamiyatda o‘z o‘rnini tasavvur qilishga erishadi.

3) o‘z-o‘zini anglash sohasi, ya’ni „Men“ obrazining yil sayin o‘zgarib borishi jarayoni bo‘lib, avval o‘zini boshqalardan farqlilagini, o‘zicha mustaqil harakat qilish, mustaqil fikr yurita olish qobiliyatini anglash, so‘ngra esa, o‘z-o‘zini baholash, anglash, nazorat qilish-xususiyatlari rivojlanadiki, ular ham faol shaxs psixologiyasining tarkibii qismidir.

Shaxs ijtimoiylashuvi, yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek bola tug‘ilishi bilan boshlansa-da, sezilarlik samaradorlik nuqtai nazaridan uning bosqichlari farklanadi. Masalan. birinchi bosqich—mexnat faoliyatigacha bo‘lgan bosqich bo‘lib, unga bolaning maktabgacha davri hamda kichik maktab yosh davri yillari kiradi. Bu davrdagi ijtimoiylashuvning ahamiyati va o‘ziga xosligi shundaki, bu davrda asosan tashqi ijtimoiy muhit, ijtimoiy ta’sirlar faol ravishda ongga singdiriladi, mustaqil hayotga tayyorgarlik borasida muhim bosqich o‘tiladi.

**ADABIYOTLAR:**

1. Rahimjon o‘g‘li, A. A. (2022). MAK TABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MANTIQIY TAFAKKUR RIVOJLANISHINING IJTIMOIY PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI. SO ‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 1(2), 116–119.
2. Asqarov Anvarjon Rahimjon o‘g‘li. (2022). MAK TABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING AQLIY TARAQQIYOTINING RIVOJLANISHIDA O‘YIN RIVOJLANTIRUVCHI FAOLIYAT SIFATIDA. Uzbek Scholar Journal, 5, 207–209.
3. Askarov, A. (2022). CREATIVE THINKING IN PRESCHOOL SOCIAL PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF DEVELOPMENT. Science and innovation, 1(B8), 87-91.
4. Asqarov, A. (2022). MAK TABGACHA YOSH DAVRDA KREATIV TAFAKKURNI RIVOJLANISHINING IJTIMOIY PSIXOLOGIK ASPEKTLARI. Eurasian Journal of Academic Research, 2(6), 882-883.
5. O‘G‘Li, A. A. R. (2022). XOTIRANI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS USULLARI. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1(6).
6. Rahimjon o‘g‘li A. A. MAK TABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MANTIQIY TAFAKKUR RIVOJLANISHINING IJTIMOIY PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI //SO ‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI. – 2022. – T. 5. – №. 2. – C. 116-119.
7. Rahimjon o‘g‘li, Asqarov Anvarjon. "MAK TABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MANTIQIY TAFAKKUR RIVOJLANISHINING IJTIMOIY PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI." SO ‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI 5.2 (2022): 116-119.
8. Rahimjon o‘g‘li, A. A., & Adxam o‘g‘li, X. A. (2023). INKLYUZIV TA’LIM OLAYOTGAN BOLALARNI TAFAKKUR SOHASINI O‘RGANISH.

9. Xomidov , A. A. o‘g‘li, & Asqarov A. R. o. (2023). INKLYUZIV TA’LIM OLAYOTGAN BOLALARNI TAFAKKUR SOHASINI O‘RGANISH. *GOLDEN BRAIN*, 1(11), 299–302.
10. Xomidov , A. A. o‘g‘li, & Asqarov A. R. o. (2023). INKLYUZIV TA’LIM OLAYOTGAN BOLALARNI TAFAKKUR SOHASINI O‘RGANISH. *GOLDEN BRAIN*, 1(11), 299–302. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/3178>
11. Mirzaboyev, Y. (2023). FEATURES OF A COMPETENCY APPROACH TO THE IMPLEMENTATION OF THE NATIONAL CURRICULUM IN PRACTICE. *Science and innovation*, 2(B4), 63-67.
12. Irgashevich, D. M., & Azadovna, S. G. (2022). FORMATION OF A GENERAL APPROACH TO SOLVING PROBLEMS FOR PRIMARY EDUCATION ACCORDING TO THE REQUIREMENTS IN THE NATIONAL CURRICULUM OF UZBEKISTAN. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(6), 771-781.
13. MIRZABOYEV, Y. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING MATEMATIKA O ‘QITISH METODIKASI. O ‘RTA UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA O ‘QITISHNING MAQSADI. *ЭКОНОМИКА*, 169-172.
14. Мирзабоев, Й. А. (2022). Тур Ўзгариш Чизиқлари Учта Бўлган, Гиперболик Қисмларининг Ҳаммаси Характеристик Учбуручаклардан Иборат Бўлган Бешбуручакли Соҳада Учинчи Тартибли Кўринишдаги Параболик-Гиперболик Тенглама Учун Битта Чегаравий Масала Ҳақида. *Theory And Analytical Aspects Of Recent Research*, 1(5), 363-366.
15. Ra’noxon, S. (2022). BOSHLANG‘ICH MAKTAB O‘QUVCHILARIDA MATEMATIKAGA MUNOSABAT. *IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 203-207.

## GENRE TRANSFORMATION OF THE FAIRY TALE IN THE MODERN AMERICAN NOVEL

**Zokirjonova Madina**

Namangan State University

A student of Master's degree

[madinahonzakirhanova@gmail.com](mailto:madinahonzakirhanova@gmail.com)

**Abstract:** This article analyzes the genre transformation of the fairy tale in the modern American novel. Reference to the past form of the fairy tale genre which is very relevant for the American novel at the turn of the century. This is primarily due to the existence of cultural belief, because in the modern situation semantic boundaries become an important factor of the authors' constant interest in this genre transformation. The appeal of modern American writers to the fairy tale genre and adapting to the present literature is also determined by the tradition of using it in American literature to generalize and understand the problems of modern reality.

**Keywords:** genre transformation, fairy tale, contemporary culture, modern American novel, *Song of Solomon*, *Flying Africans*.

## ЖАНРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ СКАЗКИ В СОВРЕМЕННОМ АМЕРИКАНСКОМ РОМАНЕ

**Аннотация:** В данной статье анализируется жанровая трансформация волшебной сказки в современном американском романе. Отсылка к прошлой форме жанра сказки, которая очень актуальна для американского романа на рубеже веков. Это связано, прежде всего, с наличием культурной веры, поскольку в современной ситуации смысловые границы становятся важным фактором постоянной заинтересованности авторов в трансформации этого

жанра. Обращение современных американских писателей к жанру сказки и адаптация к современной литературе определяется и традицией использования его в американской литературе для обобщения и осмысливания проблем современной действительности.

**Ключевые слова:** жанровая трансформация, сказка, современная культура, современный американский роман, «Песнь Соломона», «Летающие африканцы».

## ZAMONAVIY AMERIKA ROMANDA ERTAKNING JANR TRANSFORMATSIYASI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy Amerika romanida ertakning janr o‘zgarishi tahlil qilinadi. Asr boshidagi Amerika romani uchun juda dolzarb bo‘lgan ertak janrining o‘tmishdagi shakliga havola. Bu, birinchi navbatda, madaniy e’tiqodning mavjudligi bilan bog‘liq, chunki zamonaviy sharoitda semantik chegaralar mualliflarning ushbu janrni o‘zgartirishga doimiy qiziqishining muhim omiliga aylanadi. Zamonaviy amerikalik yozuvchilarning ertak janriga murojaat qilishlari va hozirgi adabiyotga moslashishlari Amerika adabiyotida zamonaviy voqelik muammolarini umumlashtirish va tushunish uchun foydalanish an’analari bilan ham belgilanadi.

**Kalit so‘zlar:** janr o‘zgarishi, ertak, zamonaviy madaniyat, zamonaviy Amerika romani, Sulaymon qo‘sиг‘и, Uchib ketayotgan afrikaliklar.

Today’s literature is different from the yesterday’s one, that is because time changed, people changed, and somewhat traditions and cultures changed and now they are relatively different from old ones. In turn, literature is also affected by them all. As the world is developing, people are now moving to the side which they have never been before. Today’s writers are also creating works which this world has never seen before, of course by using past works. Genre transformtion is something like this.

Generally, genre transformation is about changing events, or characters, or plots of a work that was written before, with one word, renewing of a piece of work. Today's American writers are very creative and never afraid of renewing old novels, fairy-tales, poems and etc. And, question arises, why are writers, nowadays, addressing to the past and want to change it? There are a great many of reasons for that. The first reason might be attracting people of today to the works which seem very old-fashioned and boring as they are repeated very frequently. Adapting those works to the today's culture and day of life would be very interesting and unique. For example, old fairy-tales' scenes represents the time which those fairy-tales appeared. Such as, "Snow White", "Rapunzel", "Sleeping Beauty", "Cindrella", and "Beauty and the Beast" shows the time in which kings and queens lived. Keeping these fairy-tales characters and some plots, writers are creating wonderful pieces of works. A new version of an older story. Sometimes, a fairy tale or myth may be reimagined with a modernized setting or retold from a minor character's perspective.

If the writer feels free to create new works, then, they achieve a great deal of improvement. They are usually inspired from different things, such as culture. Contemporary culture development tends to play an important role in changing of formal structure of works, renewal of meaning and style. Contemporary culture is multi-dimensional, contradictory, multi-lingual in its essence. Its impact has caused new genre forms and variations. Contemporary novel is characterized by flexibility. It combines variability and traditional character. This feature of novel manifests itself in its capability to transfer the logic of historical changes undergoing in society, that is so typical for contemporary writers.

Genre mixture causes addition of new elements and methods that are realized at the level of narration. Main reasons of this phenomenon are firstly trends of historical and cultural development of today's society that cause the necessity of search for new artistic forms, secondly means of communication that have significantly broaden possibilities and horizon of writers, thirdly demand for changes in plot organization, strengthening of intrigue, deepening of life situations and collisions. Collapsing of

social time and space is typical for novels of contemporary writers. Specifics of development of today society, historical and personal destinies of people, moral and ethical categories, universal and eternal problems of being are comprehended in works of writers.

Once created, the taste for transformations has proved a lasting one. In 1993 Ellen Datlow and Terri Windling, already well-known as anthologists in the area of fantasy and horror-story, brought out a collection of twenty modern rewritings of fairy tale, "Snow White", "Blood Red". This has been followed by five further collections with similar titles between 1994 and 2000, as well as a children's collection, "A Wolf at the Door", comparable to the Victorian "fairy-book" series of Andrew Lang. The tales brought together by Datlow and Windling on the whole reinforce the conclusions. Many authors represented of course all aim at originality, and frequently achieve it; but there is a sense that they are operating within the boundaries of what is now a familiar genre. The core-group of stories continues to figure prominently, with eight of the twenty items in "Snow White", "Blood Red". Motifs and methods reappear. "Goldilocks and the Three Bears" is rewritten satirically as a child-abuse story in Scott Bradfield's "Goldilocks Tells All", in Black Heart, Ivory Bones. The same theme is picked up more seriously and menacingly in Wendy Wheeler's "Little Red", in the 1993 collection: this time it is Little Red Riding Hood who has the big eyes, and the big ears, for her stalking stepfather. In Black Thorn, White Rose Peter Straub creates another academically-oriented "Ashputtle". Tanith Lee has developed a technique of crossing one story with another, thus recognising their intrinsic connections: "Snowdrop", in the 1993 collection, fuses "Snow White" with "Bluebeard", while "The Beast", in the 1995 collection Ruby Slippers, Golden Tears, has a Bluebeard figure dying not at the hands of vengeful relatives, but because Beauty refuses to come back to him. Particularly frequent in the Datlow and Windling anthologies are rewritings of both "Rapunzel" and "The Frog Prince", with different-viewpoint stories of the kind that Atwood's Sally is asked to write prominent among them.

Common to all the above is the strong concern with sex- and gender-issues, the most striking feature of literary fairy tale in the post-Bettelheim and post-Carter era. It is not surprising, however, that another postmodern issue has begun to appear, through attention to the self-reflexive quality of narrative. This is not absent from the Datlow and Windling collections, but features more prominently in the writings of authors established outside the field of fantasy.

## REFERENCES

1. Farmer, Philip José, *Strange Relations* (Ballantine: New York, 1960)
2. Galloway, Priscilla, *Truly Grim Tales* (Delacorte: New York, 1995)
3. Garner, James Finn, *Politically Correct Bedtime Stories* (Simon and Schuster: New York, 1994)
4. Gilbert, Sandra M., and Gubar, Susan, *The Mad Woman in the Attic: the Woman Writer and the Nineteenth Century Imagination* (Yale UP: New Haven, 1979)
5. Husain, Shahrukh, *Women who Wear the Breeches: Delicious and Dangerous Tales* (Virago: London, 1995)
6. Jones, Diana Wynne, *Fire and Hemlock* (Methuen: London, 1985)
7. Koltenschlag, Madonna, *Kiss Sleeping Beauty Goodbye: Breaking the Spell of Feminine Myths and Models* (Doubleday: New York, 1979)
8. Kushner, Ellen, *Thomas the Rhymer* (Gollancz: London, 1991)
9. Lee, Tanith, *Red as Blood, or Tales from the Sisters Grimmer* (DAW: New York, 1983)
10. Lieberman, Marcia K., "'Some Day My Prince Will Come': Female Acculturation through the Fairy Tale", *College English* 34 (1972), 383-95, repr. in Zipes 1986 below, 185-200
11. Donoghue, Emma, *Kissing the Witch: Old Tales in New Skins* (Hamish Hamilton: London, 1997)
12. Dowling, Colette, *The Cinderella Complex: Women's Hidden Fear of Independence* (Pocket Books: New York, 1981).

**ҚАЗАҚТЫҢ ҮШ БӘЙТЕРЕГІНІҢ БІРІ, ҚАЗАҚ ПОЭЗИЯСЫНЫҢ  
ҚҰЛАГЕРІ-ИЛИЯС ЖАНСУГІРОВТІҢ ӨНЕР ТАҚЫРЫБЫНА АРНАП  
ЖАЗҒАН ҚҰЛАГЕР ПОЭМАСЫ**

**Миралиева Диана Нұрмұхан қызы**

Шыршық мемлекеттік педагогикалық университеті

Қазақ тілі және әдебиеті бағытының 1-курс студенті

E-mail: [diananurmuhan2@gmail.com](mailto:diananurmuhan2@gmail.com)

**Ғылыми жетекшісі: Байзаков Жандос Абдазимович (PhD)**

Шыршық мемлекеттік педагогикалық университеті

**Аннотация:** Қазақтың ақын жазушысы, қоғам қайраткері әрі аса талантты суреткер, драмашы, прозашы, кемеңгер тұлға-Илияс Жансугировтің өмірін, балалық шағын, жанұясын, достары жайлы, өз өмірін баяндайтын шығырмаларынан пайдалана отырып, мәліметтер беріледі. Сонымен қатар, ақынның заты өлседе атын өлмейтіндей еткен, қаламынан тамған мол мұрасы, соның ішінде өнер тақырыбына арнап жазылған «Құлагер» поэмасы жайында сөз өрбиді.

**Кілт сөздер:** Поэзия, проза, талантты суреткер, қоғам қайраткері, мол мұра, өнер тақырыбы, Қысқаша өмірбаяным.

**DEDICATED TO THE ART THEME OF ILYAS ZHANSUGIROV, ONE OF  
THE THREE KAZAKH PATERS, CULATOR OF KAZAKH POETRY A  
POEM WRITTEN BY KULAGER**

**Abstract:** Kazakh poet, writer, public figure and very talented The artist, dramatist, prose writer, tulga Iliyas Zhansugirov will be given information about his

*family, friends, and his life adventures. At the same time, the poet has a rich legacy that has immortalized his name. You are interested in the poem "Kulager" written for the artist's book in the newspaper.*

**Key words:** Poetry, prose, talented artist, public figure, artistic theme. My short biography.



*Жастық-алтын, жағдайың жазғы салқын,  
Жастық-жалқық, жсан жанса, емес алтын.  
Жастық-жасық, жаңырлық жай болмаса,  
Жастық-қорлық, білімсіз қара қарқын.*

**Кіріспе бөлім:** Илияс Жансүгіров қазақ әдебиетіндегі барлық жарнда қалам тербел, ереулі еңбектер жазған, өшпес із қалдырган, талант, дарын иесі. Әсіресе, ол поэзия жанрында көп еңбек етіп, көптеген ерекше туфндыларды жазып қалдырып, бүкіл қазақ халқына танылды. Сол себептіде, Қазақстан Республикасында бірнеше мектеп, көше, аудан, шаруашылық, Талдықорған қаласындағы Жетісу мемлекеттік педагогикалық университетіне ақақынн есімі беріліп, сол қалада ақынның өмірі мен шығармашылыған арнап әдеби мемориалдық мұражай ашылған. Жәнеде, 2019 жылы қазақ халқа өзінің бір туар азаматының 125 жылдық мерей тойын өте жоғары дәрежеде атап өтті.

**Негізгі бөлім:** Илияс Жансүгіров 1894 жыл 14 мамырда Алматы облысы, Ақсу ауданында дүниеге келген. Ақынның өз естеліктерінің бірене қарасақ ақын анасынан төрт жасында қалып, әкесі Жансүгірдің қолында қалыпты. Әкесі шамалы дәулетті, ескіше білімі бар, діннен хабары бар, он саусағынан өнер

тамған адам болған дейді. Илияс Орта жүздін, Найман тапасының, Матай руынан шыққан. Алғашында өз әкесінен, ауыл молдаларынан ескіше хат таныған. Онан соң, Қарағаш ауылында жәдитше бастауыш мектепте оқиды. Әрі қарай, ол өзінің білімін Ташкент қаласындағы екі жылдық мұғалімдік курста оқып шындаиды. Осы қалпымен қазақ әдебитінің қатпарлы кезеңдеріне кез келіп, өз шығарма, туындыларын жазып бастайды. Ол өзінің алғашқы енбектерін «Еңбекші қазақ», «Сарыарқа», «Сана» секілді газет жүрналдарда басылып шықты. Ақынның алғаш еңбек жолы «Тілші» газетінде қызмет етуінен басталды. Осы бағытпен 1920 жылдан 1936 жылға яғни құғын-сүргін жұмыстары басталуға дейін өз еліне адад еңбек етті.

**Талдау:** Илия Жансүгіровты әдебиет шыңына көтерген туындыларының бірі «Құлагер» поэмасы. Өнер тақырыбында жазылған бұл туынды ққөтергенәйгілі өнерпазы, ардақты тұлғасы Ақан серіге арнап жазылған. Ақан сері жиырманшығасырдағы халқының елеулі азаматы, қоғам қайраткері, дарынды ақын жазушы. Өз кезеңіндегі әлеуметтік мәселелерді өз өнерімен көрсете білген. Осылай Ақан серінің оқырман қауымға жағымды тұлға ретінде танылуы, бұл ақынның арқасында. Өйткені ақын ең алдымен Ақан серіні суреттеуде барын салып, жанрдан аспай мінездемесін жаратады. Ал поэмалың құрылышынан келер болсақ, поэма тілі төтенше. Ақынның шеберлігін осыдан да байқаймыз, поэмадағы ерекше күйге бөлейтін, әдемі картиналар, оқырманды бірден баулап аларлық, шындықтан туған көркем бейнелер бар. Сол себептіде «Құлагер» поэмасы шын мәнінде «сұлу сарай» Илияс Жансүгіровтің шығармашылығының биік шыңы.

### Пайдаланылған әдебиеттер тізімі(References)

1. Қазақ әдебиеті. Энциклопедиялық анықтамалық. Алматы қаласы, «Аруна» баспасы 2010 жыл.
2. Илияс Жансүгіров атындағы Жетісу мемлекеттік педагогикалық университеті Әдеби мұрасы.
3. Илияс Жансүгіров Энциклопедия Алматы қаласы, «Кітап» баспасы, 2019 жыл.

UDK: 17.022.1:008-053.81(575.1)

## MADANIYAT TUSHUNCHASI VA UNING QONUNLARIMIZDA MUSTAHKAMLANISHI

**Arziqulov Elboy Azim o‘g‘li**

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi

<https://orcid.org/0009-0002-3543-9438>

e-mail: [earziqulov94@gmail.com](mailto:earziqulov94@gmail.com)

*Annotatsiya: ushbu maqolamida madaniyat tushunchasi, uning shakllanish bosqichlari, jamiyat hayotida tutgan o‘rni shuningdek, Yangi O‘zbekiston sharoitida madaniyat va ma’rifat sohasini yanada rivojlantirish va ularni huquqqiy jihatdan muhofaza qilish borasida qonchunchilik normalarida mustahkamlanishi haqida atroflicha fikrlar keltirib o‘tilgan.*

*Kalit so‘zlar, madaniyat, millat, kultura, ma’naviyat, tarix, jamiyat, qonun, ta’lim, tarbiya, sivilizatsiya.*

## ПОНЯТИЕ КУЛЬТУРЫ И ЕЕ УКРЕПЛЕНИЕ В НАШИХ ЗАКОНАХ

*Резюме: в данной статье рассматривается понятие культуры, этапы ее становления, ее роль в жизни общества, а также дальнейшее развитие сферы культуры и просвещения в условиях Нового Узбекистана, ее закрепление в нормах предоставается правовая защита.*

*Ключевые слова: культура, нация, культура, духовность, история, общество, право, образование, воспитание, цивилизация.*

## THE CONCEPT OF CULTURE AND ITS REINFORCEMENT IN OUR LAWS

**ABSTRACT:** *in this article, the concept of culture, the stages of its formation, its role in the life of society, as well as the further development of the sphere of culture and enlightenment in the conditions of New Uzbekistan, and its strengthening in the norms of legal protection are given.*

**Key words:** *culture, nation, culture, spirituality, history, society, law, education, upbringing, civilization.*

### KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Madaniyat - ajdodlar tafakkuri, bilimlari, ijodi va atrof-muhitga bo‘lgan munosabatining mahsuli bo‘lib, ming yillar davomida yaratilgan tajribalarni o‘ziga singdirib, takomillashib borganligi, madaniyat rivojlanishi bilan millat va uning ma’naviy qiyofasi ham shakllanishi kabi masalalar tahlil etilgan. Madaniyat ijtimoiy hayotning tarkibiy va funksional jabhalarida ifodalanadi. Shu jihatdan jamiyat madaniyatni vujudga keltiradi. Jamiyatda vujudga kelgan madaniyat qanchalik murakkablashib boyib borsa, uning insonga va jamiyatga ta’siri mukammallahib hamda nisbiy mustaqilligi kuchayib boradi. Masalan, antik jamiyat allaqachon tarixga aylangan bo‘lsada, uning madaniyati hozirgi kunda o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Yoki, biz bu davr madaniyatini o‘sha vaqt dagiga nisbatan ko‘proq bilamiz. Shuning uchun madaniyatga jamiyatning mahsuli, faoliyat uslubi sifatida qaralsada, har bir jamiyatni u yoki bu konkret madaniyatning shakllanish manbai tarzida ham qarash mumkin.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI VA METODOLOGIYA. (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS)

Madaniyat haqidagi eng muhim ma’lumotlar xalqimizning qadimiyligi yodgorligi Avesto kitobi hamda antik davr mutafakkirlari asarlarida uchraydi. Sharq Uyg‘onish

davri allomalari Beruniy, Forobiy, Ibn Sino ilmiy merosida ham madaniyat, uning inson hayotida tutgan o‘rni masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, “Islom falsafasining asoschisi Abu Nasr Farobi: “Insonning kasb-hunar va san’atdagi fazilatlariga kelsak, bu fazilat tug‘ma emasdir”, deb ta’kidlagan. Mazkur fazilatlar ta’lim va tarbiya orqali shakllantiriladi. “Ta’lim degan so‘z xalqlar va shaharliklar o‘rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o‘rtasidagi tug‘ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so‘zdir” [1. Abu Nasr Farobi. Fozil odamlar shahri. -Toshkent: Yangi asr avlod 2018, -184 b.]. Demak, xalqlar va shaharliklar fazilatlari ta’lim va tarbiya orqali, ya’ni ular hamjihat bo‘lib yaratgan tartiblar, vositalar orqali madaniy makonni barpo etadilar. Madaniyat haqidagi fikrlar insonning paydo bo‘lishi bilan bir vaqtida, ya’ni oddiy tosh qurollardan foydalanib ov qilish, o‘lja va mevalarni terib iste’mol qilish, ilk dehqonchilik bilan shug‘ullangan va ilk shahar madaniyatini vujudga keltirgan davrlardayoq paydo bo‘lmagan. Madaniyat tushunchasi dastlab atama sifatida vujudga kelgani bilan hali jamiyatning moddiy va ijtimoiy hayotini, odamning ongli mavjudot sifatidagi insoniylik qiyofasini anglatmas edi. Inson bunyodkorlik faoliyatining jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini anglab yetish, inson qiyofasini shakllantirish, ya’ni uning ongi va tafakkuriga ta’sir etish orqali jamiyat manfaatlariga mos keladigan insonni shakllantirish zaruriyati paydo bo‘lgan davrlarga kelib, “madaniyat” va “kultura” atamalarining mazmun-mohiyati o‘zgaradi. Agar “madaniyat” va “kultura” atamalarining qo’llanish tarixiga e’tibor bersak, “madaniyat” arabcha “madina” so‘zidan olinganligi va “shahar” degan ma’noni anglatishini ko‘ramiz. “Kultura” so‘zi esa, lotinchadan olingan bo‘lib, “ishlov berish, parvarishlash” ya’ni tuproqqa va yerga ishlov berish”[2. Qoraboyev U. O‘zbekiston Madaniyati. Tafakkur bo‘stoni. – Toshkent, 2011. -3 b<sup>1</sup>] kabi ma’nolarni anglatgan.

## NATIJALAR. (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).

Hozirgi davrda sivilizatsiyalar va madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning rivojlanishi, kengayib borishi va ularning turli shakllarda namoyon bo‘lishi bu hodisani yanada dolzarb mavzuga aylantirdi. Bir tomonidan Sharq

sivilizatsiyasi va ikkinchi tomondan G‘arb sivilizatsiyasi dunyoda o‘z ta’sirini kuchaytirish maqsadida tinmay turli yo‘llar bilan harakat qilmoqda. Shu sababli ham sivilizatsiyalarning dinamikasi, ijtimoiy taraqqiyot, jamiyatning evolyusion taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lgan tadqiqotlar ham sivilizatsiya hodisasini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni yanada oshirdi. Bugungi kunda ilmiy adabiyotlarda madaniyat tushunchasiga berilgan ta’riflarning aksariyati mazmunan bir-biriga yaqin. Ayrim manbalarda “madaniyat” lotincha “kultura” so‘zidan olingan bo‘lib, ta’lim-tarbiya, shu jumladan, “yerga dastlabki ishlov berish”, ayrimlarida esa “madaniyat” – arabcha “madina” shaharlik degan ma’nolarni anglatadi”[3.Хоруженко К.М. Культурология-энциклопедический словарь. Ростов Дон: Феникс. 1997; Бекмуродов М. ва бошқалар. Социология. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002], - deb yozilgan. Madaniyat arabcha “madina” so‘ziga “iyat” so‘z yashovchi qo‘sishchasing qo‘shilishidan hosil bo‘lgan atama bo‘lib, o‘zbek tilida bu so‘z “shaharga oid” ma’nosini anglatishiga ko‘ra madaniyatning mazmun va mohiyatida ilm-fan, ma’rifat rivojiga xos tushunchalar dastavval odamlarning shahar turmush tarzida taraqqiy eta borganligiga ishora qiladi. Jahondagi juda ko‘p xalqlar madaniyat tushunchasini yunon tilidan qabul qilingan “Kultura” atamasi bilan izohlab kelayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Bizningcha, madaniyat inson ongli faoliyatining, aqliy salohiyati, ichki kechinmasi, dunyoviy tushunchalarining mahsulidir.

### **MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).**

Madaniyat va ma’naviyat sohasining qonunlarimizda mustahkamlanishini quyidagilarda ko‘rishimiz mumkin. Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi yo‘nalishlarida ham o‘z aksini topgan.[4. <https://lex.uz/> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-yanvardagi PF60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida], 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-son “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[5. <https://lex.uz/> 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-son

“O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloq qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida], 2021-yil 26-martdagি PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[6. <https://lex.uz/> 2021 yil 26-martdagи PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.], Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 11-martdagи 132-son “Yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”[7. <https://lex.uz/> Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 11-martdagи 132-son “Yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida] gi qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosini hamda sohaga oid boshqa huquqiy normativ hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalyotga tadbiq etish asnosida Yangi O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlatni barpo etshiga asos bo‘lib xizmat qiladi. “Qonuniylikni mustahkamlashda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish g‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu har bir shaxsda qonunlarga, inson huquq va erkinliklariga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lishni hamda huquqbazarliklarga nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirishni kun tartibiga eng asosiy masala qilib qo‘ymoqda”[8. <https://lex.uz/> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida ,2019-yil 13-dekabr, PQ-4551-son] -deb yozilgan mamlakatimiz rahbari qarorida. Dunyodagi aksariyat davlatlar asosiy qonunlarida har kimning davlat va jamiyatdagi huquqlari konstitutsiyaviy institut sifatida belgilangan bo‘lib, bu borada O‘zbekistonda konstitutsiyani mustahlamlashga va uning huquqiy asoslarini har tomonlama rivojlantirishga hamda takomillashtirishga qaratilgan keng ko‘lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu o‘rinda yangi tahrirdagi konstitutsiyamizning 52-53-61-65-moddalarida milliy, ma’naviy va madaniy qaryatlarimiz hamda ularning huquqiy muhofaza etilishi alohida-alohida mustahkamlab qo‘yilgan.

## XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).

Madaniyat nafaqat insonlarning ijodiy faoliyati tufayli yaratilgan moddiy va ma’naviy boyliklari yig‘indisi, balki jamiyat taraqqiyotining mezoni hamdir. Ya’ni, jamiyatdagi bilim, mezon va qadriyatlarning yig‘indisi madaniyatda gavdalanadi. Madaniyatni o‘rganishda obyektiv qonuniyatlar, hodisalardagi sababiy bog‘liqlik haqidagi an’anaviy tasavvurlardan foydalanmaslik ham mumkin. Madaniyat doimo inson bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi va usiz yashay olmaydi. Lekin voqelikning murakkab, yaxlit birligi sifatida u o‘z rivojlanish qonunlarida va borliqqa nisbatan mustaqildir. U madaniy merosni o‘zida mujassamlashtirgan konkret sotsial guruhlarning ma’naviy hayotiga nisbatan boyroq va chuqurroqdir. Madaniyat doimo qadriyatlarning eng yirik zahirasi, tajribalar xazinasi bo‘lib qoladi. Insoniyat avlodlari undan foydalanadilar va unga o‘z hissalarini qo‘sadilar.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. -Toshkent: Yangi asr avlodи 2018, -184 b.
2. Qoraboyev U. O‘zbekiston Madaniyati. Tafakkur bo‘stoni. –Toshkent, 2011. -3 b.
3. Хоруженко К.М. Культурология - энциклопедический словарь. Ростов Дон: Феникс. 1997; Bekmurodov M. va boshqalar. Sotsiologiya. – Toshkent: A.Qodiriу nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002 -156 b.
4. <https://lex.uz/> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-yanvardagi PF60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida.
5. <https://lex.uz/> 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-son “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida.
6. <https://lex.uz/> 2021 yil 26-martdagи PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.
7. <https://lex.uz/> Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 11-martdagи 132-son “Yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida.
8. <https://lex.uz/> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minalash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. Toshkent sh., 2019-yil 13-dekabr, PQ-4551-son.

## NEFT VA GAZ KOLLEKTORLARI VA ULARNING (G‘OVAKLIK) XOSSASI

**Usmonov Kuvonchbek Mannonovich**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

quvonch\_uz2@mail.ru

**Abdullayev Behruz Otabek o‘g‘li**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti talabasi

**Annotatsiya.** Neft va gaz insoniyat tomonidan qadimdan foydalanib kelinayotgan asosiy foydali qazilmalardan biri hisoblanadi. Neft va gaz nisbatan tejamkor yoqilg‘i turi sifatida jahoning sanoati rivojlangan davlatlarining yoqilg‘i-energetika balansida yetakchi o‘rinni egalladi.

**Abstract.** Oil and gas are one of the main minerals used by mankind since ancient times. Oil and gas, as a relatively economical type of fuel, took the leading place in the fuel and energy balance of industrialized countries of the world.

**Kalit so‘zlar:** Kollektorlar, terrigen, g‘ovaklik, flyuid, qumlar, qumtoshlar, alevrolitlar, kapillyar, umumiylar, ochiq va samarali.

O‘z bag‘rida neft, gaz va suvni saqlay olish va ishga tushurilganda ularni bera olish qobiliyatiga ega bo‘lgan tog‘ jinslari **kollektorlar** deb yuritiladi. Kollektorlarning asosiy qismi cho‘kindi jinslardan tashkil topgan. Terrigen (qumlar, qumtoshlar, alevrolitlar va bir qancha gilli jinslar) va karbonat jinslar (ohaktoshlar, bo‘r, dolomitlar) neft va gaz kollektorlari hisoblanadi [1, 2, 3].

Kollektor jinslar ikkita xususiyati bilan tavsiflanadi – **g‘ovakligi** va **o‘tkazuvchanligi**, ya’ni qatlam flyuidlari (neft, gaz va suv) harakatlanishi mumkin bo‘lgan g‘ovak, kovak, darzlik va bo‘shliqlar tizimi bilan. Bo‘shliqlarga ega bo‘lgan

hamma tog‘ jinslari ham neft va gaz uchun o‘tkazuvchan ya’ni kollektor bo‘la olmaydi. Shuning uchun kollektor tog‘ jinslarining xossalari o‘rganishda ularning faqatgina g‘ovakligi emas balki, o‘tkazuvchanligi ham aniqlanadi. Tog‘ jinslarining o‘tkazuvchanligi bo‘shliqlarning ko‘ndalang (flyuidlarning harakati yo‘nalishiga) o‘lchamlariga bog‘liq [1, 2].

**G‘ovaklik.** Tog‘ jinslarining g‘ovakligi deb, ularning zarralari orasidagi qattiq jinslar bilan to‘lmagan bo‘shliqlar va darzliklarga aytildi.

O‘lchamlariga qarab bo‘shliqlar yoki g‘ovakliklar quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. O‘ta kapillyar ( $>0,5$  mm) – bunday g‘ovaklarda suvning harakati gidravlika qonuniyatlariga bo‘ysunadi. Ularda suv, neft va gaz gravitatsion kuchlar ta’sirida erkin joylashadi.
2. Kapillyar g‘ovaklar ( $0,5-0,0002$  mm) – bunday g‘ovaklarda molekulyar bog‘lanish kuchli bo‘lganligi sababli suyuqliklarning harakati juda qiyin kechadi.
3. Subkapillyar g‘ovaklar ( $< 0,0002$  mm) - bunday bo‘shliqlar gilli jinslarga xos bo‘lib, suv, neft va gazni deyarli o‘tkazmaydi.

Barcha kollektorlar bo‘shliqlarining xarakteriga ko‘ra uch turga bo‘linadi: granulyar yoki donador (bo‘lakli jinslardan iborat), darzli (har qanday tog‘ jinsi) va kovakli (karbonat jinslar) [1, 3].

G‘ovaklikni katta–kichikligini ifodalash maqsadida tog‘ jinsining umumiy hajmidan qancha qismi g‘ovaklardan iborat ekanligini ko‘rsatuvchi g‘ovaklik koeffitsiyentidan foydalilaniladi.

Tog‘ jinsidagi hamma bo‘shliqlar hajmining ( $V_{bo'sh}$ ) tog‘ jinsining umumiy hajmiga ( $V_{t.j.}$ ) nisbati g‘ovaklik koeffitsiyenti deyiladi:

$$m = \frac{V_{bo'sh}}{V_{tog'jinsi}} \quad (1)$$

bu yerda, m - g‘ovaklik koeffitsiyenti;  $V_{bo'sh}$  - jinsdagi bo‘shliqlarning hajmi,  $\text{sm}^3$ ;  $V_{tog'jinsi}$  - tog‘ jinsi namunasining hajmi,  $\text{sm}^3$ .

G‘ovakliklar umumiyligi, ochiq va effektiv (samarali) turlari bilan farqlanadi. Umumiyligi (to‘liq, absalyut) g‘ovaklik – bu tog‘ jinsidagi barcha g‘ovaklarning hajmidir. Shunga muvofiq umumiyligi g‘ovaklik koeffitsiyenti barcha g‘ovaklar hajmining jins hajmiga nisbatidan iborat bo‘lib foizlarda (%) ifodalanadi. Ochiq g‘ovaklik – faqat bir-biriga bog‘liq, o‘zaro aloqador g‘ovaklar hajmi. Bu ochiq g‘ovaklik koeffitsiyenti bilan ifodalanadi – ochiq g‘ovaklar hajmining namuna hajmiga nisbati.

Bundan tashqari neft va gaz geologiyasida samarali g‘ovaklik tushunchasi ham bor. U ishga tushirilganda (uyumni) neft olish mumkin bo‘lgan g‘ovaklar mavjudligi bilan aniqlanadi. Neftli jinslarning samarali g‘ovakligi deganda ma’lum harorat va bosim gradiyentida ular bo‘ylab neft, gaz va suv harakatlanadigan g‘ovaklar hajmining nisbati tushuniladi [3, 4].

G‘ovaklar hosil bo‘lishiga ko‘ra birlamchi va ikkilamchi turlarga bo‘linadi. Birlamchi g‘ovaklar tog‘ jinslari hosil bo‘layotganda yuzaga keladi. Ular bo‘lakli jinslarning bir-biriga mustahkam birikmagan zarrachalar, oolitlar yoki karbonat jinslardagi organogen qoldiqlar orasidagi bo‘shliqlar hamda turli jins hosil qiluvchi organizmlarning skelet qoldiqlaridagi bo‘shliq va kameralarni o‘zida namoyon qiladi.

Ikkilamchi g‘ovaklar esa tog‘ jinslari qatlamlari tarkibidagi suvda oson eriydigan minerallarni yer osti suvlari bilan yuvilib ketishidan yuzaga keladi. Yer qobig‘ining tektonik harakatlari natijasida qatlamlarda darzliklar hosil bo‘ladi.

Darzliklar mexanik jiplashish yoki g‘ovak muhitni ikkilamchi minerallar bilan to‘lishi hisobiga ochiq va yopiq bo‘lishi mumkin. Agar darzliklar atrofida jinslarning siljishi yuzaga kelmasa yoki ahamiyatsiz bo‘lsa, unda bunday sistemalar darzlik deb yuritiladi. Tushilmalar va surilmalar darzliklarga kirmaydi.

Darzli g‘ovaklik katta emas - 2-3% gacha yetadi. Darzli g‘ovaklikni tavsiflashda yoriqlarning quyuqligi, zichligi va ochiqligi ajratiladi.

*Yoriqlarning quyuqligi* – bu yoriqlarning yo‘nalishiga perpendikulyar yo‘nalishda 1 m uzunlikka to‘g‘ri keladigan yoriqlar miqdori.


*Yoriqlarning zichligi* – bu maydon birligiga ( $1 \text{ m}^2$ ) to‘g‘ri keladigan jami yoriqlar quyuqligidir.

*Yoriqlarning ochiqligi* – bu yoriq devorlari orasidagi masofa. Odatda ochiqlik juda past bo‘ladi, lekin millimetrlarga yetishi ham mumkin.

Kovaklar tog‘ jinslarining alohida qismlarini lokal erishi natijasida yuzaga keladigan bo‘shliqlarni o‘zida namoyon qiladi. Odatda kovaklar yoriqlar bilan yo‘ldosh bo‘ladi, chunki reaksiyalanish imkoniyatiga ega bo‘lgan flyuidlarning harakati yoriqlar bo‘ylab yuzaga keladi [1, 3].

Bo‘lakli jinslarda g‘ovak soha ko‘pincha izometrik, aylana yoki ko‘p burchakli shaklga ega bo‘ladi. Yoriqlar odatda tirqish ko‘rinishidagi shaklga, kovaklar esa noto‘g‘ri shaklga ega bo‘ladi (1-rasm).

G‘ovak muhitning o‘lchamlari mikrometrning ulushidan o‘nlab metrgacha yetishi mumkin. Qumtoshlar va alevrolitlarda g‘ovaklar odatda 1 mm dan kichik o‘lchamga ega bo‘ladi, ular orasida o‘ta kapillyar ( $>0,1$  mm), kapillyar (0,0002-0,1 mm), subkapillyar ( $<0,0002$  mm), ba’zan ultrakapillyar ( $<0,0001$  mm yoki 0,1 mkm) g‘ovaklar ajratiladi.



**1-rasm. Tog‘ jinslaridagi har xil turdagи bo‘shliqlarning sxematik ko‘rinishi:**

a – yaxshi saralangan yuqori g‘ovakli jins; b – yomon saralangan past g‘ovakli jins; v – yaxshi saralangan g‘ovak jins; g – yaxshi saralangan g‘ovakligi mineral moddalar to‘planishi tufayli pasaygan jins; d – erish tufayli g‘ovak bo‘lgan jins; e – darzlik tufayli g‘ovak bo‘lgan jins.

Yoriqli g‘ovaklar ochiqlik darajasiga ko‘ra ajratiladi. Y.M.Smexov bo‘yicha ochiqligi 0,1 mm dan katta bo‘lgan yoriqlar makroyoriqlarga, ochiqligi 0,1 mm dan kichik bo‘lgan yoriqlar esa mikroyoriqlarga kiradi [1, 2, 3].

B.K.Proshlyakov va V.G.Kuznetsov bo‘yicha o‘lchamlari 0,1-10 mm bo‘lgan kovaklar mayda, o‘lchamlari 10-100 mm bo‘lgan kovaklar yirik, o‘lchamlari 100 mm dan katta bo‘lganda g‘orsimon bo‘shliqlarga kiradi.

Agar g‘ovak muhit ikki yoki undan ko‘p g‘ovaklar turidan tashkil topgan bo‘lsa murakkab yoki aralash deyiladi.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Yarboboyev T.N., Hayitov O.G. “Neft va gaz uyumlarini izlash va qidirish metodlari”. Darslik. Qarshi - 2018
2. Эргашев Й., Абдуллаев Ф.С., Кодиров М.Х., Халисматов И.Х. Нефть ва газ конлари геологияси. Дарслик. Тошкент. 2008.
3. Yarboboyev T.N. Neftgazli komplekslar: litologiya va tabiiy saqlagichlar. Darslik. Qarshi 2017.
4. Ҳайитов О.Ф., Бурлуцская И.П., Зуфарова Ш.Х. Лабораторные исследования горных пород и флюидов. Т.: «ТашГТУ», 2005.

## COMMON PRONUNCIATION PROBLEMS THAT ESL AND EFL STUDENTS FACE

**Khalmuratova Manzura Khoshmuratovna**

Master's student at the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek Faculty of Foreign Philology  
Department of English Linguistics

*Abstract. Pronunciation is the cornerstone of efficient spoken communication. If the speakers' pronunciation is incorrect, their utterances will be incomprehensible to listeners, and they will not be successful in their communication. The goals of this study were to look into EFL students' English pronunciation issues and the elements that influence their English pronunciation. The discovery found that English phonemes at the initial syllable position that cause pupils problems included /ð/, /θ/, /dʒ/, /ʒ/, /v/ and /z/ sound respectively and the /ð/, /θ/, /v/, /f/, /s/, and /l/ sound at the final syllable position. According to this study, the students' basic grasp of English pronunciation was the most significant contributor to this difficulty. However, another key cause of their pronunciation issues was the gap between the Uzbek and English sound systems.*

To 'g'ri talaffuz samarali og'zaki muloqotning asosidir. Agar so'zlovchilarning talaffuzi noto 'g'ri bo 'lsa, ularning gaplari tinglovchilarga tushunarsiz bo 'lib qoladi, muloqotda muvaffaqiyat qozonmaydi. Ushbu tadqiqotning maqsadi EFL talabalarining ingliz tilini talaffuz qilish muammolari va ularning ingliz tilidagi talaffuziga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish hisoblanadi. Izlanishlar shuni ko 'rsatdiki, o'quvchilarda muammolarga olib keladigan boshlang'ich bo 'g'in pozitsiyasidagi ingliz fonemalariga mos ravishda /ð/, /θ/, /dʒ/, /ʒ/, /v/ va /z/ tovushlari va /ð/, /θ/ kiradi. , /v/, /f/, /s/ va /l/ tovushi oxirgi bo 'g'in o 'rnida. Ushbu tadqiqotga ko 'ra, talabalarning ingliz tilidagi eng katta qiyinchiliklari yuqoridagi tovushlar talaffuziga tushinish bo 'ldi. Shuningdek, ingliz va o 'zbek tilidagi tovush tizimidagi tafovutlar talaffuzdagi muammolarga asos hisoblanadi.

*Правильное произношение – основа эффективного устного общения. Если произношение говорящих неправильное, их слова будут непонятны слушателям, и общение не будет успешным. Целью данного исследования является изучение проблем английского произношения студентов EFL и факторов, влияющих на их английское произношение. Исследования показали, что английские фонемы с началом слова, вызывающие проблемы у учащихся, — это /ð/, /θ/, /dʒ/, /ʒ/, /v/ и /z/ соответственно, а также включают /ð/, / й/, /v/, /f/, /s/ и /l/ звучат в последней позиции слова. Согласно этому исследованию, самой большой трудностью для студентов в английском языке было понимание произношения вышеперечисленных звуков. Также в основе проблем произношения лежат различия в звуковом строе английского и узбекского языков.*

**Keywords:** *Pronunciation problem, Factors affecting English pronunciation, sound systems.*

**Introduction.** English is an international language used as a medium in sharing information, trading, education, and many others across the world. Learning English, therefore, becomes a must for students all around the world, specifically the students that study English as a Foreign Language (hereafter EFL students). For the importance of learning English mentioned above, this led to all students including EFL students in many countries to learn English from the kindergarten level to tertiary level. However, learning English especially speaking skill causes various problems for EFL students. As Kirkpatrick mentioned, EFL students use the language only on certain occasion and for specific purposes [1]. Moreover, the lack of English roles in society causes learning English for EFL students to be more challenged. As a result of the limited role of using English by EFL students, they have bigger learning problems than other learners who use English in their daily life. Additionally, pronunciation is the basic of communication and it is essential when it comes to distinguishing meanings or to produce comprehensible utterances, especially for EFL students. However,

learners consider pronunciation as the main cause of their communication problems. Learners with good English pronunciation are likely to be understood even if they make errors in other areas, whereas learners with bad pronunciation will not be understood, even if their grammar is perfect. From the above-mentioned functions of pronunciation, it is very vital for communication and it is the most important issue for EFL students to recognize [2].

### **EFL students in Uzbekistan and challenges pronunciation English words correctly.**

In Uzbekistan, EFL students have to study English which is a fundamental subject in the curriculum from the kindergarten level to the highest educational level. However, it has been stated that teaching English has not been successful. EFL students in schools learn English for more than ten years, but most of them cannot use English to communicate or convey their ideas effectively. One reason that causes this problem is pronunciation. Most students lack adequate pronunciation practice opportunity which is also one of the primary causes of their English pronunciation problems. Mavlonova claimed that Uzbek students have inadequate practicing time in English pronunciation and they need more speaking opportunity in real situations both in and outside the school environment [3]. Furthermore, the linguistic differences can be another factor that caused the problem; for instance, the difference of phonology, word order, and verbal system. Similarly, another study observed that many pronunciation errors are caused by the phonological transfer of aspects of their first language (L1). This correspond to many research studies which suggested that Uzbek students are very prone to pronounce English sounds by using Uzbek consonant sounds instead.

By the time we have grown up the habits of our own language are so strong that they are very difficult to break. In our own language, we have a fairly small number of sound units which we put together in many different combinations to form the words and sentences we use every day. And as we get older we are dominated by this small number of units. It is as if we had in our heads a certain fixed number of boxes for

Ўзбекистон Республикаси ФПКнинг 17-моддасида ва МСИЮтКнинг 17 моддасида, ишни апелляция ва кассация инстанцияси судларида кўриш уч нафар судьядан иборат таркибда ҳайъатда амалга оширилиши белгиланган.

Демак, апелляция ва кассация судлов ҳайъати аъзоси тариқасида иштирок этган судья, келгусида тафтиш инстанциясида ишни қайтадан кўрилаётганда ташкил этиладиган камида 3 нафардан иборат бўлган таркибда иштирок

<sup>1</sup> <https://sudylaroliykengashi.uz/uz/sudylar>

<sup>2</sup> <https://sudylaroliykengashi.uz/uz/sudylar>

этаолмаслигини инобатга олган ҳолда тафтиш инстанциясининг таркиби тўлиқ бўлмаслигига олиб келиши ёхуд муқаддам судлов ҳайъатида иштирок этган судьянинг такрор иштирок этишига олиб келади.

Бу эса, ўз навбатида ўрта бўғин судларида апелляция ёхуд кассация инстанцияси томонидан чиқарилган қарордан норози бўлиб, ушбу бўғиннинг тафтиш инстанциясига шикоят (протест) бериладиган бўлса, тафтиш инстанцияси судьялари муқаддам апелляция ёхуд кассация судлов ҳайъати аъзоси тариқасида қатнашган ишларида такроран иштирок этишларига олиб келиши оқибатида одил судловнинг холислиги, мустақиллиги, суд ишларини юритишнинг объективлиги, адолатли ҳал этилишига путур етказади. Шу сабабли, ўрта бўғин судларининг штат бирликларини ошириш орқали адолатни таъминлашда пособон бўлган судьяларнинг қарорларини қонуний чиқарилишига ҳамда фуқароларнинг ҳуқуқларини самарали ҳимоя қилинишини таъминлайди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 16.01.2023 йилдаги ПФ-11-сонли Фармони билан тасдиқланган, 2023-2026 йилларга мўлжалланган суд тизимини сифат жиҳатидан янги босқичга олиб чиқишининг қисқа муддатли стратегиясининг 3-бобида, ҳудудлардаги аҳоли сонидан келиб чиқиб, судьялик штат бирликлари сонини босқичма-босқич ошириб бориш белгиланган бўлиб, ушбу штат бирликларини авваламбор ўртабўғин судларига ажратиш мақсадга мувофиқ бўлади.

Юқори инстанция судларида ишларни тафтиш тартибида қайта кўриш деганда, суд қарорига нисбатан тегишли шахслар томонидан берилган шикоят ёки киритилган протестда баён этилган важлар билан чегараланмасдан, суд қарорларининг қонунийлиги, асослиги ва адолатлилигини тўла ҳажмда, аниқроғи тафтиш тартибида қайта қўриб чиқилиши натижасида, фуқаролар ҳуқуқ ва эркиnlари, жамият ва давлат манфаатларининг таъсирчан ва ишончли муҳофаза қилинишига эришилади.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. <https://lex.uz/docs/6358976>
2. <https://www.cambridge.org/core/journals/international-and-comparative-law-quarterly/article/abs/illegality-and-the-consideration-in-favorem-contractus>
3. <https://www.fondation-droitcontinental.org/fr/wp-ontent/uploads/2014/739-CJA.pdf>
4. [https://www.gesetze-im-internet.de/englisch\\_vwgo/englisch\\_vwgo.html](https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_vwgo/englisch_vwgo.html)
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмалари. Т-1 А- Тахрир ҳайъати: Т.Мирзаев ва бошқалар. Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси, Тил ва адабиёт институти. “Ўзбекистон Республикаси - Энциклопедияси” давлат илмий нашриёти. 2006 й. 485 б.
6. <https://sudyalaroliykengashi.uz/uz/sudyalar>

## ВЗГЛЯД НА ДЕТСКИЕ КНИГИ

**Абозова Фарангис Махмуд кизи**

Студентка ТГПУ имени Низами 3-курса  
факультета «Начальное образование»

[abrorov5678@gmail.com](mailto:abrorov5678@gmail.com)

**Аннотация.** В статье рассматриваются такие проблемы как детские книги играют роль в воспитании молодёжи и какова им отношения в современном мире со стороны молодёжи.

**Ключевые слова:** Государства, заинтересовать, книга, литературе, Национализм, детская книга, школа.

С момента обретения независимости нашей страны Глава государства уделяет серьезное внимание национализму. Ведь без национальности идентичность не понять. Меня больше интересует детская литература, потому что я учусь на отделении «Начальное образование» Педагогического университета. Однако нельзя не учитывать, что качество, содержание и оформление книг, издаваемых для дошкольников и младших школьников, отстают. Сегодняшнее поколение совершенно не похоже на вчерашнее. Чтобы удовлетворить их спрос, сегодняшним взрослым необходимо быть знакомыми с современными педагогическими знаниями. Когда будете заглядывать в книжные магазины столицы, обратите внимание на детскую литературу, изданную в российских издательствах! Вы будете рады видеть, что это не обычные книги. Книги также могут понравиться детям и их родителям, потому что они похожи на четыре времени года в природе, имеют прочную качественную обложку и содержат яркие картинки. В узбекской детской литературе много интересных рассказов, сказок и стихов поэтов и писателей. Например, «Езда Жёлтый Гигант»

Худойберди Тухтабоева, рассказы Гафура Гуляма «Шум бола» и «Мой вор — ребенок», сборники стихов поэта Куддуса Мухаммади, узбекские народные сказки «Зумрад и Киммат», «Фаррух и Зумрад», "Золотой арбуз", "Вор и правильный", "Аист и лиса" и другие. На самом деле, хотелось бы, чтобы в Узбекистане издавали красочные книги, устойчивые к использованию такими детьми, способные заинтересовать их чтением. Например, в 2003 году в московском издательстве РОСМЭН-ПРЕСС вышла книга сказок «Три поросёнка» по переводу английских народных сказок И. Б. Шустовой. Также небольшой буклете «Мой пёс» А. Барто, предназначенный для внеклассного чтения младших школьников в 2007 году, не утомит детей благодаря качественному оформлению художницы Т. Андреевой, коротко и ясно. Он удобен в кармане и очень удобен для чтения в дороге, а также его можно взять с собой в длительную поездку с детьми.

Теперь вопрос возникает сам собой. Почему так мало таких книг в узбекских издательствах?! Хотя есть яркие и красивые книги, качество их кожи или толщина листа не предназначены для детей. В большинстве картин художники стараются отразить узбекскую национальность. Тем не менее, он имеет относительно меньше цветовых вариаций для учащихся младших классов.

*«Человек, который читает книгу и работает над собой, имеет крылья. Он не останется равнодушным. Его сила в знании. Вот почему он ни о ком не заботится. Он не льстит «взрослым». У него есть знания, у него есть навыки. Вот почему мы говорим: прочитайте книгу. Если ты читал книгу, ты умеешь задавать вопросы»<sup>1</sup>,* - сказал Президент Ш.М.Мирзиёев. Если мы не сможем заинтересовать детей книгами с раннего возраста, мы не сможем сделать это, когда они вырастут. Чтобы заинтересовать детей чтением, необходимо развивать их наблюдательность. Конечно, книжки с картинками на детском языке очень помогают.

Ян Амос Каменский говорит в своей книге «Великая дидактика»:  
*«Обратим внимание на то, что наглядность в дидактике понимается более широко, чем непосредственное зрительное восприятие»<sup>i</sup>.*

Заключения можно сказать что нельзя забывать, что важнейшей задачей каждого из нас является развитие творческих способностей узбекских детей, воспитание детей здоровым и гармонично развитым поколением.

### Литературы:

1. Ш.М.Мирзиёев - Официальные новости Национального информационного агентства Узбекистана uza.uz Выступление в Анкаре 20 февраля 2020 г.

## МАЊНАВИЙ ВА МАФКУРАВИЙ ТАХДИДЛАРГА ҚАРШИ КУРАШНИНГ ИЖТИМОИЙ-ХУҚУҚИЙ МЕХАНИЗМЛАРИ

**Моҳира Хасановна Тошбекова**

Тошкент вилояти педагогларни янги методикаларга ўргатиши миллий маркази  
доцент в.б.

*ЎзМУ профессори, Фалсафа фанлари доктори, О.Р.Мусаев тақризи асосида*

### **АННОТАЦИЯ**

Мазкур мақолада глобаллашув шароитида жаҳонда юз берадётган ихтилофлар, мањнавий- мафкуравий таҳдиidlар, информацион ҳуружлар, уларнинг жамият ва табиатга нисбатан таъсир кучи, шунингдек, уларга қарши курашишининг Ўзбекистон шароитида ҳуқуқий асослари ҳамда замонавий механизмлари хусусида фикр юритилган.

**Калит сўзлар:** дин, диний бағрикенглик, глобаллашув, глобаллашув даври, мафкуравий таҳдиidlар, мањнавий ҳуружлар, мафкуравий полигон, таълимтарбия, ҳуқуқий-замонавий механизмлар.

## **СОЦИАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ БОРЬБЫ С ДУХОВНО- ИДЕОЛОГИЧЕСКИМИ УГРОЗАМИ**

### **АННОТАЦИЯ:**

*В этой статье говорится о мировых конфликтах, духовно – идеологических нападках, информационных атаках, их воздействии на природу и общество в условиях глобализации, а также современный механизм и правовые основы борьбы против них в условиях Узбекистана.*

**Ключевые слова:** религия, межэтническое согласие, глобализация, полигон глобальные, догматическая угроза, идеологическая угроза, «общественная культура, правовые и современные механизмы.

## SOCIO-LEGAL MECHANISMS OF STRUGGLING AGAINST SPIRITUAL AND IDEOLOGICAL THREATS

### ***Resume:***

*This article discusses global conflicts, spiritual and ideological threats, information attacks, their impact on society and nature, as well as the legal foundations and modern mechanisms of their response in the context of globalization.*

**Key words:** religion, interethnic harmony, globalization, threat, dogmatic threat, public culture, legal and modern mechanisms.

Кириш. Дунёда инсон онгига таъсир қилувчи бунёдкор ва бузғунчи ғояларнинг пайдо бўлиш, уларнинг таъсир даражасини вамафкуравий бўшлиқнинг оқибатларини ўрганиш, мафкуравий таҳдидларни бартараф этиш механизмларини такомиллаштириш бўйича илмий тадқиқотлар олиб борилмоқда. Мафкуравий таҳдидларнинг ижтимоий хавфлилик даражасига баҳо бериш ва аҳоли турли қатламлари онгига мафкуравий иммунитетни шакллантиришнинг зарурлиги илмий асосланмоқда. Мафкуравий таҳдидларга қарши курашнинг янги моделларини яратиш бўйича чуқур илмий тадқиқотлар олиб боришга эҳтиёж ошмоқда.

- Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили (Literature review).

Марказий Осиёда мафкуравий таҳдидларнинг бартараф этишнинг ижтимоий-хуқуқий механизmlари ва қарши курашиш воситаларининг фалсафий жиҳатлари, маданиятлар тўқнашуви жараёнларининг ижимоий жараёнларга таъсири, ижтимоий ҳаётдаги ўзгаришлар ва турли ғоявий таҳдидларни бартараф этиш йўлларини аниқлашга қаратилган чуқур илмий тадқиқотлар олиб борилган. Қозогистон олимлари А.Масалимова, Т.Габитов, А.Курманалиева<sup>1</sup> мафкуранинг жамият ижтимоий ҳаёти ва инсон маънавиятига таъсирининг баъзи элементлари

<sup>1</sup> Масалимова А. Культура и цивилизация, рекомендованного МОиН РК 2005 – 210 с.; Габитов Т. Казахская философия в контексте национальной идеи. – Алматы: Раритет, 2010 – 150 с.; Курманалиева А. Культура и цивилизация. Алматы, 2006 – 200 с

диний-ахлоқий, сиёсий-фалсафий таълимотлар нуқтаи назаридан асосланган. Тожикистонлик олимлар М.Динаршоев, М.Рахимов, Н.Махмадизода<sup>1</sup> ҳамда ҳинд файласуфи Шри Аурабиндолар Шарқ мутафаккирлари ижодидаги мафкура ва мафкуравий жараёнлар ҳақидаги ғояларни жамият ижтимоий ҳаётининг кўриниши деб баҳо берганлар.

Ўзбекистонда ғоявий таҳдидларни бартараф этиш ва унга қарши қурашиш чора-тадбирларни белгилаш, мафкуравий хуружларни бартараф этишнинг ижтимоий-сиёсий механизмларини такомиллаштириш бўйича таклифлар Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг маъруза ва нутқлари<sup>2</sup>да, Олий мажлис депутатларига ва Ўзбекистон халқига йўллаган мурожаатномасида<sup>3</sup>, ва биринчи Президент Ислом Каримов асарларида<sup>4</sup> илгари сурилган.

- Тадқиқот методологияси (Research Methodology). Ижтимоий барқарорликни таъминлаш учун мафкуравий таҳдидларга қарши қурашишнинг зарурлиги ҳақида барча даврларда илғор ғоялар илгари сурилган. Хусусан, «Авесто»<sup>5</sup> муқаддас китобида ёшларнинг ахлоқий тарбиясида оиласининг масъулияти, қадимги Ҳиндистан<sup>6</sup> ва Хитой<sup>7</sup> манбаларида эзгу ғояларнинг жамият тараққиётига таъсири, ахлоқий тарбиянинг ёшлар мафкуравий иммунитетининг манбаи сифатидаги аҳамияти очиб берилган. Юнон файласуфи Сенека<sup>8</sup> ёшларнинг ахлоқий етуклиги, маънавий қиёфаси уларнинг ўз-ўзини англаши ва мақсадли фаолиятини ташкил этиш, жамиятнинг мафкуравий

<sup>1</sup> Динаршоев М. Плюралистическая философия Абу Бакра ар-Рази, 2013. – 220 с.; Рахимов М. Международное сотрудничество Узбекистана в контексте обеспечения стабильности и устойчивого развития в Центральной Азии. 2011. – 315 с.; Махмадизода Н. «Проявления религиозно-политического экстремизма в условиях развития таджикского общества и способы его предотвращение: философско-социальный анализ» на соискание учёной степени доктора философских наук по специальности 09.00.11 – Социальная философия. 2020. -105 с.

<sup>2</sup> Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганинг 24 йиллигига бағишлиган тантанали маросимдаги номли маърузаси // <http://uza.uz>. 07.12.2016;

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 28 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. (2018 йил 28 декабрь). Тошкент.: Ўзбекистон, 2019. – 76 б.

<sup>4</sup> Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент.: Маънавият, 2008. – 173 б.

<sup>5</sup> Авесто. А.Махкамов таржимаси. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 590 б

<sup>6</sup> Асмус Веды// История философии. – Москва: Наука, 1985. – 350 с.

<sup>7</sup> Конфуцианство – Москва: Прогресс, 1995. – 278 с.

<sup>8</sup> Сенека Нравственные письма Сенеки Луциллию. – Москва: АСТ, 2018. – 206 с.

таҳдидбардошлигини таъминлаш омили эканлигини асослаган. Платоннинг «Диалоглар», «Давлат», Аристотелнинг «Жон ҳақида», «Ахлоқи кабир», «Поэтика», «Риторика» асарларида инсон дунёқарашининг шаклланишига оила, жамият, давлатнинг таъсири очиб берилган.<sup>1</sup>

Шарқда Форобийнинг «Фозил одамлар шахри», «Бахт саодатга эришув тўғрисида», «Илмларнинг келиб чиқиши», «Ақл маънолари тўғрисида» каби асарларида жамият ва шахс муносабатлари ўз ифодасини топган. Берунийнинг «Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар», «Хиндистон», «Минералогия» асарларида миллий анъана ва қадриятларнинг шахс тарбиясига таъсири очиб берилган. Ибн Синонинг «Донишнома», Хай Ибн Якзон ўғли асарларида билимнинг кучи ҳақидаги ғоялар илгари сурилган. Шунингдек, Низомулмулк<sup>2</sup> давлат ва жамият бошқарувининг, Алишер Навоий<sup>3</sup> меҳнатсеварлик ва инсонпарварликнинг ёшлар ижтимоий онгининг шаклланишидаги ролига фалсафий баҳо берганлар.

- Таҳдил ва натижалар (Analysis and results). Ўзбекистонда ғоявий таҳдидларни бартараф этиш ва унга қарши курашиш чора-тадбирларни белгилаш, мафкуравий хуружларни бартараф этишнинг ижтимоий-сиёсий механизмларини такомиллаштириш бўйича таклифлар Ўзбекистон

Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг маъруза ва нутқларида, Олий мажлис депутатлариiga ва Ўзбекистон халқига йўллаган мурожаатномасида, ва биринчи Президент Ислом Каримов асарларидаилгари сурилган. Файласуф, сиёсатшунос олимлар Б.Тўйчиев, Т.Алимардонов, Ў.Шакаров, Б.Тўйчиева, И.Эргашев, О.Мухаммадиева, М.Хўжаев<sup>4</sup> лар ижтимоий ҳаётда мафкуравий таҳдидлар «ижтимоий субъект» сифатида жамият, гурӯҳ, шахсга қаратилишини, ижтимоий ҳаётда мафкуравий таҳдидларнинг

<sup>1</sup>Форобий Фозил одамлар шахри. – Тошкент: Абдулла Кодирий номидаги нашриёт. 1996. – 283 б.

<sup>2</sup> Низомулмулк Сиёсатнома. – Тошкент: Маънавият, 2016. – 380 б

<sup>3</sup> Навоий А. Хамса. 5 жилд – Тошкент: Шарқ, 2018. –1350 б.

<sup>4</sup>Тўйчиев Б, Алимардонов Т, Шакаров Ў, Тўйчиева Б, Эргашев И, Мухаммадиева О, Хўжаев М, Тўйчиев Б.Т. Миллий ғоя: Ўзбектонни ривожлантириш стратегияси – Тошкент.: Ilm-ziyo-zakovat, 2020. – 73 б.

содир бўлишини, Ўзбекистонни ривожлантириш стратегиясида миллий ғоянинг ролини очиб берганлар. И.Эргашев<sup>1</sup> миллий ғоя ва мафкурунинг моҳиятини чуқур англешнингёшлар ташаббускорлигини оширишга таъсирини, С.Отамуродов<sup>2</sup> миллий ғуур, миллий тилни билиш, уни асрар ва сақлашнинг аҳамиятини, И.С.Саифназаров<sup>3</sup> оиласда фарзандни диний-ахлоқий тарбиялашда мустақил фикрлашга ўргатишнинг ўрнини, З.Қодирова ёш авлод қалбida толерантлик туйғусини шакллантиришнинг ролини, А. Мухторов<sup>4</sup> мафкуравий таҳдидлар ижтимоий-сиёсий фаолиятда, унинг мақсадларида, воситаларида, усуулларида ва натижаларида рӯёбга чиқариш жараёниниифода этишини, Б.Очилова<sup>5</sup> ёшлар тафаккурида мафкуравий ташаббускорликни оширишда катталар ибратининг ўрнини, А.Очилдиев<sup>6</sup> ёшлар орасида миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенгликни тарғиб қилишга эътибор қаратган. Сиёсий фанлар доктори, профессор Ш.И.Пахрутдинов ижтимоий-сиёсий ҳаётда жамият барқарорлигини таъминлаш механизми сифатида «таҳдидбардош жамият» моделини илгари сурган. Олимлар Ж.Туленов, З.Гафуровлар, Х.Одилқориев Д.Раззоқовлар, С.Мамашокиров ҳамда Ш.Тоғаевлар<sup>7</sup> илмий ишлари ва тадқиқотларида мафкуравий таҳдидлар, мафкуравий полигон, маданиятлар тўқнашувининг жамият тараққиётидаги ўрнини очиб берганлар. О.Мусаев «Миллий ғоя ва миллатлараро муносабатлар»<sup>8</sup> ўқув қўлланмасида Ўзбекистонда ижтимоий-сиёсий барқарорликни таъминлашда миллатлараро муносабатларнинг роли,турли мафкураларнинг ва миллатлараро муносабатларнинг мамлакатлар ижтимоий-сиёсий ҳаётига, фуқаролар сиёсий маданияти ва жамият барқарорлигига таъсирини асослаган. Б.Бердиев ўз тадқиқот ишида «жамият барқарорлигини таъминлашда мафкурий

<sup>1</sup> Эргашев И. Сиёсат фалсафаси. –Тошкент: Академия, 2004. –146 б.

<sup>2</sup> Отамуратов С. Глобаллашув ва миллат. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2008. – 204 б

<sup>3</sup> Соифназаров И. Маънавий баркамоллик ва сиёсий маданият. – Тошкент: Шарқ, 2001. –158 б

<sup>4</sup> Мухторов А. Глобаллашув шароитида маънавий таҳдидларни бартараф этиш омилари. –Тошкент: Маънавият, 2015. – 32 б.

<sup>5</sup> Очилова Б. Экология ва дунёқараш – Тошкент: TAFAKKUR, 2013. – 70 б.

<sup>6</sup> Очилдиев А. Миллатлараро муносабатлар ва толерантлик. –Тошкент: Тошкент ислом академияси, 2010. – 47 б.

<sup>7</sup> Мамашокиров С., Тоғаев Ш. Эркин ва фаровон ҳаёт курилишининг ғоявий-мафкуравий масалалари. –Тошкент: Маънавият, 2007. – 10 б.

<sup>8</sup> Мусаев О.Р.Миллий ғоя ва миллатлараро муносабат. –Тошкент:Ilm-ziyo-zakovat 2021. –230 б.

профилактика мамлакатнинг бир тизимдан иккинчисига трансформациялашувида, халқнинг жипслигини таъминлайдиган, унинг дунёда глобаллашув жараёнларида юз берадиган ҳар қандай таҳликали ўзгаришларга бардошлилигини оширадиган омил – бу мафкура»<sup>1</sup> эканлигини таъкидлаган, мафкуравий жараёнлар ва мамлакат ижтимоий-сиёсий ҳаётининг баъзи жиҳатларини тадқиқ этган. Д.М.Маматқулов миллий мафкуранинг уч таркибий қисмини асослаган<sup>2</sup>.

Олимларнинг мафкуравий жараёнларга оид қарашлари, Ўзбекистонда ижтимоий ҳаётда мафкуравий таҳдидбардошликини такомиллаштириш борасида кўплаб илмий изланишларинингтахлии натижаларига кўра, ҳозирги кунгача мафкуравий таҳдидларни бартараф этишининг ижтимоий-сиёсий механизмлари ва миллий ғоянинг диалектик алоқадорлиги етарлича тадқиқ этилмаганлиги, Ўзбекистонда ижтимоий ҳаётда мафкуравий таҳдидларни бартараф этишининг ижтимоий-сиёсий механизмларини аниқлашйўллари ўрганилмаганлиги ва мафкуравий таҳдидларга қарши курашишнинг самарали сиёсий воситалари таснифи батафсил аниқланмагани боис, ушбу диссертацияда Ўзбекистонда ижтимоий ҳаётда мафкуравий таҳдидларни бартараф этишининг ижтимоий-сиёсий механизмларини аниқлаш, бу жараёнда миллий ғоя ролини янги концептуал ёндашув нуқтаи-назаридан тадқиқ этишга ва ҳозирги даврдаги аҳамиятини очиб беришга ҳаракат қилинган.

- Хулоса ва таклифлар (Conclusion/Recommendations). Интеллект муаммоси хориж психологиясида жуда кенг ўрганилган бўлиб, улар турлича назариялар, концепциялар, ёндашишлар, позициялар, йўналишларга асосланган ҳолда тадқиқ қилинган. Шу билан бирга, интеллектни ўлчаш мезонлари, критерийлари, тараққиёт кўрсаткичлари, ўзига хусусиятлари, тест яратиш ва ундан турли ёшдаги кишилар ақлий ривожини текширишда

<sup>1</sup>Бердиев Б.О. Ўзбекистонда сиёсий модернизация жараёнларининг ўзига хос хусусиятлари. сиёсий. фан. бўйича фал. док. (PhD) ... дис. автореф. – Тошкент. 2019. –30 б.

<sup>2</sup> Маматқулов Д. Малака ошириш жараённида умумтълим мактаб раҳбарларининг мафкуравий компетентлилигини ривожлантириш механизмларини такомиллаштириш. Пед. фан. бўйича фал. док. ... дис. – Тошкент: Педуниверситет, 2018. –143 б

фойдаланиш хилма-хил илмий назарий негизларга курилгандир. Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, одамзотнинг моддий олами қанчалик мураккаб ёки серкирра бўлмасин, унинг маънавий олами ҳам шунчалик мураккаб ва ранг-барангдир. Дунёдаги ғоя ва мафкуралар, туйгу ва тушунчалар қадрият ва анъаналар, фалсафа ва қарашлар инсоннинг ички олами, унинг маънавий эҳтиёжлари ҳам ғоят жозибали, ақл бовар қилмайдиган даражада тез ўзгарувчан эканлигини кўрсатади. Бизнинг мамлакатимиз Шарқ ва Гарб цивилизацияси туташадиган Марказий Осиё минтақасида жойлашгани учун бу ерда қадимдан турли давлатларнинг сиёсий кучлари манфаатларини бирлаштириб келган. Бугунги кунда бундай жараён глобаллашув ва ахборот асрида янгича шаклда намоён бўлмоқда. Воқелик шу даражадаки ахборот даврини ман этиш энг кучли давлатнинг ҳам қўлидан келмайдиган ишга айланди. Натижада, дунё халқларини таҳликага солувчи «Ахборот уруши», «Психологик уруш» каби тушунчалар бу даврнинг асосий тушунчаларига айланиб қолди. Дунёнинг мафкуравий манзарасида иккита кучнинг ўзаро кураши аниқ кўзга ташланмоқда. Буларнинг биринчиси – тараққиёт сари интилаётган халқларнинг илғор мафкураси, иккинчиси эса, ана шу тараққиёт натижаларидан фойдаланиб, уларнинг йўлига ғов бўлишга уринаётган заарли ва бузғунчи мафкуралар. Лекин дунё манзараси қанчалик мураккааб бўлмасин, унда бунёдкор ғояларнинг асрлар давомида инсониятга хос бўлиб келган соғлом ақл-идрокнинг устунлиги яққол кўриниб турибди. Бу эса, эзгулик охир оқибатда ғалаба қозонади, деган қўхна ҳақиқатни яна бир бор тасдиқлайди.

Шу боисдан дунёда гегемонлик қилишга уринаётган айрим давлатларнинг интернет ва бошқа тезкор воситалардан тарқатаётган мафкуравий хуружларга қарши курашишнинг бирдан бир йўли тарбиядир. Миллий тарбияни кучайтириш ва шу орқали ёшларимиз онгига оқ билан қорани, заарар билан фойдани, дўст билан душманнинг фарқига бора оладиган тафаккурни шакллантиришда оила, маҳалла, эл-юрт, устоз-мураббийлар олдида ўта муҳим вазифа кўндаланг бўлиб турибди. Бу тарбия заминида ватанпарварлик, инсонпарварлик умумбашарий қадриятларга ҳурмат туйғуси юқори даражада туриши лозим.

## АДАБИЁТЛАР

1. Масалимова А. Культура и цивилизация, рекомендованного МОиН РК 2005 – 210 с.; Габитов Т. Казахская философия в контексте национальной идеи. – Алматы: Раритет, 2010 – 150 с.; Курманалиева А. Культура и цивилизация. Алматы, 2006 – 200 с
2. Динаршоев М. Плюралистическая философия Абу Бакра ар-Рази, 2013. – 220 с. Аурабиндо Ш. Идеал человеческого единства. – Санкт-Петербург: Мирра, 1998 – 215 с.
3. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганинг 24 йиллигига бағишиланган тантанали маросимдаги номли маърузаси // <http://uza.uz>. 07.12.2016;
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 28 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. (2018 йил 28 декабрь). Тошкент.: Ўзбекистон, 2019.– 76 б.
5. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент.: Маънавият, 2008. – 173 б.
6. Авесто. А.Махкамов таржимаси. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 590 б
7. Асмус Веды// История философии. – Москва: Наука, 1985. – 350 с.
8. Конфуцианство – Москва: Прогресс, 1995. – 278 с.
9. Сенека Нравственные письма Сенеки Луциллию. – Москва: АСТ, 2018. – 206 с.
- 10.Форобий Фозил одамлар шахри. – Тошкент: Абдулла Кодирий номидаги нашриёт. 1996. – 283 б.
11. Низомулкулк Сиёсатнома. – Тошкент: Маънавият, 2016. – 380 б
12. Навоий А. Хамса. 5 жилд – Тошкент: Шарқ, 2018. – 1350 б.

13. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганинг 24 йиллигига бағишлиланган тантанали маросимдаги номли маърузаси // <http://aza.uz>. 07.12.2016;
14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 28 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. (2018 йил 28 декабрь). Тошкент.: Ўзбекистон, 2019. – 76 б.
15. Тўйчиев Б, Алимардонов Т, Шакаров Ў, Тўйчиева Б, Эргашев И, Мухаммадиева О, Хўжаев М, Тўйчиев Б.Т. Миллий ғоя: Ўзбектонни ривожлантириш стратегияси – Тошкент.: Ilm-ziyozakovat, 2020. – 73 б.
16. Эргашев И. Сиёsat фалсафаси. – Тошкент: Академия, 2004. – 146 б.
17. Отамуратов С. Глобаллашув ва миллат. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2008. – 204 б
18. Соифназаров И. Маънавий баркамоллик ва сиёсий маданият. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 158 б
19. Қодирова З. ва бошқалар. Ёшлар ижтимоий фаоллиги ва толерантлигини юксалтиришнинг ижтимоий-фалсафий масалалари. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2006. – 220 б.
20. Очилова Б. Экология ва дунёқараш – Тошкент: TAFAKKUR, 2013. – 70 б.
21. Мусаев О.Р. Миллий ғоя ва миллатлараро муносабат. – Тошкент: Ilm-ziyozakovat 2021. – 230 б.
22. Бердиев Б.О. Ўзбекистонда сиёсий модернизация жараёнларининг ўзига хос хусусиятлари. сиёсий. фан. бўйича фал. док. (PhD) ... дис. автореф. – Тошкент. 2019. – 30 б.
23. Маматқұлов Д. Малака ошириш жараёнида умумтаълим мактаб раҳбарларининг мафкуравий компетентлилигини ривожлантириш механизмларини такомиллаштириш. Пед. фан. бўйича фал. док. ... дис. – Тошкент: Педуниверситет, 2018. – 143 б

## INGLIZ VA O`ZBEK TILLARIDAGI MODAL SO`ZLARNING KULTROLINGVISTIK TAHLILI

**Usmonova Dona Sotvoldievna**

Ingliz tili kafedrasi katta o‘qituvchisi  
Farg’ona davlat universiteti

**Yunusov Axliddin Ubaydullayevich**

Magistratura 2-kurs talabasi  
Ingliz tilshunosligi mutaxassisligi  
Farg’ona davlat universiteti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ingliz va o`zbek tillaridagi aniqlik mazmunini namoyon etuvchi ayrim modal so`zlar muhokama etiladi.

**Kalit so‘zlar:** Modal so‘z, fe`l, nutq, tilshunoslik, qiyoslash, metod.

### **KIRISH**

Definitely modal so‘zi, odatda, nutqiy aktning modallik doirasiga ishonch yoki haqqoniylig mazmuni kirituvchi modal so‘zlar guruhiga kirib, ularni surely, certainly, of course modal so‘zleri bilan bir qatorga qo‘yish uchun zamin yaratadi. Ammo definitely modal so‘zining o‘z ma’nosidan kelib chiqqan holda, ushbu so‘zning modal mazmunini “aniqlik”, “qat’iylik” deb e’tirof etsak maqsadga muvofiq bo‘ladi nazarimizda. Definitely so‘zi tarkibida “gumon, ishonchsizlik yoki noaniqlikning mavjud emasligi”, “shubhasiz”, “aniq” semalarining mavjudligi bois nutqiy tuzilma modallik doirasiga so‘zlovchining prpozitsiya aniqligiga ishonchi mazmunini kiritadi

### **ASOSIY QISM**

*Aniqlik mazmunidagi modal so‘zlarning pragmatik vazifalari*

Mazkur qat’iylik operatorlari qo‘yidagilarni ifodalash uchunxizmat qiladi:

(1) adresat fikri bilan rozilikni ajratib ko‘rsatish:

- She understood that I had had an accident.

- She definitely did (le Carre, p. 422)
- I wouldn't like her to feel that.
- Exactly (Murdoch, The B. and B., p. 156)
- He's here on a business trip.
- Precisely (Gardner, p. 72)
- I like to serve you, sir and to obey you in all that is right.
- Precisely: I see you do (Bronte, p. 219);

(2) Adresat presupozitsiyasi haqqoniyligining qat'iytasdiqlanishi:

- Is he a special friend of yours? Mason asked.
- Definitely (Gardner, p. 52)
- Then you're going to be married, sir?
- Precisely with your usual acuteness you have hit the nail straight on the head

(Bronte, p. 252).

- You mean that luck turns?
- Exactly, Hastings (Christie, ABC, p. 128).

Definitely modal so‘zidan so‘zlovchining nazarida yolg‘on ko‘ringan adresat presupozitsiyasini qat’iyan rad etilishini ifodalash uchunfoydalaniladi:

- Do you think I can persuade him not to go to Canada?
- No, I definitely don’t (Bradford, p. 728);qat’iy e’tirozni ishodalash uchun:
- He is guilty.
- He definitely isn’t (Cunningham, p. 32).

Exactly modal so‘zi baho qiymatini kuchaytirish uchun ishlatiladi:

- You’re not alone?
- Exactly (Donleavy, p. 214).

*Aniqlik mazmunidagi modal so‘zlarning gapda joylashish tartibi*

Definitely modal so‘zi murakkab kesimning asosiy fe’lidan oldin joylashib, odatda, gapning o‘rtasidan o‘rin olgan bo‘ladi:

I definitely don’t like suppressing news (Bradford, p. 361) And Ricardo is definitely dead, Mr. Smiley (le Carre, p. 93).

Exactly va precisely modal so‘zlari odatda nutqiy tuzilma avvalida joylashadi yoki mustaqil kommunikativ birlik sifatida faoliyat olib boradi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, definitely, exactly, precisely modal so‘zlarining ishlatalish holatlari zamonaviy ingliz tilida ko‘p uchramaydi. Tahlil etilayotgan misollar sanab o‘tilgan modal so‘zlarning boshqa pragmatik mazmun birliklari bilan o‘zaro munosabatdor bo‘lgan holatlarni ajratish imkonini bermadi, shuningdek, ushbu modal so‘zlarning diskurs doirasida ishlatalishiga misollar uchramadi. Ammo ularning ishlatalishi boshqa qat’iylik operatorlari bo‘ysunadigan qonuniyatlar kabi ekanligini ta’kidlashga asoslar mavjud.

Uzatilayotgan axborot aniqligiga so‘zlovchining ishonchi, shuningdek, qat’iy tasdiqni ifoda etishi mumkin bo‘lgan by all means modal iborasi qo‘llanishida yuzaga keladi (Nilson, 1972: 157).

Adresat presuppozitsiyasining kuchaytirilgan tasdig‘i holatlari hamkuzatilishi mumkin:

- Want to come around and say hello?
  - By all means (Suzann, p. 428)
- yoki ajratib ko‘rsatilgan rozilik ifodasi:
- Tell him that.
  - By all means (Donleavy, p. 336).

Propozitsiya aniqligi, haqqoniyligi kuchaytirilishi mumkin: By all means he will come.

## XULOSA VA MUNOZARA

1. Aniqlik, qat’iylikni ifodalovchi vositalar orasida asosiy o‘rinni qat’iylikning tub semasiga ega modal birliklar egallaydi; ularning asosiy pragmatik vazifasi propozitsiyaning haqqoniyligi, rostligini ta’kidlash hisoblanadi.

Mazkur turkumdagи modal birliklari orasida quyidagi mazmundagi guruuhlar ajratiladi: (1) so‘zlovchining propozitsiya haqqoniyligiga ishonchini ifodalovchilar; (2) so‘zlovchining propozitsiya shubhasiz to‘g‘riligiga ishonchiga ishora qiluvchilar; (3) so‘zlovchining propozitsiya aniqligiga ishonchini bildiruvchilar.

2. Ajratilgan modal birliklarining har bir guruhi birliklarning lug‘aviy ma’nosidagi farqlarga asoslanib, ta’kidning turli darajasini aks ettiruvchi mezon shaklida namoyon etilishi mumkin.

3. Misollar tahlili guvohlik berishicha, modal operatorlar asosiy gapdan tortib maxsus gaplargacha turli grammatik mavqe’dagi birliklar orqali ifodalanishi mumkin.

4. Aniqlik modalbirliklari, xabar berilayotganaxborot haqqoniyligi va rostligini kuchaytirishdan tashqari, nutqiy tuzilm pragmatik mazmuniga adresat presuppozitsiyasining haqiqatligini tasdiqlash yoki inkor etish kabi qo‘sishimcha tuslarni ham kiritishi mumkin.

## ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Kwerk R., Greenbaum S., Leach J., Svartvik J. Universitetlar uchun zamonaviy ingliz tili grammatikasi. 1982. - 391-yillar.
2. Vygotskiy L.S. Nutq va fikrlashni rivojlantirish. Pedagogika, 1982.-V.2.
3. Satvoldievna, U. D., & Qizi, A. M. N. (2020). Comparative typological analysis of semantic-structural features of conditional inclination in different systematic languages. *Проблемы современной науки и образования*, (4-2 (149)), 21-23.
4. Usmonova, D. (2022). PRINCIPLES OF DIVISION OF WORD CATEGORIES IN UZBEK LANGUAGE. *YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS*, 1(2), 60-65.
5. Usmonova, D. S., & Yusupova, M. I. Q. (2021). Comparative analysis of the somatic phraseological units of the english and russian languages with the component “heart”. *Current research journal of philological sciences* (2767-3758), 2(11), 94-99.
6. Усмонова Д. С. Роль и особенность соматических фразеологизмов различных языков //Мировая наука. – 2019. – №. 9. – С. 250-252.
7. Satvoldievna, U. D., & Qizi, A. M. N. (2020). Comparative typological analysis of semantic-structural features of conditional inclination in different systematic languages. *Проблемы современной науки и образования*, (4-2 (149)), 21-23.

8. Satvoldievna, U. D., & Qizi, R. K. B. (2020). Linguistic analysis of puns in the English language. *Проблемы современной науки и образования*, (2 (147)), 38-40.
9. Sotvoldiyevna U. D. et al. Political Euphemisms in English and Uzbek Languages (A Comparative Analysis) //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2022. – T. 9. – C. 92-96.
10. Satvoldievna, U. D. (2021). Axiological Characteristics Of English, Uzbek And Russian Phraseological Units. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(06), 40-45.
11. Satvoldievna, U. D. (2020). A typological analysis of body parts names in English as part of somatic phraseology. *Проблемы современной науки и образования*, (2 (147)), 32-34.

**TEMURIYLAR DAVRIDA KESH SHAHRI BUNYODKORLIK ISHLARI****G'o'chchiyev Zayniddin Gulmurodovich**

Qarshi davlat universiteti

O‘zbekiston tarixi kafedrasи

**ANNOTATSIYA:** Maqolada Temuriylar davri Shahrisabz hududida mavjud bo‘lgan me’morchilik inshootlari, ularning o‘ziga xos qurilish uslubi, arxitektura jihatlari yoritilgan. Oqsaroy me’moriy yodgorligining o‘ziga xos qurilish jihatlariga to‘xtalib o‘tilgan. Tarixiy manbalar tahlilga tortilgan.

**TAYANCH SO‘ZLAR:** Temuriylar, me’morchilik, masjid, Oqsaroy, Qo‘rgon, saroy.

Amir Temur ota Vatani – Shahrisabzni qadim-da ham islom dinining ulug‘ ulamolari to‘pladigan maskan bo‘lganligidan Turkiston musulmon ilmining markaziga aylantirishga harakat qilgan. Masjid bunyod qildirgan. So‘ngra to‘ng‘ich o‘g‘li Jahongir mirzoga atab ham maqbara bilan masjid qurdirgan. Ushbu masjidlarning keng hovlisida din ulamolari marhumlarning ruhini shod qilish uchun Qur’on tilovati bilan mashg‘ul bo‘lishgan.

Muarrix Sharafuddin Ali Yazdiy yozadiki, “Kesh shahri butun ulamoi Islomniig yeri ermish va buzrugvor muhaddislardin uch imom anda vatan qilgon tururlar: biri Abu Muhammad (Abdulloh ibn Abdulhamid ibn) Nasr (ibn Humayd) al-Kashshiy va yana biri (Abu Muhammad) Abdulloh ibn Abdurrahmon ad-Dorimiyy as-Samarqandiy va Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, raziyallohi anhum. Ul mahalda olam ahli mas’ala va masoili diniy uchun atrof olamdin Kesh viloyatig‘a kelur ermishlar. Va ul jumladin Abu-l-Husayn Muslim ibn Hajjoj al-Qushayriy an-Nishopuriy kelib Abdurrahmon ibn Humayd al-Kashiy qoshig‘a istifoda qilg‘on turur

va ko‘b aimma va afozil anda bo‘lg‘on ermishlir va barchaning darslari bor ermish. Bu jihatdin Keshni «Qubbatul ilm val adab» laqabi bo‘lub turur”[1]

Temurbek davrida Shahrисabzning diniy mavqeи oshganligidan Xorazmdagi mashhur madrasalarning mudarrislari, Buxoro va Farg‘ona ulamolari shu joyga jam bo‘lishib, ularning barchasiga yosh avlodga saboq berish uchun qulay imkoniyatlar yaratilgan edi. Shu boisdan ham Sohibqiron zamondoshlari, yuqorida ta’riflanganidek, bu ulug‘vor shaharni “Qubbatul ilm val-adab”, ya’ni “Ilmu adab gumbazi” deb nomlashgan. Keyingi davrlarda ham ko‘p vaqtlar Shahrисabz bu yuksak unvonga munosib bo‘lib qolgandi.[2]

1378-yilda Temurbek Shahrисabz qo‘rg‘onini, qal’a devori, burju darvozalarini qurish haqida farmon bergen. Shahar qo‘rg‘onning atrofi chuqur handaq bilan aylantirilib, darvozalari osma ko‘prik bilan ta’minlangan edi. Qo‘rg‘on poydevori qurilishi bilan Temurbek Oqsaroydek mahobatli qasr qurilishiga buyruq bergen (1380).

Bu muhtasham bino ko‘rki ko‘plab olimu allomalarni o‘ziga jalb etgan. Chunki, imorat nihoyatda ulug‘vor va favqulodda jozi-bali edi. Muarrix Sharafuddin Ali Yazdiy bu haqda shunday lavha keltirgan: “Sichen yilda, torix yetti yuz seksan birda (1380, mart) ul shaharg‘a qal’a soldurdi va jahdlab tamom qildurdi. Va andoq shahri bo‘ldikim, gardun Muhandisi muncha yoshi bilan olamni kezib, hech bir yerda mundoq shahar va ko‘shk ko‘rmagan turur”.[3]

Oqsaroyning qurilishi haqida muarrix Abdurazzoq Samarqan-diy: “Temur ishga yaroqli bo‘lganlarning hammasini Xorazmdan Movarounnahrga ko‘chirishga buyruq berdi... xorazmlik ustalar baland va salobatli saroy qurishga”, deb yozgan bo‘lsa, major olimi Armeniy Vamberi Oqsaroyni “Eron me’morlarning xolis ishidir”, deb ta’kidlagan.

Oqsaroy me’moriy tuzilishi jihatidan ancha murakkab, fav-qulodda ulug‘vor va muhtasham bino bo‘lganligi sababli qariyb 24 yil vaqt ichida (1380-1404) bunyod etilgan. Qurilishining cho‘zilib yuborilishiga Temurbekning Samarqanddagi bunyodkorliklar ko‘la-mi, harbiy yurishlari sabab bo‘lgan, albatta. Oqsaroy qurilishi vaqt-vaqt bilan to‘xtab turgan va yana davom ettirilgan bo‘lishi ham mumkin. Xullas,

obida qurilishining asosiy qismini xo-razmlik ustalar bitirgan bo‘lsa-da, eronlik me’morlar quri-lishni nihoyasiga yetkazishgan.

Ayniqsa, binoni o‘zi milliy uslublarida jimjimador naqsh-lar bilan bezalgan. Oqsaroy qurilishida ozarbayjonlik ustalar ham qatnashganki, bu saroy peshtoqiga yozib qoldirilgan lavhadan ham sezilib turadi. Unda tabrizlik me’mor va naqqosh Muhammad Yusufning ismi yozilgan. Ispaniya (Kastiliya) elchisi Rui Gonsales de Klavixo Samarcandga Temurbek huzuriga kelaturib (1404-yil 29-avgust) Shahrisabzda to‘xtagan va Oqsaroyni tomosha qilgan. O’shanda Oqsaroydagi qurilish ishlari asosan tugallangan bo‘lsa-da, lekin jihozlash ishlari nihoyasiga yetmagan edi.

Elchining yozishicha, Oqsaroy Temurbek va uning oilasiga mo‘l-jallangan shohona istiqomat saroyi bo‘lgan. Unda Temurning zebu ziynatga boy qabul zallari, o‘zi va oilasi uchun yashash xonalar, dam olish xonalari, endi 300 qadam, atrofi toqlardan iborat ulkan ichki hovli, sathi oq marmarli katta hovuzi, salobatli peshtoq va ravoqlar, bog‘ va undagi mevali hamda manzarali daraxtlar mavjud edi. Oqsaroy bezaklaridan hayratga tushgan elchi Klavixo: “... bu yerda xonalar shunchalik ko‘pki, ularni birdaniga ta’riflab tugata olmayman. Xonalarning bari oltin, dur-gavharlar bilan ziynat-langan. Buni Parij ustalari ko‘rsa, hayratda qolishlari tabiiy. Bunday ishlar ularda juda yuqori baholanadi”,[4] - deb yozgan edi.

Bobur mirzo yozadiki: “muncha oliy toq olamda kam nashon berurlar. Derlarkim, Kisro toqidin ham bu biyikrok”[5]

Saroyning o‘ziga xos xususiyatlardan yana biri shu ediki, imorat tomi ustiga antiqa hovuz ishlangan bo‘lib, unga Samarcand vohasi Urgut tog‘lari bag‘ridagi Taxta qoracha dovonidan qahrabo suv qo‘rg‘oshin quvurlar orqali 35 kilometr masofadan oqib kelgan, so‘ngra sharshara hosil qilib, pastga tushgan edi.

O‘z davrida Oqsaroydek ulkan va mahobatli inshoot Turonu Eronda yagona edi. Uning bosh peshtoqi Sharq me’morchiligidagi eng yirik peshtoqlardan hisoblanib, umumiyligi 40 metrlar chamasida, balandligi esa 50 metrdan oshiqroq bo‘lgan deb taxmin qilinadi. Oqsaroydek ulkan obidadan hozirda ushbu peshtoqning bir-biridan ajralgan ikki asosigina saqlanib qolgan. Ana shu asos minoralar oralig‘idagi

ravoqning kengligi 22,5 metrdir. Agar bu hozirda saqlanib qolgan Temurbek davriga oid obidalar peshtoqi bilan taqqoslansa, uning naqadar kengligiga ishonch hosil qilish mumkin. Masalan, Turkistondagi Xoja Ahmad Yassaviy va Samarcanddagi Amir Temur jome masjidi eng katta peshtoqlarning kengligi 18,5 metrdan oshmaydi.

Oqsaroy bezaklari Samarcand obidalaridagi naqshlardan farq qiladi.[6] Tashqi bezaklardagi tilla suvi yuritilgan naqsh-lar bosh peshtoq husniga husn qo'shadi. Naqshlardagi qora ranglar Makkadagi toshga, ko'k ranglar esa beg'ubor osmonga qiyoslangan. Obidaga husn baxsh etib turgan arabi yozuvlar ichida Amir Temur-ning "Qudratimizga shubhang bo'lsa biz qurdirgan imoratlarga boq" degan iborasi mavjud. Oqsaroy peshtoqidagi sohibqiron sal-tanatning ramziy belgisi ham bo'lib, bu belgi uch xalqadan iborat edi. Ular uch hududiy iqlimida – shimol, janub, g'arb mintaqa-larida barpo etilgan sultanatga ishoradir. Halqadan tashqari quyosh va sher tasviri hamda "Kuch adolatda" degan arabcha yozuv ham bitilgan.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Oqsaroy qurilishida taxminan 30 ming nafarga yaqin g'isht teruvchi, 20 ming nafarga yaqin koshinkor va boshqa ustalar ishtirok etishib, ularni ovqatlanti-rish uchun har kuni 700 ga yaqin qozon qaynab turgan.

Demakki, Oqsaroy Markaziy Osiyo me'morchiligidagi buyuk obida bo'lib, xalq me'morlari ijodining eng yuqori cho'qqisi namunasi hisoblanadi.[7]

Dorut-tilovat me'moriy majmui. Amir Temur Shahrisabzda bir necha ibodat majmualari va maqbaralar ham bunyod ettirgan[8]. Masalan, 1370 yilda shahar jome masjidi yonida otasi Amir Tarag'ayning (o'zining ham) piri Shayx Shamsuddin Kulol mozori ustiga maqbara qurdirgan, 1374-yilda otasi Amir Tarag'aybek Bahodir mozori qoldig'ini Shahrisabzga ko'chirtirib, uning piri oyog'i tomoni poyida qo'yilgan mozori ustiga maqbara bunyod ettirgan. Bu ikki maqbara keyinchalik buzilib ketgan shahar jome masjidi o'rniha Mirzo Ulug'bek qurdirgan masjid (Ko'kgumbaz) bilan uyg'unlashib ketib, shaharning Qur'on o'qiladigan maxsus hovlili madrasasi Dorut-tilovat me'moriy majmuasi tarkibiga kirgan.

Xulosa qilib aytganda, Xo'ja Ilg'or – Keshdan chiqqan Amir Temur hukmronligi davrida Buxoro, Samarcand, Toshkent, Shahri-sabz, Qarshi kabi shaharlari Turonzaminning eng yirik savdo va hunarmandchilik markaziga aylanib, kun sayin rivojlanib bordi.

Tarag‘ay qishlog‘i. Qashqadaryo vohasi Chiroqchi tumanidagi Tarag‘ay qishlog‘i ham Amir Temur nomi bilan bog‘liq maskan hisoblanadi. Etnografik ma’lumotlarga ko‘ra, mazkur qishloq Temurbek otasi Muhammad Tarag‘aybekning mulki hisoblanib, aholisining ko‘pchilagini barloslar tashkil etadi. Qishloqda farmontosh hamda Amir Temur g‘ori joylashgan. Sohibqiron hokimiyat uchun mo‘g‘ullarga qarshi kurashda va 1370-yil aprelda taxtni egallagandan so‘ng ota yurti – Tarag‘ay qishlog‘ini ziyorat qilib turgan, bog‘lar barpo etishga va obodonchilik ishlarini yo‘lga qo‘yishga amr qilgan. Hozirgi paytda mazkur qishloq va tevarak-atroflari obodonlashtirilib, ichki va tashqi turizm maskaniga aylantirildi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – B.87 – 88.
2. Qarang: Kesh – Shahrisabz tarixidan lavhalar. – T.: “Sharq”, 1998.
3. Sharafuddin Ali Yazdiy. Ko‘rsatilgan asar. – B.88.
4. Amir Temur Yevropa elchilari nigohida. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2007. – B.111.
5. Boburnoma. – B.47.
6. Ravshanov P. Oqsaroy tarixi. – T.: “Yangi asr avlod”, 2016; Amir Temur Yevropa elchilari nigohida. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2007. – B.111.
7. Amir Temur jahon tarixida. – B.149.
8. Ravshanov P., Hushvaqov N. Qashqadaryo tarixiga sayohat. – T.: “Ilm-ziyo”, 2020.
9. Jabborova, I. X. (2021). IRRIGATION STRUCTURES IN KASHKADARYO OASIS. In НАУКА И ТЕХНИКА. МИРОВЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ. СОВРЕМЕННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В ПСИХОЛОГИИ И ПЕДАГОГИКЕ (pp. 15-19).
10. ЖАББОРОВА, И. Х. (2021). ЎЗБЕКИСТОН СУФОРИШ ТАРИХИНИНГ ЗАХМАТКАШ ТАДҚИҚОТЧИСИ ВА ЗУККО МЕЙМОРИ. In Uzbek Conference Publishing Hub (Vol. 1, No. 01, pp. 54-58).
11. Xujamurotovna, J. I. (2020). Study of irrigation history of the kashkadarya oasis. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(6), 3047-3051.
12. Khujamuratovna, J. I. (2022). MELIORATIVE CONDITION OF LAND IN THE OASIS OF KASHKADARYA IN THE 50S OF THE 20TH CENTURY. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(10), 118-122.

**TABLE OF CONTENTS**

Sr. No.	Paper/ Author
1	<b>М.Х.Жалилов, Ж.Х.Хамроев, &amp; Каршиев Ж.И. (2023). ТАЛАБАЛАР МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМНИНГ «ЭШТИШ ФИЗИКАСИ. ИНФРАТОВУШ, ТОВУШ ВА УЛЬТРАТОВУШ» МАВЗУСИНИ БАЖАРИШИ БЎЙИЧА УСЛУБИЙ КЎРСАТМА. GOLDEN BRAIN, 1(12), 4–10.</b> <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.7901990"><u>https://doi.org/10.5281/zenodo.7901990</u></a>
2	<b>Isakova Nargizakhon Valijon qizi. (2023). ADVERTISING TEXTS AND ITS TRANSLATION. GOLDEN BRAIN, 1(12), 11–14.</b> <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.7902002"><u>https://doi.org/10.5281/zenodo.7902002</u></a>
3	<b>Xudoyberdiyeva Gulrux Sobirovna, &amp; Musurmonov Aminjon Melikulovich. (2023). SPINAL OG'RIQSIZLANTIRISH FONIDA INTRAOPERATIV SEDASİYANING OPERATSIYADAN KEYINGI DAVRDA KOGNITIV FUNKTSIYAGA TA'SIRI. GOLDEN BRAIN, 1(12), 15–22. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.7902012"><u>https://doi.org/10.5281/zenodo.7902012</u></a></b>
4	<b>A.M.Abdurahmanov, &amp; Abdug'ofurov.U.A. (2023). BOLTLI VA PARCHIN MIXLI BIRIKMALAR. GOLDEN BRAIN, 1(12), 23–27.</b> <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.7902034"><u>https://doi.org/10.5281/zenodo.7902034</u></a>
5	<b>Xamidova Fariza Shuxrat qizi. (2023). "O'SMIRLIK DAVRIGA XOS AGRESSIVLIKNI IJTIMOIY – PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI" (MEHRIBONLIK UYI TARBIYALANUVCHILARI MISOLIDA). GOLDEN BRAIN, 1(12), 28–32. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.7902059"><u>https://doi.org/10.5281/zenodo.7902059</u></a></b>
6	<b>Oramova Nafosat Jo'rayevna. (2023). ONA TILIDAN MILLIY TIL VA ADABIY TILLARNING FARQLI JIHATLARI. GOLDEN BRAIN, 1(12), 33–36.</b> <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.7902067"><u>https://doi.org/10.5281/zenodo.7902067</u></a>
7	<b>А.М.Абдурахманов. (2023). ЁФОЧ КОНСТРУКЦИЯЛАРИНИ ҲИСОБЛАШ БЎЙИЧА УМУМИЙ ТУШУНЧАЛАР. GOLDEN BRAIN, 1(12), 37–41.</b> <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.7902089"><u>https://doi.org/10.5281/zenodo.7902089</u></a>
8	<b>Ubaydov Q.Z, Shokirov L.B, Saidova G.Sh, &amp; Sayfullayev S.S. (2023). TIKUV MASHINASI UCHUN TAXLANMA TISHLI G'ILDIRAKLI MOSLAMASI. GOLDEN BRAIN, 1(12), 42–46. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.7902095"><u>https://doi.org/10.5281/zenodo.7902095</u></a></b>

**9**

- Muydinov Muhammadzoir Zafarjon o'g'li. (2023). ANVAR OBIDJON ASARLARINING NASRIY POETIKASI. GOLDEN BRAIN, 1(12), 47–55.**  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7902132>

**10**

- Nuraliyev Jasur. (2023). REKLAMA TARJIMASIDA TARJIMON MAHORATI, REKLAMA TARJIMASI USLUBI VA MUAMMOLARI. GOLDEN BRAIN, 1(12), 56–59. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7902146>**

**11**

- Nuraliyev Jasur. (2023). REKLAMA MATNLARINING LINGVOMADANIY JIHATLARI. GOLDEN BRAIN, 1(12), 60–64.**  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7902153>

**12**

- Қўлдошев Ў. (2023). ИНГЛИЗ ТИЛИДАГИ ФРАЗАЛИ ФЕЪЛЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ТАРЖИМА МАШАҚҚАТЛАРИ. GOLDEN BRAIN, 1(12), 65–68.**  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7902159>

**13**

- Nasrullayeva Tozagul Suhrobovna, & Mavlonova Gulnora Abdigani kizi. (2023). O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN UNUMLI FOYDALANISH. GOLDEN BRAIN, 1(12), 69–72.**  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7902167>

**14**

- Raxmonova Farida Zafar kizi. (2023). SCIENTIFIC SIGNIFICANCE OF NOTION "FATE". GOLDEN BRAIN, 1(12), 73–76. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7902175>**

**15**

- Djumaniyazov Otemis Tlemisovich, Alimardanov Rustam G'ayratovich, & Normuminova Gulmira Komiljonovna. (2023). TYPOLOGICAL STAGES AND SPECIFIC ASPECTS OF OPERA PERFORMANCE. GOLDEN BRAIN, 1(12), 77–79. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7902177>**

**16**

- Nurmuxamedov Beknazар Bahodir o'g'li, Jo'rayev Muhammadali Sherzodbek o'g'li, & Normuminova Gulmira Komiljonovna. (2023). HISTORICAL DESCRIPTION OF THE PLACE AND STAGES OF DEVELOPMENT OF THE ART OF OPERA IN UZBEKISTAN. GOLDEN BRAIN, 1(12), 80–82.**  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7902200>

**17**

- Mamatov Maxtumquli Jumanazarovich. (2023). MOBIL ILOVALAR YARATISH ZARURIYATI VA UNI TA'LIM TIZIMIDA O'RGATISH ZARURIYATI. GOLDEN BRAIN, 1(12), 83–87. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7902219>**

18

Axmedov Alisher Turayevich. (2023). EKOLOGIK TURIZM AMALIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA YASHIL MARKETING SAMARADORLIGI. GOLDEN BRAIN, 1(12), 88–93. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7902223>

19

Asqarov Anvarjon Rahimjon o'g'li, & Aminjonov Isomiddin Zaylobidin o'g'li. (2023). KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA O'Z-O'ZINI ANGLASHDA IJTIMOIYLASHUVNI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. GOLDEN BRAIN, 1(12), 94–98. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7902229>

20

Zokirjonova Madina. (2023). GENRE TRANSFORMATION OF THE FAIRY TALE IN THE MODERN AMERICAN NOVEL. GOLDEN BRAIN, 1(12), 99–103. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7902253>

21

Миравиева Диана Нұрмұхан қызы, & Байзаков Жандос Абдазимович. (2023). ҚАЗАҚТЫҢ УШ БӘЙТЕРЕГІНІЦ БІРІ, ҚАЗАҚ ПОЭЗИЯСЫНЫҢ ҚҰЛАГЕРІ-ИЛИЯС ЖАНСУГІРОВТІҢ ӨНЕР ТАҚЫРЫБЫНА АРНАП ЖАЗҒАН ҚҰЛАГЕР ПОЭМАСЫ. GOLDEN BRAIN, 1(12), 104–106. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7902327>

22

Arziqulov Elboy Azim o'g'li. (2023). MADANIYAT TUSHUNCHASI VA UNING QONUNLARIMIZDA MUSTAHKAMLANISHI. GOLDEN BRAIN, 1(12), 107–112. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7902331>

23

Usmonov Kuvonchbek Mannonovich, & Abdullayev Behruz Otabek o'g'li. (2023). NEFT VA GAZ KOLLEKTORLARI VA ULARNING (G'OVAKLIK) XOSSASI. GOLDEN BRAIN, 1(12), 113–117. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7902338>

24

Khalmuratova Manzura Khoshmuratovna. (2023). COMMON PRONUNCIATION PROBLEMS THAT ESL AND EFL STUDENTS FACE. GOLDEN BRAIN, 1(12), 118–125. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7902344>

25

Kamola Yusupova. (2023). DAVLAT VA DIN MUNOSABATLARI. GOLDEN BRAIN, 1(12), 126–130. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7902358>

26

Qosimova Gulxumor Muxtorjon qizi. (2023). DICTIONARIES OF POLITICAL TERMS AND THEIR ROLE IN THE SOCIAL LIFE OF THE PEOPLE. GOLDEN BRAIN, 1(12), 131–134. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7902360>

27

Аманова Перизат Ергали қызы. (2023). ХОРЕЗМИДІҢ «МҰХАББАТНАМЕ» ШЫҒАРМАСЫНЫҢ ЛЕКСИКАСЫ. GOLDEN BRAIN, 1(12), 135–138. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7902376>

**28**

**Saydalimov Axror Xudoyberdi o'g'li. (2023). OVQAT HAZM QILISH JARAYONIDAGI FIZIOLOGIK O'ZGARISHLARNING BUZILISHI. GOLDEN BRAIN, 1(12), 139–141. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7902379>**

**29**

**Саломов Хумоюн Бобурмирзо угли. (2023). СУД ТИЗИМИДА ЖОРӢЙ ЭТИЛАЁТГАН ТАФТИШ ИНСТАНЦИЯСИ ОРҚАЛИ ШАХС ҲУҶУҚЛАРИ ВА МАНФААТЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШ МЕХАНИЗМИ ЯНАДА ТАКОМИЛЛАШТИРИЛМОҚДА. GOLDEN BRAIN, 1(12), 142–149. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7902381>**

**30**

**Абозова Фарангис Махмуд кизи. (2023). ВЗГЛЯД НА ДЕТСКИЕ КНИГИ. GOLDEN BRAIN, 1(12), 150–152. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7902389>**

**31**

**Моҳира Ҳасановна Тошбекова. (2023). МАҶНАВИЙ ВА МАФКУРАВИЙ ТАҲДИДЛАРГА ҚАРШИ КУРАШНИНГ ИЖТИМОИЙ-ҲУҶУҚИЙ МЕХАНИЗМЛАРИ. GOLDEN BRAIN, 1(12), 153–161. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7902394>**

**32**

**Usmonova Dona Sotvoldievna, & Yunusov Axliddin Ubaydullayevich. (2023). INGLIZ VA O`ZBEK TILLARIDAGI MODAL SO`ZLARNING KULTROLINGVISTIK TAHLILI. GOLDEN BRAIN, 1(12), 162–166. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7905303>**

**33**

**G'o'chchiyev Zayniddin Gulmurodovich. (2023). TEMURIYLAR DAVRIDA KESH SHAHRI BUNYODKORLIK ISHLARI. GOLDEN BRAIN, 1(12), 167–171. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7905307>**